

82.10  
0-95

E.OCHILOV

TARJIMA  
NAZARIYASI VA  
AMALIYOTI

Toshkent - 2012

82.0  
0-95

XP-20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Ergash Ochilov

TARJIMA NAZARIYASI VA  
AMALIYOTI

(o'quv qo'llanma)

22523

Toshkent – 2012

Ochilov Ergash. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). –T., 2012. 124 b.

Ushbu qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq filologiyasi va falsafa hamda Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari fakultetlarining IV bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan «Tarjima nazariyasi va amaliyoti» fani o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, tarjimashunoslik fani haqida yalpi tasavvur hosil qilishi, uning asosiy yo'nalishlari to'g'risida muxtasar ma'lumot berishi, eng muhim qoida va talablari bilan tanishtirishi jihatidan undan filologiya sohasidagi barcha mutaxassislar, magistr va talabalar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur qo'llanma ToshDSHI da bajarilayotgan ITD-1-144 "O'zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga tarjima qilishning nazariy va amaliy masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**J.ZIYAMUHAMEDOV,**  
*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Taqrizchilar:**

**A.HABIBULLAYEV,** *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*  
**G.RIXSIYEVA,** *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012

## KIRISH

Tarjima nazariyasi va amaliyoti o'quv fani Sharq filologiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga tarjima jarayonining nazariy va amaliy sohalaridan malaka hosil qilishlarini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun darslarni ta'limning 4-bosqichida 22 soat nazariy va 22 soat amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tkazish belgilangan.

Soatlar hajmining cheklanganligi hisobga olinib, tarjima nazariyasining umumiy jihatlari va eng muhim qoida-prinsiplarigina qamrab olinadi va ular amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustahkamlanadi. Shuning uchun kursning nazariy qismi tarjima nazariyasiga kirish bilan chegaralanadi. Dars mavzularining taqsimlanishi asosan ikki soat hisobidan bo'lib chiqilgan va ayrim alohida masalalar ichki mavzularda yoritilgan. Mustaqil o'rganish uchun mavzular darsning asosiy mavzusini yoritishi mumkin bo'lgan, yangi paydo bo'layotgan materiallar bilan almashtirib yoki boyitib borilishi tavsiya etiladi.

O'quv jarayonida talabalar tarjima haqida umumiy tushuncha hosil qilishlari, tarjimaning maqsad va vazifalarini chuqur bilib olishlari, tarjimashunoslik fanining asosiy predmeti, tarkibiy qismlari, tarjimaning tur va xillari, qo'llanish sohaları, janriy bo'linishi, til va tarjimada funksional uslublar sohasida atroflicha bilimga ega bo'lishlari; tarjima jarayoni, so'z tanlash, lug'at ustida ishlash malakasi hamda tarjimaning yozma va og'zaki turlarida badiiy, publisistik, rasmiy, ilmiy uslubdagi matn yoki nutqlarni tarjima qilish sohasida ko'nikma hosil qilishlari lozim. Mazkur o'quv fanini o'zlashtirish uchun talabalarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining ayrim bo'limlari yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishlari taqozo qilinadi. Jumladan, tilshunoslik sohasida qiyosiy grammatika; qiyosiy uslubshunoslik, funksional uslublar, adabiyotshunoslik sohasidan adabiy janrlar, badiiy matn tarkibi, muallif nutqi, personaj nutqi, she'riy nutq, muallif uslubi, milliy kolorit, badiiy tasvir vositalari kabi bo'limlardan hosil qilingan bilimlar tarjima jarayonini o'rganish uchun zaruriy bilimlar hisoblanadi.

O'qitish jarayonida tildagi grammatik hodisalarni tushuntirish uchun hozirda mavjud bo'lgan ingliz tilidan rus tiliga va rus tilidan ingliz tiliga avtomatlashtirilgan tarjima matnlari bo'yicha tuzilgan kompyuter dasturidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari test-sinov savollarini kompyuterlashtirish ham talabanning tarjima sohasida kompyuterni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda ijobiy natijalar beradi.

Olingan bilimni nazorat qilish uchun savollar va ochqich so'zlar har bir ma'ruza oxirida keltirilgan.

**BIRINCHI MAVZU:  
TARJIMA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.  
XALQLAR VA TILLAR**

**Dars rejasi:**

1. *Tarjima tushunchasining mazmun va mundarijasi.*
2. *Tarjimaning siyosiy-ijtimoiy, ma'daniy-ma'rifiy ahamiyati.*
3. *Tarjima, tarjimon, tarjimashunos so'zlarining etimologiyasi va ta'rifi.*
4. *Tarjima bosqichlari.*
5. *Tarjima va interpretatsiya.*
6. *Xalqlar va tillar.*

**Tarjimaning siyosiy-ijtimoiy, ma'daniy-ma'rifiy ahamiyati**

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik milliy mahdudlikka olib keladi"<sup>1</sup>. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'prik deb qaraladi.

Demak, tarjima:

- xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi;
- madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'siri;
- tillarning boyishida muhim rol o'ynaydi.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: «O'qituvchi», 1978. 18-bet.

**Tarjima tushunchasining mazmun va mundarijasi**

Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan **qayta yaratish**dan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidir. Chunki san'atning boshqa turlari (tasviriy san'at, musiqa, raqs) tarjimasiz ham barchaga tushunarlidir.

"**Tarjima** tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiq-larning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'giriladi"<sup>1</sup>.

Har qanday tarjima oldiga ikki talab qo'yiladi:

- aslyatda ifodalangan fikr tarjimada ham to'la, aniq va ta'sirchan tarzda o'z akasini topishi kerak;
- tarjima o'zi o'girilgan til me'yorlariga mos kelishi kerak.

Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan narsani dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi – bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'i nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifodalash demakdir (Tarjima – qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu', taqlid, har xil "adaptatsiya"lardan o'zining xuddi ana shu a n i q l i g i va t o' l a l i g i bilan farq qiladi)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 95-bet.

<sup>2</sup> O'sha yerda. 95-96-betlar.



## Tarjima bosqichlari

“Tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat:

- 1) asl nusxani idrok etish;
- 2) asl nusxa interpretatsiyasi;
- 3) asl nusxani qayta ifodalash.

Asarni o‘z tiliga o‘g‘irish maqsadida qo‘lga olgan tarjimonning asl nusxasini anglashi uch bosqichda sodir bo‘ladi:

**birinchi bosqichda** matn so‘zma-so‘z, ya‘ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro‘y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so‘zni xuddi shunday jaranglaydigan bo‘lak so‘z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; kontekstni noto‘g‘ri o‘zlashtirish, ayrim xos so‘zlarning ma‘nosiga tushunib yetmaslik; muallifning muddaosini anglamaslik;

**ikkinchi bosqichda** uslubiy omillarga e‘tibor qilinadi. Matnni to‘g‘ri o‘qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham anglaydi, ya‘ni kayfiyat, piching yoki fojaviy ma‘no, ohangdorlik yoxud voqeani quruq bayon kilishga moyillik va hokazo. Rosmana kitobxon barcha bu sifatlarni anglab yetishi shart emas, tarjimon esa muallif qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o‘qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo‘lishni talab qiladi;

**Uchinchi bosqich** – ayrim til vositalarini uslubiy va ma‘no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, muallifning g‘oyaviy niyatini anglashga o‘tadi. Matnni anglashning bu yo‘li ancha murakkab va og‘ir – muallif yaratgan badiiy voqelikni to‘laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo‘lmog‘i darkor. Asl nusxani to‘laligicha qamrab olish, idrok etish uchun, aytaylik, rejissyorga qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo‘lishi zarur<sup>1</sup>.

## Tarjima, tarjimon, tarjimashunos so‘zlarining etimologiyasi va ta‘rifi

**Tarjima** – muayyan tilda og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash.

**Tarjima tarjimon** so‘zidan hosil bo‘lgan, **tarjimon** esa forscha **tarzabon** so‘zidan kelib chiqqan.

Ma‘lumki, qadimda O‘rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notiqlik san‘ati juda rivojlangan. Notiqlarni esa tarzabon deb ataganlar. **Tar** – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma‘nolarni bildiradi. **Zabon** – til degani. **Tarzabon** – notiq, chiroyli gapiruvchi, so‘z ustasi, yangi va o‘tkir so‘zlarni aytuvchi demak. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo‘lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o‘z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarini o‘z ta‘siriga olganlari kabi, ko‘pgina so‘zlarni ham o‘zlashtirib, arab tili qoidalariga bo‘ysundirganlar. Jumladan, **tarzabon** so‘zi ham arabcha talaffuzda “tarjamon” (yoki “tarjimon”)ga aylanadi. Shundan keyin u arab tilining so‘z yasaliş qonuniga bo‘ysunib, undan yangi masdar (o‘zak), fe‘l va otlar hosil qilingan. Masalan: tarujama, tirijama, tarjama, mutarjim, mutarjimun.

Shunday qilib, **tarjimon** – **tarzabon** so‘zining arabcha tarjimasi bo‘lsa, **tarjima tarjimon** so‘zidan kelib chiqqan.<sup>1</sup>

**Tarjimon** – bir tildagi og‘zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch, tarjimachi.

**Tarjimonlik** – tarjima qilish, tarjima ishi bilan shug‘ullanish. Kasb oti.

**Tarjimashunos** – tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis, olim.

**Tarjimashunoslik** – tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidi bilan shug‘ullanuvchi fan.

**Tarjima** o‘tmishda hozirga ma‘nosidan tashqari, **bayon etish, tushuntirib berish, matnni sharhlash, tafsir, ma‘noni chaqish, sodda qilib ifodalash** ma‘nolarini ifodalab kelgan. Chunonchi, **tarjimai hol** – ahvolni bayon etish. Shuning uchun hatto XX asr boshlariga

<sup>1</sup> Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. 102-bet.

<sup>1</sup> Komilov N. Bu qadimiy san‘at // Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 55-56 betlar.

qadar ham **tarjima** va **sharh**, **tarjimon** va **shorih** (sharhlovchi) tushunchalari o'rtasida qat'iy chegara bo'lmay, biri ikkinchisining o'rniga qo'llanavergan. Bunga tarjimalarning shakli va tarjimonlarning tarjima prinsiplari ham asos bergan. Chunonchi, 1909 yilda "G'ulomiya" matbaasida bosilib chiqqan Murodxo'ja ibn Solihxo'ja qalamiga mansub "Shavqi Guliston" kitobi Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining ham tarjima, ham sharhi edi. Chunki asarning forsiy matni bilan o'zbekcha so'zma-so'z tarjimasi berilib, kitob hoshiyasida turli so'z, ibora va hikmatlar sharhlangan.

**Sharhning** ham turlari ko'p. Ba'zi sharhlar izohli lug'at xarakterida bo'lib, asar matnidagi tushunarsiz so'z va iboralarni izohlab beradi. Boshqa bir xil sharhlarda asarning g'oyaviy mazmuni izohlanadi – bu tafsirga o'xshab ketadi (Birinci turi – izohli lug'at, ikkinchisi – adabiyotshunoslikka yaqin). **Tafsir** so'zi garchi sharh so'zi bilan ma'nodosh bo'lsa-da, uning ayni o'zi emas, u keng sharhlash, ma'noni bayon etish demakdir. Shuning uchun ham tafsir so'zi ilmiy, falsafiy va diniy asarlarga nisbatan qo'llangan. G'arb adabiyotidan tarjimalar munosabati bilan boshqa xalqlarning tarixi, an'ana va udumlari, dini, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tushunchalarni sharhlash ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday sharhlar tarixiy xarakterga ega. Ilmiy asarlar sharhi o'z-o'zidan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alibek Rustamov Atulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoyi" nomli she'riy san'atlarga oid asari tarjimasida ko'plab ilmiy-adabiy sharhlar beradi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (B.Ahmedov tarjimasi) va Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (I.Bekjon tarjimasi) tazkiralari tarjimasida ham tarixiy, ham adabiy mavzudagi sharhlar berilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (S.Mirzayev, B.Ahmedov tarjimalari), Nosir Xisravning "Sayohatnoma" (G'.Karim tarjimasi) asarlari tarjimasida esa tarixiy mavzudagi sharhlar yetakchilik qiladi.

O'zbek shoirlar tarjima so'zi o'rniga **o'g'irish**, **ag'darish**, **qaytarish**, **chevurish** kabi atamalarni ham keng ishlatganlar. Chunonchi, Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini "Guliston bit-turkiy" nomi bilan tarjima qilgan Sayfi Saroyi (XIV) tarjimini bir tildan ikkinchisiga **qaytarish** deb atagan:

*Turkiga qaytib Ajamdin bu kitob,  
Ma'rifatqa ochti sakkiz turli bob.*

1340 yilda buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostonini o'zbek tiliga o'g'irgan Qutb Xorazmiy o'z tarjimasi haqida, jumladan shunday deydi:

*Nizomiy nazmi yanglig' tuz so'zungni,  
Anin bilgut xoningg'a bu o'zungni...  
Qozontek qaynab-ush savdo pishirdum,  
Nizomiy bolidin halvo pishurdum.*

Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarini "Nasoyim ul-muhabbat" nomi bilan o'zbekchaga tarjima qilgan Alisher Navoiy tarjima so'zi bilan birga, **o'tkarish** atamasini ham qo'llaydi: "Xotirg'a kechmishkim, agar sa'y qilsam, bu kitobni turk tiliga **tarjima** qila olg'aymuman va ul daqoyiqu mushkilotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o'tkara olg'aymuman, deb mutaammil erdim"<sup>1</sup>.

Hiloliyning "Shoh va gado" dostoni tarjimasiga ilova qilgan "Bu qissa tarjimasining boisi" degan bobda Ogahiy asarni asl nusxadan chekinmay, unga mos tarjima qilishga uringanligini qayd etadi:

*Har na so'zdin qilibdurur tahrir,  
Bayt-barbayt ayladim taqdir.  
Barcha so'z kim, dedim, oning so'zidur  
Man demaykim, degan oning o'zidur.  
Go'oyo men aning tilidurmen,  
Tutg'ali xomani alidurmen.*

Zabardast tarjimon Muhammadrizo Ogahiy ham **tarjima** bilan birga, **kiritish**, **o'tkazish**, **bayon etish** so'zlarini qo'llagan. "Shayx Nizomiyning "Haft paykar" otlik kitobini... **tarjima** qilib, turkiy lafzig'a **kirguzmak** xizmatini buyurdilar" yoki:

*Bu nusxa tarjimasig'a ochib til,  
Iboratini turkiy masnaviy qil,*

yoxud:

*Turk alfozi birla ayla bayon...*

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 17-jild. – Toshkent: «Fan», 2001. 12-bet.

Hozirgi kunda ham tarjima soʻzining oʻgʻirish, agʻdarish, oʻtkazish kabi maʼnodoshlari qoʻllanadi<sup>1</sup>.

**Tarjima** oʻrnida baʼzan **oʻgirma** ham deyiladi.

**Asliyat** – tarjimaga asos boʻlgan asar, original.

### Xalqlar va tillar

Yer yuzida oʻlik tillar bilan birga 2500 tadan 7000 tagacha tili mavjud deb taxmin qilinadi.

Hozirda sayyoramiz aholisi 2976 ta tilda muomala qiladi. Insoniyat 11 ta asosiy va 50 ta “mayda” lisoniy turkumlarga kiradigan tillarda fikr almashadi. Xalqlar jami 7-8-mingtacha shevalardan foydalanadilar.

Qoʻllanish doirasiga koʻra quyidagi tillar buyuk tillar hisoblanadi: xitoy, ingliz, ispan, rus, arab, fransuz, hind, nemis, yapon, italyan.

Ushbu tillardan oltitasi BMT tomonidan jahon tillari sifatida tan olingan: ingliz, rus, fransuz, ispan, xitoy, arab.

“Dunyoda taxminan 2 ming xalq yashaydi. 200 ga yaqin koʻp millionli xalq mavjud, ular yer kurrasining 95 foiz aholisini tashkil qiladi. Dunyo aholisining bor-yoʻgʻi 5 foizi qolgan 1 mingu 800 xalqning hissasiga toʻgʻri keladi”<sup>2</sup>.

Sayyoramiz aholisining uchdan ikki qismidan koʻprogʻi 27 tilda, uchdan bir ulushidan kamrogʻi esa taxminan 2 mingdan ortiq tilda soʻzlashadi<sup>3</sup>.

Xitoyda ingliz tilida gapiradigan aholi AQSHdagidan koʻproq.

Kichik Antil orollari guruhiga mansub Dominika orolida yashovchi ayollar erkaklarnikidan butunlay boshqa tilda soʻzlashadilar.

Yaqinda mutaxassislar dunyodagi eng noyob va yoʻqolib borayotgan tillar yigirmataga yetishini aniqladilar. Shimoliy Amerika hindularining yeuak tili ham gʻoyatda noyob boʻlib, yoʻqolish arafasida deb tan olingan.

Xalqlarning qanchalik taraqqiy etgani yoki xalqaro nufuziga qarab, ularning tillari ham mashhur boʻlgan. Chunonchi, antik davrdan to arablar tarix sahnasiga chiqqunga qadar yunon tili mashhur boʻlgan.

<sup>1</sup> Bu haqda N.Komilovning “Bu qadimiy sanʼat” maqolasidan toʻliq maʼlumot olish mumkin (Qarang: “Tarjima sanʼati”. 3-k. – Toshkent, 1976. 54-89- betlar).

<sup>2</sup> Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. 31-bet.

<sup>3</sup> Oʻsha yerda.

VIII-IX asrdan to XII-XIII asrlargacha arab tilining nufuzi yuksak boʻldi. XVI asrgacha lotin tili shuhrat qozondi. “XVI asrda Yevropada va hatto butun dunyoda ispan tili shoyon boʻldi, XVIII-XIX asrlarda fransuz va nemis tillari, XIX-XX asrlarda ingliz tili keng tarqaldi. Hozirgi vaqtda rus yoki ingliz tilini bilish dunyoda mavjud boʻlgan barcha axborotlarning 70-80-foiziga yoʻl ochadi”<sup>1</sup>.

1952 yili Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi tuzilgan.

Yevropa kengashi 2001-yildan 26-sentabrni xorijiy tillar kuni deb eʼlon qilgan.

**Medium** lotincha oʻrta degani boʻlib, boshqa til orqali tarjima qilish maʼnosini bildiradi. Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar barcha tillardan tarjima qilish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, vositachi tildan – medium tarjimadan foydalanadi.

### Tarjima va interpretatsiya

**Interpretatsiya** lotincha **interpretatio** soʻzidan olingan boʻlib, tushuntirish maʼnosini bildiradi.

**Interpretatsiyalash** – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demakdir.

Agarda asl nusxa muallifi voqelikni badiiy talqin qilsa, tarjimon asliyatni boshqa til vositalari yordamida qayta talqin qilishi kerak. Aslida hayotda har bir jarayon **qabul qilish** va **talqin etish** tarzida kechadi. Tarjimaga nisbatan ham shunday deyish mumkin. “Bunda quyidagi uch nuqtaga eʼtiborni qaratish lozim: a) asarning obyektiv maʼnosini aniqlash; b) tarjimonning interpretatsiyaviy mavqei; c) shu mavqedan turib, asarning obyektiv mohiyatini interpretatsiya qilish – asarni tarjima qilish konsepsiyasi va nimalarni oʻzgartirish zaruratini aniqlash.

Demak, tarjima hamma vaqt muayyan darajada interpretatsiyadir”<sup>2</sup>.

Boshqa tildagi ayrim soʻz va iboralar, jumlarlar agar oʻziday olinadigan boʻlsa, bunday tarjimadan hech qanday maʼno chiqmaydi. Bunday hollarda asliyatda boʻlmagan ayrim soʻzlar tarjimada “qoʻshiladi”. Aslida esa “qoʻshilgan” narsaning oʻrni shaklan asliyatda boʻlmasa ham, mazmunan biz uni bor deb bilamiz. Masalan, rus tilidagi “Человек звучит гордо!” degan mashhur hikmatni soʻzma-

<sup>1</sup> Oʻsha yerda. 35-bet.

<sup>2</sup> Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. 104-bet.

soʻz tarjima qilsa, «Odam magʻrur jaranglar!» tarzida boʻladiki, bunda mazmun mavhum qoladi. Shuning uchun uni bir soʻz qoʻshib, «Inson soʻzi magʻrur jaranglar!» deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Chunki rus tilidagi gapda bu soʻz aks etmasa-da, matnda uning borligi anglashilib turadi. Maqsud Shayxzoda bir sheʼrida uni tazmin sifatida quyidagicha tarjima qilib oladi:

*Magʻrur jaranglaydi inson degan soʻz!*

Taniqli polyak adibi Stanislav Yeji Lesning “Одрахлевшись, восклицательный знак становится вопросительным” degan hikmatini J.Kamol: “Alif qartayib, dol boʻldi”, R.Parfi: “Undov undalib-undalib savolga aylandi” tarzida tarjima qilishadi. Soʻzma-soʻz tarjimasi esa: “Undov alomati shalagʻi chiqib, savol alomatiga aylanadi”. Erkin tarjima qilsa: “Belidan madori ketib, undov alomati savol alomatiga aylanadi” shaklida boʻladi. Yoki: “Undov belgisi qariganda soʻroq alomatiga aylanadi”. Yana: “Qartayganda undov belgisi ham soʻroq alomatiga aylanadi”<sup>1</sup>.

Bu hikmatda ifodalangan undov belgisining soʻroqqa aylanishi majoziy maʼnoda boʻlib, undan maqsad har qanday tik qomat bir kun kelib xam boʻladi demakdir. Buni toʻgʻri tushungan Jamol Kamol Sharq mumtoz adabiyotidagi anʼanalardan kelib chiqib, uni «Alif qartayib, dol boʻldi» tarzida shaklan emas, balki mazmunan tarjima qiladi. Chunki oʻtmish soʻz sanʼatida arab yozuvidagi alif (a) harfi tik, toʻgʻri, dol (d) esa egilgan, xam qomatni bildirib keladi. Ayni jihatdan uning tarjimasini muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin.

Yana baʼzi misollar:

**Родной сын** – oʻz pushti-kamarimdan boʻlgan.

**Это не шутка** – bu hazil gap emas.

L.N.Tolstoy “Ана Karenina”: “... но он мальчик и весь у меня на руках” – “... lekin u qir-qizil yosh bola, “gah” desam, qoʻlimga qoʻnadi”. (M.Ismoiliy tarjimasi).

“Ахмад приехал со своей женой” gapini “Ahmad oʻz xotini bilan keldi” demasdan, “Ahmad xotini bilan keldi” deyilsa, uning oʻz xotini bilan kelganligi anglashilaveradi, ammo ruschada esa **со своей** olmoshi qoʻshilmasa, “Kimning xotini bilan?” degan savolga oʻrin

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Salomov Gʻ. Men ichgan daryolar. – Toshkent, 19-20-betlar.

qoladi. Shuningdek, oʻzbekcha “men singlimni koʻrdim” gapini “я увидел свою сестру” deb agʻdarishga toʻgʻri keladi. “Singlingni koʻrdim” deganda **твоею**, “singlisini koʻrdim” deganda esa egalik bildiruvchi **его** olmoshlarini qoʻshishga toʻgʻri keladi.

#### **Tayanch soʻz va iboralar:**

Tarjima, interpretatsiya, tarjimashunos, asl nusxa, tarjima bosqichlari, sharh, tafsir, izoh, nidium.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tarjima oldiga qanday talablar qoʻyiladi?
3. Har qanday tarjima uchun umumiy boʻlgan ikki holat qaysi?
4. Tarjima jarayoni necha bosqichdan iborat?
5. Tarjima, tarjimon, tarjimashunos soʻzlariga taʼrif bering.
6. Interpretatsiya deganda nimani tushunasiz?
7. Interpretatsiyaning tarjimadagi maqomini tushuntirib bering.

#### **Mustaqil taʼlim uchun topshiriqlar:**

1. «Xalqlar va tillar» mavzuida material toʻplash.
2. Tarjimada interpretatsiyaning mavqeyiga oid misollar topish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1978.
2. Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1983.
3. Sharipov J. Oʻzbekistonda tarjima tarixidan. – Toshkent: “Fan”, 1965.
4. Komilov N. Bu qadimiy sanʼat // Tarjima sanʼati (Maqolalar toʻplami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar.
5. Oʻzbekistonda badiiy tarjima tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1985.

**IKKINCHI MAVZU:  
TARJIMA NAZARIYASI PREDMETI VA  
TARJIMASHUNOSLIK FANLARINING TASNIFI**

**Dars rejasi:**

1. *Tarjima nazariyasi predmeti.*
2. *Tarjimaning ijodiy xarakteri.*
3. *Badiiy tarjimaning san'at ekanligi.*
4. *Tarjimashunoslikning fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi.*
5. *Tarjimashunoslik fanlarining tasnifi.*
6. *Tarjima antinomiyalari.*

**Tarjima nazariyasi predmeti**

“Tarjimashunoslik problematikasi (muammolar majmui – E.O)da quyidagi munosabatlar haqida gap boradi: 1. Asl nusxa bilan tarjima tillari o'rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi). 2. Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi formalarning estetik funksiyalarini aks ettirish) – bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va poetika yutuqlaridan foydalaniladi. 3. Umuman asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmatini o'rtasidagi munosabat – bu yerda adabiy tanqid metodlari qo'l keladi.

Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnat talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima *san'at* jumlasiga kiradi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 149-bet.

Badiiy tarjimaning ijodiy ish, san'at ekanligi quyidagilarda ko'rinadi: «Birinchisi – tarjimaning til sohasidagi ijod ekanligi.

Ikkinchi dalil: agar bir asarni o'n kishi o'g'irsa, ularning tarjimolari bir xil qolipdan chiqqanday, bir-biriga aynan o'xshab qolmaydi, balki jiddiy farq qiladi.

Uchinchi dalil shuki, ayni bir asarni o'g'irganda hosil bo'lgan bir qancha tarjimalar ijodkorlar mansub bo'lgan maktab, adabiy an'analar, o'g'irilayotgan asliyatning tabiati, tur xususiyatlari taqozosi bilan ham bir-biridan yaqqol ajralib turadi<sup>1</sup>.

Til vositalarini u yoki bu darajada tanlash xususiyatini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima ma'lum ma'noda **ijodiy** xarakterga ega bo'ladi.

“Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbatning qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida, xususiy xarakterdagi tarjima hodisalaridan tug'ilgan xulosalarni ilmiy ma'lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta'sir o'tkazish, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat. Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model<sup>2</sup>, qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi formalar tarjima nazariyasining **asosiy predmeti** hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'zbekistonda tarjimashunoslik mustaqil fan sifatida XX asrning o'rtalaridan shakllandi. Holbuki, tarjimachilik ming yillik tarixga ega. “Avvalo, arab, fors, hind, turk, rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, adabiy kitoblarni o'zbekchalashtirgan bizning tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, sistemalashtirilmagan, umumlashtirilmagan bo'lsa-da, qabul etilgan, o'qilgan, rioya qilingan ma'lum tarjimachilik aqidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Masalan, nazm – nasr bilan yoki goho, aksincha, nasr– she'riy maqomga solinib o'g'irilgan; hijjalab yoki erkin, qisqartirib yoki qo'shib, lokalizatsiya yoki modernizatsiya yo'li bilan tarjima kilingan va hokazo. Hatto ba'zi tarjimalarga yozilgan an'anaviy muqaddimalarda nima sababdan

<sup>1</sup> Salomov G'. Men suv ichgan daryolar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. 18-19-betlar.

<sup>2</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 149-150-betlar.



u yoki bu tarjimachilik aqidasi, nazariy prinsiplarga rioya qilinganligi tarjimonlar tomonidan asoslangan ham. Bu esa tarjima nazariyasining qadim zamonlardayoq nazariya kurtaklari paydo bo'la boshlaganidan dalolat beradi"<sup>1</sup>.

Tarjima san'atiga oid fikrlar tarjima vujudga kelgan dastlabki davrlardan e'tiboran bildirila boshlagani ma'lum. Chunki u yoki bu tarjimani amalga oshirgan tarjimon o'zining tarjima prinsiplari, tarjima haqidagi qarashlarini yo'l-yo'lakay bildirib ketgan. IX asrning birinchi yarmida xalifa Ma'mun ar-Rashid tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi – "Bayt ul-hikma" ("Bilimlar uyi")da rejali asosda tarjimachilik bilan shug'ullangan tarjimonlarning faoliyatlari tufayli esa bu boradagi fikrlar sistemali tus oldi. Bu ilmiy markazda yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilingani, ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatilgani ma'lum.

Tarjima nazariyasining ahamiyati shundaki, turli yo'nalishda ijod qiladigan tarjimonlarning o'zboshimchaliklariga chek qo'yib, ularga badiiy tarjimaning amaliyotda sinovdan o'tgan maqbul yo'llarini ko'rsatadi. Tarjimaga qanday yondashish, tarjima jarayonida qanday usullardan foydalanish, u yoki bu muammoni hal qilishda qanday yo'l tutishni o'rgatadi. Ko'p asrlik tarjima tarixi yutuq va qusurlarini tahlil qilish asosida muayyan prinsip va qoidalarni ishlab chiqqan tarjima-shunoslik fani har qanday tarjimonga umumiy yo'l-yo'riq berishga yo'naltirilgan. Ana shu umumiy qonun-qoidalardan kelib chiqqan holda, har bir tarjimon konkret asar tarjimasida yuzaga kelgan o'ziga xos muammolarni o'zi individual ravishda hal qiladi.

### **Tarjimashunoslik fanlarining tasnifi**

Tarjimashunoslik fanining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tarjima tarixi
2. Tarjima nazariyasi
3. Tarjima tanqidi

**Tarjima tarixi** tarjima adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini o'rganish bilan shug'ullanadi.

**Tarjima nazariyasi** – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish prinsiplarini o'rganadigan filologik fan.

Tarjima nazariyasining vazifasi – tarjima amaliyotidagi yutuqlar asosida asliyat-tarjima munosabatlari orasidagi qonuniyatlari kuzatish, barqarorlashgan qoidalarni umumlashtirib, tartibga solish hamda keyingi tarjimalarda foydalanish uchun yo'l ko'rsatuvchi prinsiplarga aylantirishdan iborat.

Tarjima nazariyasining amaliy ahamiyati – tarjimachilikda har bir til biluvchi o'zicha prinsip yaratib olishining oldini olish uchun ilmiy asoslangan prinsiplarga bo'lgan ehtiyojni qondirish.

Tarjima nazariyasining ilmiy ahamiyati – tarjima jarayonida ikki til vositalarining "to'qnashuvi"dan kelib chiqqan muammolar natijasida tilning keyingi rivojlantirish imkoniyatlari ochiladi.

**Tarjima tanqidi** – "Tarjima jarayonini kuzatib, chop etilayotgan asarlarni baholab boradi, tarjimalar sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi. Tarjima tanqidi tarjimachilik ishining amaliy va tashkiliy masalalarini ko'tarib chiqadi, adabiy tanqid bilan hamkorlikda rivojlanadi...

O'zbekiston boy tarjima tarixiga ega, bu tarixni sxematik tarzda quyidagicha tadqiq qilish maqsadga muvofiq:

- 1) sohalar va janrlar bo'yicha – aniq va gumanitar fanlarga doir kitoblar tarjimasi; tarjima va lug'atshunoslik (ikki tilda va ko'p tilli lug'atlar tuzish tajribasi);
- 2) til prinsiplari bo'yicha (arabcha-o'zbekcha, forsha-o'zbekcha, turkcha-o'zbekcha, ruscha-o'zbekcha va hokazo tarjimalar); bilingvizm va tarjima;
- 3) tarixiy an'analar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar bo'yicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi va hokazo);
- 4) davrlar bo'yicha (XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi...)"<sup>1</sup>.

### **Tarjima antinomialari**

**Antinomiya** so'zi yunoncha bo'lib, anti – zid, nomos – qonun degani.

Tarjima nazariyasida xam bir qator ziddiyatlar mavjud:

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 150-bet.

Birinchisi: tarjima nazariyasi adabiyotshunoslik asosiga qurilishi kerakmi yoki tilshunoslik zahirida rivojlanishi joizmi?

Ikkinchisi: asar hijjalab, soʻzma-soʻz oʻgirilishi lozimmi yoki erkin, ijodiy tarjima qilinishi kerakmi?

Uchinchisi: asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni aynan qoldirish kerakmi yo milliyashtirish lozimmi?

Toʻrtinchisi: tarjima boʻlish yoki boʻlmaslik haqidagi qarashlar oʻrtasida ham ziddiyat mavjud – bir guruh bir tildan ikkinchi tilga umuman tarjima qilish mumkin emas desalar, ikkinchi guruhning fikricha, har qanday asarni tarjima qilish mumkin.

Beshinchisi: sheʼrni sheʼr bilan berib boʻlmaydi, binobarin, har qanday sheʼriy asar nasriy tarjima qilinishi kerak. Masalan, Fransiyada uzoq davr mobaynida sheʼriy asarlar nasriy tarjima qilinib kelgan.

Aslida bunday antinomiya tarjima nazariyasida koʻp. Masalan:

- tarjima asl nusxaning soʻzlarini bersin;
- tarjima asl nusxaning gʻoyalarini ifodalasin;
- tarjima original asarday oʻqilsin;
- tarjima tarjimaday oʻqilsin;
- tarjima asl nusxaning uslubini aks ettirsin;
- tarjima tarjimonning uslubini aks ettirsin;
- tarjima asl nusxaga nisbatan zamonaviy asar sifatida oʻqiladigan boʻlsin;
- tarjima tarjimonga nisbatan zamonaviy asar sifatida oʻqiladigan boʻlsin;
- tarjimada asl nusxaga nimanidir qoʻshish yoki undan nimanidir chiqarib tashlash mumkin;
- tarjimaga hech narsani qoʻshib ham, undan hech narsani chiqarib tashlab ham boʻlmaydi;
- sheʼrni nasrga oʻtkazib oʻgirish lozim;
- sheʼrni sheʼr bilan tarjima qilish lozim<sup>1</sup>.

“Har bir tilda oʻsha xalqning sohibi hisoblanmish xalqning oʻzi koʻproq mashgʻul boʻlgan xoʻjalik, ishlab chiqarish sohalarini hamda uni oʻrab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va oʻsimliklar olami, togʻ,

<sup>1</sup> Koʻchirma quyidagi kitobdan olindi: Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. 40-bet.

choʻl, sahro, suv va hokazo)ga aloqador soʻzlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan koʻproq yoki kamroq boʻlishi mumkin<sup>1</sup>.

Aytaylik, suv oʻlkasi boʻlmish Buyuk Britaniyada suv xoʻjaligi, baliqchilik, Arabiston sahrolarida choʻl, uning oʻsimlik va hayvonlar dunyosiga oid soʻzlar, obrazli iboralar, maqol-matallar koʻp boʻlishi mumkin. Masalan, Shekspirning “Hamlet” tragediyasida Daniya shahzodasi Poloniyni “baliqfurush” deb ataydi. Dramaturg zamonida bu soʻz koʻchma maʼnoda “qoʻshmachisi” degani ekan. Holbuki, tarjimalarning birortasida uning bu maʼnosi aks etmagan – baliqfurush shunchaki kasb oti sifatida berilgan.

“Qirol Lir” fojiasida Alboni qirolning shafqatsiz qizlarini arslonga oʻxshatadi. Bu bilan ularning ham arslon kabi yirtqichligini nazarda tutadi. Lekin oʻzbek tilida arslon ijobiy maʼnoga ega: botir, jasur, dovyurak maʼnolarini bildiradi, mardlik, oliyanoblik, viqor timsoli boʻlib keladi. Mard, botir yigitlarni arslonga oʻxshatadilar. Shuning uchun ham Gʻafur Gʻulom tarjima jarayonida bu soʻzga salbiy boʻyoq singdirish uchun urgʻochi soʻzini qoʻshadi: “urgʻochi arslonlarmisiz”.

### Tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Tarjimashunoslik nisbatan yangi fan boʻlib, XX asrning oʻrtalarida paydo boʻldi. Dastlab 40-yillarda tarjimashunoslikda *lisoniy yoʻnalish* paydo boʻldi. “Bu yoʻnalishning mohiyati shundan iborat ediki, tarjimaga, asosan, hamma hollarda va barcha janrlarda lisoniy faoliyatdan iborat deb qaraladi. Tarjima problemi predmetini bunday talqin qilganda, umumiy tarjima nazariyasini tilshunoslikka mansub deb qarashni, tarjima problemalarini tadqiq qilishga yondashish esa lisoniy asnodan boʻlishini taqozo etadi.

Mazkur yoʻnalishni tanqid qilish asnosida *adabiyotshunoslik yoʻnalishi* atalmish yangi bir qarash paydo boʻldi. Bu yoʻnalish namoyandalarning daʼvosicha, badiiy va nobadiiy tarjima oʻrtasida jiddiy tafovut bor: badiiy tarjima – adabiyot sohasidagi ijodiy faoliyat, nobadiiy tarjima esa til sohasidagi noijodiy faoliyatdan iborat. Problemani bu tarzda talqin etish oʻz-oʻzidan shunga olib keladiki, bunda tarjimashunoslik goʻyo ikki “tarjima nazariyasi”dan iborat boʻlib qoladi: biri – *badiiy tarjima nazariyasi* boʻlib, u *adabiyotshunoslik* sohasi hisob-

<sup>1</sup> Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. 43-bet.



lanmog'i darkor, ikkinchisi esa *nobadiiy tarjima nazariyasi* bo'lib, *tilshunoslik* sohasiga mansub bo'lmog'i lozim"<sup>1</sup>.

**Tarjimashunoslik** tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari ke-  
sishgan nuqtada vujudga kelgan *umumfilologik fandır*.

1966-1967 o'quv yilida ToshDU filologiya fakultetining IV kursida ilk bor qiyosiy uslubiyat va tarjima bo'yicha maxsus kurs o'qila boshlandi.

1969-1970-o'quv yilida ToshDUning jurnalistika fakul'tetida tarjima nazariyasi va tahririyat-nashriyot ishlari kafedrasida tashkil etildi. U 1973-1974-o'quv yilidan boshlab tarjima nazariyasi, radio va televideniye kafedrasiga aylantirildi. Nihoyat, 1975-1976-o'quv yilidan e'tiboran filologiya, jurnalistika, sharq, roman-german tillari fakultetlarida tahlil kurslari, amaliy mashg'ulot olib boradigan mustaqil tarjima nazariyasi kafedrasida qaror topdi va u filologiya fakulteti bazasida faoliyat ko'rsata boshladi.

### Tarjima tarixiga bir nazar

Biror-bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlanolmaydi. U boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi. Ma'lumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq hisoblanadi. Aleksandr Makedonskiy Sharqni istilo qilganda qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyati muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda Yunonistonda antik davr uyg'onishi sodir bo'ldi. Keyin katta hududda o'z saltanatini o'rnatgan arablar fan va madaniyatini rivojlantirishga e'tibor berdilar. Ma'mun ar-Rashid IX asrning boshida Bag'dodda Ma'mun akademiyasini tashkil qiladi. "Bayt ul-hikma" ("Bilimlar uyi") deb atalgan bu ilmiy markazga turli joylardan iste'dodli kishilarni to'plab, yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilinadi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatiladi. Beruniy ham yunon, sanskrit va suryoniy tillarini o'rganib, bu tillardagi asarlardan bevosita foydalanganligi, hatto ularni tarjima qilganligi ma'lum. Yoki Ibn Sino Aristotelning "Metafizika" asarini bir necha marta o'qisa-da tushunmaydi. Keyin, Forobiy yozgan sharh orqali uni xatm qiladi. So'ng

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 152-153-betlar.

XII-XIII asrlarda arablar tasarrufidagi Ispaniyaning Toledo va Kardova shaharlarida tarjima maktablari vujudga kelib, arab tilidagi barcha ilmiy, ba'zi adabiy kitoblar ham lotin tiliga tarjima qilinadi va ular orqali Yevropaga tarqaladi.

### Beruniy tarjimoni va tarjimashunos sifatida

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab, fors, sug'diy, xorazmiy, suryoniy, yahudiy, hind va yunon tillarini bilgan, tarjima bilan ham muntazam shug'ullangan. U Ma'mun akademiyasida amalga oshirilgan tarjimalardan foydalanish bilan birga, "o'zi asl nusxadan tarjimalar qilar, shubhali, ishonchsiz tarjimalarni rad qilib, bevosita aslidan foydalanar yoki o'zi ularni yangidan tarjima qilardi.

"Hindiston" kitobini ko'zdan kechirganda, uning bir necha joylarida "shu faslda tarjimoni ba'zi so'zni qorishtirib yuborgan" yoki "ana shu aytilgan so'zlar fikr yurgizmay turib, taxminan qilingan tarjimalarning va bilmasdan turli fikrlarni bir-biriga qorishtirish natijasidir" kabi tanqidiy mulohazalarni uchratamiz. "Ramayana" asari tarjimasi munosabati bilan diniy mutaassiblikning tarjimachilik ishiga, umuman fan rivojiga salbiy ta'sir o'tkazayotganligini tanqid qiladi<sup>1</sup>. Ulamolar oxiri "S" bilan tugallanadigan yunon va rim olimlarining nomlaridan o'lguday nafratlanadilar, natijada har turli ta'qiblardan qutulish maqsadida mutarjimlar ularning nomlarini arabiyashtirishga majbur bo'ladilar – yunoncha "Katigoriyas", "Analitikus", "Aristotelus" kabi so'zlarning "Al-maqolot", "Al-qiyos va burhon", "Arastu" bo'lib ketishining sababi shunda, deydi<sup>2</sup>.

Olimning tarjima bilan bog'liq ko'pgina fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jumladan:

"Tarjimalarda iboralarda ixtilof bo'lmay iloj yo'q".

"Agar (tarjimalarimizda) ishlatgan so'zlarimiz odatda ishlatiladiganga to'g'ri kelmasa, ma'nolariga e'tibor berilsin, chunki maqsad ma'nolarni bildirishdir".

<sup>1</sup> Komilov N. Bu qadimiy san'at // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 3-kitob. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 64-65-betlar.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent, 1999. 53-54-betlar.

“Ba’zi so’zlar borki, u bir din va bir tilda bema’ni bo’lsa ham, boshqa bir din va boshqa bir tilda bema’ni bo’lmaydi”<sup>1</sup>.

Mohir tarjimon sifatida u Mahmud G’aznaviy saroyining malik ushshuarosi Unsuriyning “Vomiq va Uzro”, “Xingbut va Surxbut” dostonlari, “Veda” va “Mahobhorat” kabi hind eposlari, forsiy xalqlar ijodidan esa “Qosim us-surur va Ayn ul-hayot”, “Hurmuzdyor va Mehryob”, “Bomiyonning ikki sanami”, “Dodmoh va Kiromiduxt”, “Nilufar”, “Dabistiy bilan Borbahokor hikoyasi” kabi asarlarni arab tiliga o’giran.

#### **Tayanch so’z va iboralar:**

Tarjima nazariyasi predmeti, umumfilologik fan, tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi, antinomiya.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjima nazariyasi nimani o’rganadi?
2. Tarjimaning ijodiyligi nimadayu san’atligi nimada?
3. Tarjimashunoslik qachondan buyon fan sifatida o’qitila boshlagan?
4. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlarini sanab bering.
5. Tarjima antinomialari deganda nimani tushunasiz?

#### **Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:**

1. Tarjima tarixiga oid adabiyotlar bilan tanishish.
2. «Beruniy va tarjima» mavzuga oid ma’lumot to’plash.

#### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G’. *Til va tarjima*. – Toshkent: “Fan”, 1966.
2. Salomov G’. *Tarjima nazariyasiga kirish*. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1978.
3. Salomov G’. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1983.
4. Komilov N. *Bu qadimiy san’at // Tarjima san’ati (Maqolalar to’plami)*. 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar.

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy. *O’ylar, naqlar, hikmatlar, she’rlar*. – Toshkent, 1973. 21-22 va 28-betlar.

5. Abu Rayhon Beruniy. *O’ylar, naqlar, hikmatlar, she’rlar*. – Toshkent, 1973.

6. Tohirboev B. *Tarjimashunoslik fanining nazariy ildizlari // Tarjima san’ati (Maqolalar to’plami)*. 5-kitob. – Toshkent, 1980. 23-34-betlar.

### **UCHINCHI MAVZU: TARJIMANING TIL MUAMMOLARI**

#### **Dars rejasi:**

1. Tarjimaning til bilan bog’liq va tildan tashqari muammolari.
2. Asl nusxa va tarjima o’rtasidagi tafovutlar.
3. Tarjimada jins kategoriyasi.

#### **Tarjimaning lisoniy va g’ayrilisoniy muammolari**

Til bilish – tarjimaning birlamchi sharti bo’lsa-da, tarjima uchun faqat shuning o’zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko’pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to’g’ri keladiki, bu g’ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog’liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari **lisoniy**, til qobiqlarini yorib o’tgan, tildan tashqari muammolari **g’ayrilisoniy** muammolar hisoblanadi. G’.Salomovning yozishicha, “tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o’tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an’ana, ikki she’riy sistema, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to’qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir”<sup>1</sup>.

“Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga “ekvivalentlik holatida bo’lmaydi. Shu sababdan ko’r-ko’rona tarjima qilish mumkin emas. So’zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatleri o’zaro bir-birining o’mini qoplay

<sup>1</sup> Salomov G’. *Tarjima nazariyasiga kirish*. 40-41-betlar.

olmaydi. Shuning uchun ham matnning tili qanchalik serma'no, badiiy tarafdin serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi"<sup>1</sup>.

#### Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi tafovutlar

Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar, avvalo, ikki til o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi so'zlar bir tilda boshqa ma'noda, ikkinchi tilda boshqa ma'noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo'llanadigan so'z boshqa tilda salbiy ma'no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil burun Abu Rayhon Beruniy ham ko'rsatib ketgan edi. Chunonchi, tarjimashunos Zuhridin Isomiddinovning yozishicha, **jo'ra** so'zi o'zbeklarda erkaklarga nisbatan qo'llansa, turkmanchada u **dugona** ma'nosida keladi. Yoki **olchoq** so'zi bizda muttahaq, pastkash, ablah kimsani bildirsa, turkmanchada **xushfe'l**, **ko'ngli ochiq** kishini anglatadi. Qirg'izchada esa **qatiqni ayron** deyishadi<sup>2</sup>. **Qizg'anmoq** – o'zbekchada qizg'anish, tatarchada **rahm qilish**; **yurt** – o'zbekchada **xalq**, **o'lka**, **jamoat**, **vatan**, tatarchada **o'y**, **fikr**, **quyma** – o'zbekchada **holva**, tatarchada **devor**; **qir** – o'zbekchada **tepa**, **yaylov**, tatarchada **chet**, **qirra** va hokazo. Binobarin, o'zaro o'xshashligiga ishonib, bu so'zlarni shundoqqina o'zbek tiliga ko'chirib qo'yib bo'lmaydi.

Bir tilda ko'p ma'noli bo'lgan so'z boshqa tilda faqat bir ma'noni bildirishi mumkin yoki aksincha. Bu tarjimada ma'noning torayishi yoki kengayishiga olib keladi.

Sinonimlar – ma'nodosh so'zlar ham har bir tilning boyligi. Masalan, "Boburnoma"da "o'ldi" so'zi 27 xil ifodalangan ekan: o'ldi, vafot etdi, dunyodan o'tdi, shunqor bo'ldi, shahodat sharbatini ichdi, juvonmarg bo'ldi, boqiy dunyoga rixlat qildi, bu dunyoi foniyni tark etdi, jon qushi tan qafasini tark etdi, ajal sharbatini ichdi, jonini jab-borga topshirdi va hokazo. Bu so'zning dunyodagi biror tilda shuncha ko'p ma'nodoshlari bo'lmasa kerak.

<sup>1</sup> O'sha yerda. 49-bet.

<sup>2</sup> Isomiddinov Z. "Aldoqchi so'zlar bilan bahs" // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 5-kitob. – Toshkent, 1980. 157-159-betlar.

"Boburnoma"ning ellikdan ortiq sahifasida "g'arib" so'zi kelib, turli-tuman ma'no ifodalagan. Ingliz mutarjimlari asar tarjimasida **g'arib** ma'nosidagi 35 ta so'z va iboradan foydalanishgan<sup>1</sup>.

L.Tolstoyning "Anna Karenina" romani tarjimasida M.Ismoiliy **сердце жалось** so'zini bir yerda **yuragi dukurlab ura boshladi**, boshqa bir yerda esa **yuragi suyunganidan o'ynab ketdi** deb tarjima qiladi. Chunki birinchi o'rinda u – shubha, ikkinchisida esa – quvonch ma'nosida kelgan. Yoki:

**Съесть собаку** iborasining so'zma-so'z tarjimasida – "it yemoq". Ma'no tarjimasida esa "suvday bilmoq", "ezib ichmoq", "juda yaxshi bilmoq".

**Куда глаза глядят** iborasi esa **boshi oqqan tomonga** deb tarjima qilinadi.

"L.N.Tolstoyning "Anna Karenina" romanida **хорошо** so'zining qanday ma'nolarda kelishi va tarjimada ular qanday so'zlar bilan berilganini ko'raylik:

1. "Потом сказал Кити о том, что она очень хороша сегодня". – "Keyin Kitiga bugun juda ham ochilib ketganligini aytdi".

2. " – Хороши вы – обратилась она Левину". – "Keyin Levinga qarab: – Chakki emassiz!" – deb qo'ydi".

3. " – Я-то хорош! Я затем приехал... Непременно приезжай нынче ко мне обедать". – " – Esim qurmasin! Seni aytgani keluvdim-ku... Bugun biznikiga albatta tushlik qilganini borasan".

4. " – Ну, хорошо, хорошо. Погоди еще, и ты придешь к этому". – " – Хаут, хо'р, хо'р, sen ham bir kun eshigimizni qoqib kelarsan".

5. " – А я забылась, Костя! – сказала она ему. – И мне так хорошо теперь". – " – Hech narsani bilmay yotib qolibman, Kostya! – dedi Kiti. – Endi qushdayman"<sup>2</sup>.

Ko'rinadiki, birgina "хорошо" so'zi besh o'rinda besh xil tarjima qilingan: "ochilib ketmoq", "qushday", "chakki emas", "хо'р", "esim qurmasin". Bu ma'nolarning ko'pi lug'atlarda ham yo'q.

"Ikki lisoniy sistemani chog'ishtirish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin: a) ikki tilning qaysi axborot vositalarini taxminan

<sup>1</sup> Sobirov M. "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalarda muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari. NDA. – Toshkent, 2002. 11-12-betlar.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: «Fan». 1966. 167-bet.

ekvivalent hisoblasa bo'lishi; b) asl nusxa tilida mavjud bo'lgan qanday axborot vositalarining tarjima tilida mavjud emasligi; c) asl nusxa tilida mavjud bo'lmagan qanday axborot vositalari tarjima tilida mavjudligi<sup>1</sup>.

Ba'zi tillarda u yoki bu narsa, hodisa, unsur, a'zoni bildiradigan so'zlar bo'lmaydi. Masalan, tojik tilida qabog' so'zining yo'qligi Navoiyning Shirin va uning kanizaklari ta'rifidagi:

*Jabinlar gul-gulu kirpiklari xor,  
Qabog'lar keng-kengu og'izlari tor, –*

misralarini noto'g'ri tarjima qilishga olib kelgan. Baytda manglay – gulga, kipriklar – tikanga qiyoslanib, qabog'larning kengligiga og'izning torligi zid qo'yilayapti. Aminzoda esa og'izning torligiga ... ko'krakning kengligini qarama-qarshi qo'yadiki, bunda mantiqiy nomuvofiqlik yuz bergan:

*Jabinho gul-gulu chun xor mijgon,  
Dahantangon vale sinafaroxon.*

Avvalo, ko'krak kengligining og'iz torligiga aloqasi yo'q. Qolaversa, Sharqda hech qachon ko'krak kengligi go'zallik belgisi sifatida talqin etilmagan (odob bunga yo'l bermaydi). Bu qusur bir so'zni bera olmaslikdan kelib chiqqan<sup>2</sup>. Voqean, tojik tilida "qabog'" so'zining yo'qligini Navoiyning o'zi ham "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ta'kidlab o'tadi: "Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, qabog'derlar, forsiyda bu uzvning oti yo'qtur"<sup>3</sup>.

Har qanday ikki tilning grammatik qurilishi o'rtasida ham muayyan tafovutlar bo'ladi. Albatta, yaqin tillar bundan mustasno. Lekin o'zaro uzoq tillar ham ba'zan uslubiy tuzilishi jihatidan mushtarak bo'lishi mumkin. Masalan, ruschadan o'zbekchaga tarjimada gapning oxiridan oldinga qarab kelinadi. Holbuki, tojikchaga tarjimada buning aksi, ya'ni rus va tojik tillarida jumla tuzish qolipi deyarli o'xshash. Bunga tillardagi uslubiy va grammatik tafovutlar sabab bo'ladi.

Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu turli tillardagi frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasidir.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 50-bet.

<sup>2</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 142-bet.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – Toshkent: «Fan», 2000. 16-bet.

K.Chukovskiy iloji boricha maqollarni so'zma-so'z tarjima qilishga intilish kerakligini aytadi. Chunki "ularda xalqning tug'ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o'z ifodasini topgan bo'ladi". "Biroq, – deb yozadi G'.Salomov, – boshqa tillarda shunday maqol va matallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko'pdir. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin"<sup>1</sup>.

Ma'lum bo'ladiki, tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki tilni bilish bilan chegaralansa, g'ayrilisoniy ekstralingvistik muammolari nihoyatda ko'p ekan: bu – ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va marosimlari... Bundan tashqari, ilmiy tarjimada turli ilmlardan, publisistik tarjimada kechayotgan voqealardan, badiiy tarjimada adabiy-estetik qonuniyatlardan xabardor bo'lish taqozo qilinadi. Sof ilmiy asarlar va rasmiy uslubdagi hujjatlarni nazardan soqit qilganda, aksar matnlar turli darajadagi uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi, ularda his-hayajon, kinoya piching, turli so'z o'yinlari, nozik ishoralar aks etadi. Badiiy adabiyot-ku obrazli iboralar, badiiy san'atlar, uslubiy bo'yoqlar asosida ish ko'radi, unda so'zlar ming bir ma'noda tovlanadi, ko'pincha so'zlar o'z lug'aviy ma'nosida kelmaydi...

Ko'rinadiki, tarjima – oson ish emas, tarjimonlik – mashaqqatli kasb. Mutarjim faqat tilni bilibgina qolmay, tarix, falsafa, estetika, adabiyot, dinlar, urf-odatlar kabi ko'pdan-ko'p narsalarni ham bilishi kerak.

Aynan tarjimonning chuqur bilimi, keng dunyoqarashi, katta hayotiy tajribasi tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Xalq tabiati, jonli tilini yaxshi biladigan tarjimon tarjima asarning hayotiyliigi, xalqchilligi, tushunarfiligini oshirish uchun lug'atlarda yo'q so'zlar, iboralarni izlab topadi. Bu uning til sohasidagi ijodkorligidir.

Muallif va mutarjimning ruhan yaqinligi, hamfikrligi, uslublarining mushtarakligi esa har qanday tarjimaning chinakam yutug'i hisoblanadi. Buni tarjimashunoslikda "muallif va mutarjim yulduzining bir-biriga to'g'ri kelishi" deyiladi. Bunday ijodiy muvofiqlik natijasida bunyod etilgan tarjimalar bizda ko'p. Masalan, E.Vohidov tarjimasidagi Gyote-

<sup>1</sup> Salomov G'. Til va tarjima. 244-bet.



ning "Faust"i va S.Yesenin she'rlari, A.Oripov tarjimasidagi Dantening "Ilohiy komediya"si, Q.Qulievning "Hayrat" she'ri, Qahhor tarjimasidagi Chexov hikoyalari, M.Kenjabeq tarjimasidagi Pushkinning "Evgeniy Onegin" romani, Xurshid tarjimasidagi Hofiz Sheroziy g'azalari, Sh.Shomuhamedov tarjimasidagi Xayyom ruboiylari, Mirtemirning ko'plab tarjimalari va boshqalar.

Ayni paytda, bu borada ruhiyat va uslub nomuvofiqligi jihatidan muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalar ham yo'q emas. Chunonchi, Gyotening jo'shqin ruhini "G'arb-u Sharq devoni" tarjimasida ko'rmaymiz, hassos shoir tarjimada bosiq donishmandga aylanib qo'gan bo'lsa, M.Svetlov she'rlaridan qilingan tarjimalar ham muvaffaqiyat qozonolmagan. Tarjimada Sharqda ma'nolar otasi deb ulug'langan shoir – Bedil ruboiylarning mazmuniy teranligi, ko'p ma'noliligi, badiiy yuksakligini tarjimonlar berolmagan holatlar ham uchraydi. Adib Sobir Termiziy asarlari tarjimasida ham muvaffaqiyatli chiqmagan.

Tarjima jarayonida tarjimon katta rol o'ynaydi: uning tilni nechog'lik bilishidan tortib, iste'dodi, bilimi, dunyoqarashi, saviyasi, asl nusxaga munosabati, uslubi, ruhiyati... bu kabi barcha omillar u yoki bu darajada tarjimada o'z aksini topadi. Bizda tarjima sifati va tarjimon mahorati doirasida bu masalalarning ko'pi muayyan darajada tadqiq etilgan. Ayni paytda, o'rganilmagan va e'tibordan tushib qolgan omillar ham yo'q emas. Masalan, Xo'ja Alimovning fikricha, "biz tarjimonni ko'p tomonlama o'rganishimiz mumkin. Masalan, fiziologik, biologik, falsafiy, genetik-tarixiy, milliy va irqiy tomondan va hokazo"<sup>1</sup>.

X.Alimov badiiy tarjima psixologiyasi muammosini o'rganib, qiziq kuzatishlarni ilgari suradi: uzoq muddat bir muallif asarlarini tarjima qilish natijasida uning ta'siriga tushish (A.Oripov "Jannatga yo'l" asarining yaratilishida "Ilohiy komediya"ning, E.Vohidovning "Sen yaxshisan, men yomondurman" she'riining yozilishida "Faustning ta'siri mavjud); "Tarjimonga xos milliy xususiyatlar va uni o'rab turgan muhitning tarjimaga ta'sir etishi" va "tarjimon yoshining tarjimaga ko'rsatgan ta'siri". O'zaro suhbatda Abdulla Oripov unga qiziq bir voqeani aytib beradi.

<sup>1</sup> Alimov X. Tarjimon ruhiyati // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 6-kitob. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 258-bet.

"1966-yilda, shoir endi 25 yoshga to'lganda onasi vafot etadi. Mana shu musibatli voqea ta'siri ostida u o'zining "Onajon" she'rini yozgan. Bir qancha vaqt o'tgach, mazkur she'r rus tiliga tarjima qilingan. Tarjimonning yoshi o'sha paytda 50-60 lar chamasida bo'lgan. O'zbek shoirining aytishicha, bu uning she'rlaridan qilingan tarjimalar ichida muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalardan biri ekan. Bu dalilni yoshi bir joyga borib qolgan tarjimonning onadan judolikda paydo bo'ladigan favqulodda qayg'uli hissiyotni aynan idrok qila bilmaganligi bilan tushuntirsa bo'ladi"<sup>1</sup>.

Yoki xalq o'rtasida o'zbekning to'g'ri gapi yo'q, degan bir hikmat yuradi. Buning ma'nosi ko'pgina o'zbekcha so'zlar ko'p ma'noli bo'lib, ularni har tarafga bursa, turlicha talqin qilsa bo'ladi. Xo'sh, sinonimlarga bory bo'lmagan bir tilga o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlarni o'girsas, matnning butun ma'no qirralari aks etadimi?

"Ma'lumki, xalqlarning turmush tarzi, tirikchilik sharoitlari, urfodat, rasm-rusum, irim-chirim, udumlarida juda katta farqlar borki, mavjud rosmnana lug'atlardan ularning nomlariga muqobil so'z topib bo'lmaydi, basharti, topilgan taqdirida ham ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so'z asarda tasvirlangan voqeaga o'zgacha milliy ma'no berishi mumkin"<sup>2</sup>.

Har qanday tilning ham umumiy va xususiy jihatlari mavjud: tildagi umumiyliklarni boshqa tilda berish qiyinchilik tug'dirmagani holda, xususiyliklar tarjimonni mushkul ahvolga solib qo'yadi. Bu har bir tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, u yoki bu tilga xos ko'p ma'nolik, so'z o'yinlari, ma'no tovlanishlarini boshqa tilda aslidagiday aks ettirish nihoyatda qiyin, ba'zan hatto mumkin emas.

Turkiy she'riyatda tajnis san'ati keng ishlangan. Bu san'at omonimlar – shakldosh so'zlar asosiga quriladi. Shu asosda tuyuq janri kelib chiqqan. Tuyuqni faqat turkiyshunos olim Sergey Ivanovgina tarjima qilishning uddasidan chiqqan.

#### *Tayanch so'z va iboralar:*

Lisoniy, g'ayrilisoniy, milliylik, o'ziga xoslik, asl nusxa, tarjima, tafovut.

<sup>1</sup> O'sha yerda. 261-262-betlar.

<sup>2</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 54-bet.

### Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari deganda nimani tushunasiz?
2. Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar qaysilar?

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. O'zingiz o'rganayotgan yoki bilgan tildan tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolariga misollar toping.

### Adabiyotlar:

1. Salomov G'. *Til va tarjima*. – Toshkent: «Fan», 1966.
2. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish*. – T.: «O'qituvchi», 1978.
3. Alimov X. *Tarjimon ruhiyati // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami)*. 6-kitob. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.

## TO'RTINCHI MAVZU: QIYOSIY GRAMMATIKA VA QIYOSIY USLUBSHUNOSLIK

### Dars rejasi:

1. Qiyosiy grammatika va qiyosiy uslubshunoslik haqida ma'lumot.
2. Grammatik va uslubiy tarjima.
3. Qiyosiy grammatikada asliyat va tarjima o'rtasidagi farqlar.
4. Tarjimaning qiyosiy uslub asosida tekshirish.

Har bir kishining tarjimonlik faoliyati til o'rganish bilan boshlanganligini e'tiborga olsak, unda grammatikaning roli naqadar muhim ekani ayon bo'ladi<sup>1</sup>.

Tarjima jarayoni ikki til grammatik qoidalarining to'qnashuvi tarzida ro'y beradi.

<sup>1</sup> Bu mavzuni yoritishda taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Alimulla Habibullaevning ma'ruza matnidan foydalandik. – E.O.

Har bir grammatikada so'z va so'z birikmalarining semantikasida (ma'noviy jihatida) grammatik shakliga e'tibor beriladi. Bundan uzoq keta olmagan tarjimon o'tni ot, sifatni sifat, sonni son va hokazolar shaklida tarjima qilishga moyil bo'ladi. Bu prinsip ko'pda o'zini oqlayvermaydi. Bu usulda tarjima qilish til o'rganishning dastlabki bosqichida kuzatiladi. Uni shartli ravishda **grammatik tarjima** deb atash mumkin. Masalan:

Amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning "Sestra Kerri" ("Kerri opa") romani "Baxtiqaro Kerri" deb tarjima qilingan – ot sifat bilan tarjima qilingan.

Rus yozuvchisi Aleksey Tolstoyning "Петр Первый" romani ("Pyotr Birinchi") – "Ulug' Pyotr" deb tarjima qilingan – son sifat bilan tarjima qilingan.

"Волчий след" – "Bo'ri izi" – sifatning ot bilan tarjima qilinishi.

Yoki:

Ch. Aytmatov. "Обон" ("Kuy"). – "Jamila".

Ch. Aytmatov. "Плаха" – "Kunda" – "Qiyomat".

O. Gonchar. "Тронка". – "Hayot navosi".

Tarjima nazariyasi so'z va so'z birikmalarining grammatik shakliga emas, uning ma'nosiga e'tibor beradi, asliyat tili bir yoqda qolib, nutqni tarjima qilinayotgan til qoidalariga muvofiq lashtirib ifoda etadi. Buni shartli ravishda **uslubiy tarjima** deb atash mumkin.

Misol uchun, rus tilida ega-kesim sintaktik aloqasi shaxs va sonda moslashuv tarzida yuz beradi: овцы идут. O'zbek tilida esa ko'plik kategoriyasi gap jonivorlar haqida borayotganda bunday moslashuvni ko'tarmaydi. Bu jumlaning "qo'ylar kelyaptilar" tarzida tarjima qilib bo'lmaydi. Yoki o'zbek tilidagi dona son (bitta, ikkita, uchta...) tushunchasi rus tilida yo'q. Ushbu soddagina misollar murakkab, payqash qiyin hollarda tarjimonga shunday grammatik tafovutlarga rioya qilish lozimligi majburiyatini yuklaydi.

Muayyan bir tildan ikkinchisiga tarjimalar to'g'risida gap borganda, ulardan har birining grammatik o'ziga xosliklari e'tiborga olinishi kerak.

Qardosh tillardan tarjima qilishda ularning grammatikasidagi umumiyliklar ko'p hollarda qo'l keladi.

Tillar turli oilaga mansub bo'lsa, ular orasidagi tafovutlar ko'proq seziladi. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun har qanday nazariyada bo'lganidek, tarjima nazariyasida ham nazariy umumlashmalar mav-

jud. Ularga ko'ra, grammatik shakl andozalariga to'liq mos tushadigan aniq tarjimaning ko'pincha imkoni bo'lmaydi. Ko'pincha bir tilning so'z birikmalari ikkinchi tilning adabiy me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Tarjimadagi biror yoyiq gap aslyat bilan so'z tartibi, so'zlarning soni, ularning grammatik kategoriyalari muvofiq keladigan jumlar juda kam uchraydi.

"Tarjimada tilning grammatik xususiyatlari va formalari ko'chiril-maydi, balki bir tilning grammatik xususiyatlari asosida bayon qilingan fikr boshqa tilning grammatik qonuniyatlari asosida qayta tiklanadi. Formal grammatika nuqtai nazaridan aniq tarjima qilib bo'lmaydi, chunki tillarning grammatik formalari orasida mutlaq o'xshashlik bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun tarjimada grammatik aniqlikdan chekinish xususiy va tasodifiy emas, balki umumiy va qonuniy hodisadir.

Filologiya fanlari doktori A.V.Fedorov asl nusxa bilan tarjima tili o'rtasida yuz beradigan grammatik tafovutning uch xil ko'rinishini qayd etadi:

1. Asl nusxa tilida asar tarjima qilinayotgan tilda bo'lmagan grammatik element uchraydi.
2. Asar tarjima qilinayotgan tilda asl nusxa tilida bo'lmagan, lekin tarjima jarayonida ishlatiladigan grammatik elementlar mavjud.
3. Asl nusxa tilida mavjud elementlar bor-u, ammo ular o'z funksiyalari tomonidan farq qiladi<sup>1</sup>.

Har bir konkret tafovutni bartaraf etishda o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, u tarjimondan tilning keng grammatik imkoniyatlaridan yetarli xabardor bo'lishini talab qiladi.

Hamzaning "Boy ila xizmatchi" dramasi "Poshshooyim Jamila haqida so'z borganda, "Xizmatkorimiz G'ofir so'takning xotini", deydi... Tarjimon so'tak so'zini tojikchada aynan berib bo'lmashligini hisobga olib, uni poyluch (yalangoyoq) deb o'g'irgan: "Zani xizmatgoramon G'afuri poyluch-diya".

Xalq tilining ajoyib duru gavharlari bo'lmish maqol, matal, idiomatik iboralar hamda ashula, qo'shiq, laparlarni tarjima qilish g'oyatda mushkul ekanligi ma'lum. Garchi o'zbek va tojik xalqlarining urf-odatlarini, an'analari va psixologiyasi ko'p hollarda o'xshash bo'lsa-da, asrlar davomida maishiy va ijtimoiy hayot jarayonida yuzaga kelgan

<sup>1</sup> Salomov G'. Til va tarjima. 192-bet.

frazologizmlar har ikki tilda o'ziga xos ma'no kasb etganligi tabiiydir. Tarjimon buni hisobga olib bilgan. Masalan, Jamilaning "Bechora Gulbahor, karvondan ajralgan bo'taday bo'zlaydi, sho'rlik" gapidagi "karvondan ajralgan bo'taday" iborasi "go'sfandi az rama judo aftodagi barin faryod mekunad" tarzida ("suruvidan ajralib qolgan qo'yday faryod qiladi") tarjima etilgan. Juda soz tadbir. Negaki, tojik kishisi uchun tuyaga qaraganda qo'y maishiy turmushga yaqinroq va binobarin, bu taxlit tarjima unga ravshanroq anglashiladi. Basharti, o'zbek xalq iborasi aynan o'ziday ("bo'ta"ni – "shuturbachcha" deb) tarjima qilinganida, bu – ayol kishiga nisbatan qo'pol, xunuk chiqqan bo'lardi.

"Boy boyga boqar, suv soyga oqar" matalini so'zma-so'z tarjima qilishning iloji yo'q. Shuning uchun "Kabo'tar bo kabo'tar, boz bo boz" degan tojikcha muqobil variant olingan.

Qodirqul bir o'rinda: "It ham kun ko'radi, bit ham", deydi. Buni M.Aminzoda tojik tiliga: "Mush ham ro'z mebinad, shabush ham", deb o'giradi ("Sichqon ham kun ko'radi, bit ham"). Boshqa bir o'rinda Qodirqul mingboshilik mansabini saqlab qolish uchun hech balodan toymayotib: "It bo'lsa, bit bo'lsa ham, aytganim bo'lsin", der ekan, endi bu "Xoh balo boshad, xoh batar boshad, guftagiam shavad", deb boshqacha, to'g'ri tarjima qilinadi. Negaki, yuqoridagi tojikcha matal yangi kontekstual vaziyatga yopishmaydi.

Tarjimon gohi o'rinlarda o'zbek tilida go'zallik ma'nosini beruvchi so'zlarning tojik tilida shu ma'noni anglatmasligini hisobga olib, ba'zi ijodiy erkinliklarga yo'l qo'yadi. Masalan, boyning Jamila haqida aytgan "Hisobsiz kokil, qo'ng'ir sochlariga nima deysan?" gapidagi qo'ng'ir so'z tojik tiliga aynan tarjima qilinsa, go'zallik... xunuklashib qolishi hech gap emas. Shu sababli Jamilaning sochiga taalluqli sifat-miqdor bilan almashgan (qo'ng'ir soch – daroz – uzun soch deb berilgan). Natijada originaldagi go'zallikni anglatuvchi fikr saqlab qolingan. Bu usul Sifatbuvining: "Kel, hu o'sha do'ndiq qo'llaringdan o'rgulay!" gapining tarjimasida ham qo'llanilgan. Tojiklar uchun "do'ndiq"dan ko'ra "nozikklik" go'zallikni anglatadi: "Biyo, hu, az hamin dasthoi nozukat gardam!"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Do'stqorayev B. "Boy ila xizmatchi" tojik tilida // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 1978. 4-kitob. 289–292-betlar.



### Qiyosiy uslubshunoslik

Filologiyaning bu sohasi turli tillardagi stilistik hodisalarni qiyoslab o'rganadi. Qiyosiy stilistika o'z tadqiqotlarini tarjima nazariyasi ilmiy qoidalari bilan uzviy bog'liqlikda olib boradi. Qiyosiy stilistika badiiy tarjima uchun lingvistik asos hisoblanadi.

Qiyosiy stilistika o'rganadigan stilistik hodisalar qaysi?

– muayyan davr uchun barqarorlashgan stilistik normalar (uslubiy mezonlar); M.: o'rta asr tarixiy asarlari, maktublar uslubi.

– adabiy til strukturasi (tuzilishi);

– adabiy tilning ishlatilish sohalari;

– til materialidan foydalanish usullari.

Stilistika bu ishlarni qanday amalga oshiradi?

– til materiallarini guruhlariga bo'ladi;

– o'ziga taalluqli bo'lgan – norma, stil, stilistik ma'no kabi kategoriyalarga oid masalarni;

– til usullarining strukturasi (amaliy va nazariy planda);

– tilning ifodaviy vositalarini;

– qo'shimcha nutqiy ifodalarni;

– stilistik axborot yo'llarini;

– tildan adabiy asar uchun foydalanish usullarini tadqiq etadi.

Stilistik ma'no nima?

– tildagi funktsionallik (ya'ni ijtimoiy hayotda qo'llanilish sohasiga qarab so'zlashuv nutqi va kitobiy nutqlarga bo'linish);

– tildagi ekspressivlik (ya'ni til materialining emotsionallik va ifodaviylik xususiyatlari) – bunda arxaizm va neologizmlar alohida o'rin tutadi.

### So'zlashuv, kitobiy va badiiy nutq

So'zlashuv nutqi nima?

– kundalik jonli til

– jaydari iboralar

– kasb-hunar leksikasi

– jargonlar.

Kitobiy nutq nima?

– ilmiy uslub tili

– rasmiy idora uslubi tili

– gazeta uslubi tili

– notiqlik uslubi tili

– maktub uslubi.

Badiiy nutq (badiiy asar stilistikasi):

– til materialiga estetik vazifa yuklatilgan bo'ladi;

– publisistik uslub xususiyatlariga ega bo'lgan holda undan yuqori turadi;

– til materiali badiiy obraz elementiga aylanadi (til adabiyotga tushib, san'at hodisasiga aylanadi).

Shunga ko'ra qiyosiy stilistikada:

– yozuvchining tildan foydalanishdagi o'ziga xosligi o'rganiladi;

– asar tilining xususiyatlari o'rganiladi;

– til materialining asardagi funksiyasi aniqlanadi.

Demak, original asar tilini tahlil qilish orqali umumlashma xulosalar chiqariladi. Til materialining muayyan asarga, muallifga xos xususiyatlari belgilab olinadi va tarjima matnida ularni aks ettira olish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

### Tarjimani qiyosiy uslubda tekshirish

Tarjimani qiyosiy uslub asosida tekshirishni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. So'zni qiyoslash.

2. Frazologizmlar: frazeologik iboralar, turg'un so'z birikmalari, ideomalar hamda maqol va matallarni qiyoslash.

3. Sarlavhalarni (individual uslub darajasida qiyoslash va hokazo).

### Tarjimada jins kategoriyasi

Dunyo tillari o'z tuzilish tasnifotlari bo'yicha bir-birlaridan farqlanadilar. Chunonchi, ba'zi tillarda grammatik rod kategoriyasi bor, boshqalari esa bunday xususiyatga ega emas. Aytaylik, Bantu negrlari tilida rus tilidagi rodga muvofiq keladigan 24 kategoriya bor.

“Dunyodagi ko'pchilik tillarda rod (jins) kategoriyasining mavjudligi, turkiy tillarda hamda fin, gruzin, arman va boshqa bu kabi tillarda esa bunday xususiyatning yo'qligi, ayniqsa tarjimachilik ishida katta qiyinchilik tug'diradi. Rod kategoriyasiga ega bo'lgan tildan bunday grammatik xususiyatga ega bo'lmagan tilga tarjima qilishda qiyinchiliklar tug'ilishi o'z-o'zidan ravshan. Ammo rod kategoriyasi-

ga ega bo'lgan tillarning hammasida ham bu xususiyat aynan muvofiq kelmaydi"<sup>1</sup>.

Bunday jins kategoriyasi ham tarjimada ba'zan tarjimonlar oldiga o'tib bo'lmaz g'ovlarni qo'yadi. Masalan, **солнце** – rus tilida – sredniy rod, nemis tilida – jenskiy rod, fransuz tilida – mujskoy rod.

**Ложка** – rus tilida jenskiy, nemis tilida – mujskoy rod

**Стул** – rus tilida mujskoy, ispan tilida – jenskiy rod

Henrix Heynening "Qarag'ay va Palma" (nemischada: Der Fixtenbaum va diy Palme) she'rida uzoq shimolda qoya toshlar ustida tanho qolgan oshiq "der Fixtenbaum" o'z ma'shuqasi "diy Palme"ning visoliga yetish orzusida oh uradi. She'rning M.Y.Lermontov qalamiga mansub tarjimasida rus tilida "sosna" ham, "palma" ham jenskiy rod. Natijada, oshiq-ma'shuq dugonalarga aylangan.

F.I.Tyutchev "qarag'ay" o'rniga "kedr" daraxtini oladi.

A.A.Fet "dub" (eman) daraxtini ma'qul ko'radi.

"Mutaxassis botaniklarning fikricha, F.I.Tyutchev tarjimasida noaniqlikka yo'l qo'yilgan: kedr shimolda unmaydigan, janub daraxti bo'lib, faqat O'rta dengizda uchraydi. Shimolda esa kedr emas, balki кедровая сосна – kedr-qarag'ay o'sadi.

F.I.Tyutchev tomonidan qilingan keyingi tarjimada qarag'ay o'rniga eman daraxti qo'yilishi bilan uzoq shimol qoyasi tepalik bilan almashirilgan, negaki eman janubda o'sadigan daraxt, u shimolda unmaydi"<sup>2</sup>.

O'zbek tilida jins kategoriyasining yo'qligi ruschadan tarjimada ba'zan nuqsonlar keltirib chiqaradi. Rus tilida rodlarning mavjudligi shaxslar bilan bog'liq so'zlarni ko'p takrorlamaslikka imkon beradi. Asarda ayol kishi to'g'risida so'z borayotgan bo'lsa, uning ismi yoki familiyasini takror-takror tilga olavermasdan, o'rni bilan "она", "ей", "её" deb ketaverish mumkin. O'zbek tilida bunday jumlar ijodiy yondashuvni talab etadi. Он предупредил её. – U uni ogohlantirdi. Shuning uchun o'zbek tilida uslubiy xatoga yo'l qo'yimaslik uchun olmoshning o'rniga ayni obrazning nomini tez-tez tilga olib turishga to'g'ri keladi.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 197-bet

<sup>2</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 199-bet

### Tayanch so'z va iboralar:

Qiyosiy grammatika, qiyosiy uslubshunoslik, grammatik tarjima, uslubiy tarjima, jins kategoriyasi, so'zlashuv nutqi, kitobiy nutq, badiiy nutq.

### Nazorat uchun savollar:

1. Grammatik tarjima nima-yu, uslubiy tarjima nima?
2. Tarjimoni qiyosiy uslubda tekshirish qanday amalga oshiriladi?
3. Jins kategoriyasi degan nimani tushunasiz?
4. Tarjimada jins kategoriyasini berish bilan bog'liq qiyinchiliklar nimalardan iborat.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Grammatik va uslubiy tarjimaga misollar topish.
2. Mavjud tarjimalardan jins kategoriyasini berish bilan bog'liq o'rinlarni topib, tahlil qiling.

### Adabiyotlar:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: «O'qituvchi», 1978.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: «O'qituvchi», 1983.
3. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – Москва, 1986.

### BESHINCHI MAVZU: TARJIMANING TUR VA XILLARI, SOHALAR VA JANRLAR BO'YICHA BO'LINISHI

#### Dars rejasi:

1. Tarjimaning ijrosiga ko'ra turlari.
2. Tarjima xillari.
3. Tarjima sohalari.
4. Tarjima janrlari.

5. *Adekvat, erkin, ijodiy, so'zma-so'z, hijjaviy, taglama va tabdil kabi tarjima usullari haqida.*
6. *Antonimik tarjima to'g'risida.*
7. *Avtomatik tarjima xususida.*

Tarjima ijrosiga ko'ra **yo'zma** va **og'zaki** turlarga bo'linadi.

O'z navbatida, **yo'zma** tarjima xarakteriga ko'ra:

- badiiy asarlar;
- ilmiy adabiyotlar;
- rasmiy-idora hujjatlari;
- publisistik materiallar;
- kinofilmlar tarjimasiga bo'linadi.

Bularning har biri yana o'z ichki bo'linishlariga ega. Badiiy tarjima nasriy, she'riy, dramatik asarlar tarjimasini o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlar fanning turli sohalaridagi tadqiqotlar tarjimasidan iborat: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, matematika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisod va hokazo. Rasmiy-idora hujjatlariga xatlar, qarorlar, bayonnomalar, farmoyishlar, patentlar va boshqalar kiradi. Publisistik materiallarga maqola, xabar, feleton, ocherk, pamflet, publisistika kabi vaqtlil matbuot va ommaviy axborot vositalaridagi barcha materiallar kiradi. Kinofilmlar tarjimasini ham badiiy, ilmiy, hujjatli filmlardan tashkil topadi.

Og'zaki tarjima ham keng tarqalgan bo'lib, davlat rahbarlari o'rtasidagi xalqaro ahamiyatga molik siyosiy-iqtisodiy mavzudagi o'zaro fikr almashuvlardan tortib, oddiy suhbatgacha bo'lgan katta doirani qamrab oladi. Og'zaki tarjima ham xarakteriga ko'ra:

- sinxron tarjima;
- ketma-ket tarjima;
- tushuntirib berish;
- o'qib tarjima qilib berish;
- o'qib gapirib berish;
- eshitib gapirib berish kabilarga bo'linadi.

Sinxron<sup>1</sup> tarjima katta anjumanlar, konferensiyalar, xalqaro miqyosdagi uchrashuvlarda til bilmaydigan ishtirokchilar uchun amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Sinxronizm – grekcha so'z bo'lib, ikki yoki bir necha hodisa, protsess va shu kabilarning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lishi. Sinxron – bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lgan

Ketma-ket tarjimada notiq bir gap yoki abzasni o'qiydi, tarjimon uni tarjima qiladi – notiq va tarjimon o'rin almashib turadi.

Tushuntirib berish biror narsani o'qib, uning mazmunini og'zaki aytib berish.

Biror mavzudagi adabiyotni o'qib, jumla-jumla tarjima qilib borish o'qib tarjima qilib berish deyiladi.

Biror narsani o'qib, uning shunchaki mazmunini gapirib berish o'qib gapirib berishga kiradi.

Eshitib gapirib berish boshka tilda eshitganini til bilmaydigan kishilarga tushuntirib berish.

Tarjima sohalar bo'yicha quyidagicha bo'linadi:

- badiiy asarlar;
- ilmiy adabiyotlar;
- ijtimoiy-siyosiy kitoblar;
- rasmiy-idora hujjatlari;
- kinofilmlar;
- radioeshittirish va teleko'rsatuvlar.

Til prinsiplari bo'yicha tarjima quyidagicha bo'linadi: ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha, forschacha-o'zbekcha, arabcha-o'zbekcha tarjima va hokazo.

Tarixiy an'analar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar bo'yicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi va hokazo)

Davrlar bo'yicha: XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi.

Umuman, tarjima janriy xususiyatiga ko'ra 4 turga bo'linadi:

- badiiy;
- ilmiy;
- publisistik;
- rasmiy-idora hujjatlari.

Bu turlar, o'z navbatida, o'z ichki bo'linishlariga ega.

- sohalar;
- tillar;
- lug'at tuzish;

yoki bo'ladigan, sinxronizmga, sinxronlikka ega bo'lgan. Sinxronlamoq – ikki yoki bir necha hodisa, protsess va sh.k.ning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir qiladigan bo'lmoq. Sinxronist – nutqni notiq bilan ketma-ket tarjima qilib boruvchi tarjimon.

- davrlar;
- tarjima maktablari bo'yicha ham bo'linadi.

Tarjima xillari quyidagicha:

1. Bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo'lmagan tilga tarjima qilish.
2. Qadimiy davr tilidan o'sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish.
3. Muayyan tilning u yoki bu shevasidan adabiy tilga tarjima qilish.

Bundan tashqari, mana bunday tasniflash ham mavjud:

- uzoq tillardan tarjima;
- yaqin tillardan tarjima;
- qadimiy tildan zamonaviy tilga tarjima, ya'ni tabdil.

Har bir davrning o'z tarjima prinsiplari bo'lgan. O'tmishda asosan erkin va ijodiy tarjima, ko'pincha ularning o'zaro omuxta shakli amalda bo'lgan, ya'ni ham erkin, ham ijodiy. Ba'zan mutlaqo erkin tarjimalar ham uchrab turgan. Adekvat tarjima tushunchasi keyingi asrlar mahsuli.

Quyidagi tarjima usullari mavjud:

- adekvat (mukammal);
- erkin;
- ijodiy;
- so'zma-so'z;
- hijjaviy;
- aniq;
- taglama;
- tabdil;
- adaptatsiya.

Tarjima amaliyotida quyidagi usullarni ko'rish mumkin:

**Adekvat tarjima** – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha "adekvatus" – "tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan").

**"Erkin tarjima** bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bunday tarjimalarda **muallif uslubi** emas, balki **tarjimon uslubi** ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli

xillari mavjud. Sharq klassik she'riy tarjimasiga kelganda, **erkin tarjima** shunda ko'rinadiki, bu usulni qo'llagan tarjimon aksariyat hollarda, asosiy mavzu va g'oyadan chetga chiqmagan holda, muallifning bayon tarzida she'riy san'atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarini chetlab o'tib, ular o'rniga o'zi ijod qilgan san'atlar va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panohida o'z she'rini taqdim etgan, o'zining ijodiy manerasini ko'rsatgan bo'ladi.

Masalan, Sayfi Saroyi tarjimasidagi Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Qutb Xorazmiy tarjimasidagi Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" asarlari. "Kalila va Dimna" tarjimalari ham.

**Ijodiy tarjima** esa asar g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni<sup>1</sup> taqozo etadi. Masalan, A.Oripov tarjimasidagi Qaysin Quliyevning "Hayrat" she'ri. E.Vohidov tarjimasidagi Sergey Yesenin she'rlari. Xurshidning Hofizdan qilgan tarjimalari.

"Guliston" besh marta tarjima qilingan (Sayfi Saroyi, Ogahiy, Mulla Murodxo'ja, Ahmad Jalil, G'afur G'ulom – Sh.Shomuhamedov – R.Komilov). Ularni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "tarjimaga bo'lgan talab zamonlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Agar Abu Rayhon Beruniy erkin tarjimani tanqid qilib, original ruhini boshqa tilda aniq qayta yaratishni talab qilsa, Muhammad Temur erkin tarjima tarafdori sifatida maydonga chiqadi. Ogahiy ijodiy erkin tarjima prinsipiga amal qilsa, Murodxo'ja tarixiy-lingvistik aniqlikka intilib, so'zma-so'z tarjima aqidlariga sodiq bo'lib qoladi"<sup>2</sup>.

**So'zma-so'z va hijjaviy tarjima.** Y.I.Resker "дословный" va "буквальный" terminlarining ma'nolari boshqa-boshqa bo'lib, ularni bir-biri bilan aralashtirish yaramasligini alohida qayd etgan edi: "... so'zma-so'z va hijjalab tarjima qilish degan ikki xil tushunchani aralashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish – turli-tuman tillarning

<sup>1</sup> Komilov N. Bu qadimiy san'at // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 75-76-betlar.

<sup>2</sup> O'sha yerda. 89-bet.

so'zlari o'rtasidagi nuqul tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir. So'zma-so'z tarjima esa "so'zni-so'z" bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir<sup>1</sup>.

Demak, дословный перевод – so'zma-so'z tarjima, буквальный перевод – hijjalab tarjima qilish

So'zma-so'z tarjimaga misollar:

1. Терпи казак, атаманом будешь. – Sabr qil, kazak, ataman bo'lasan. (Erkin tarjiması: Sabr qilsang, g'o'rada halvo bitar).
2. Если враг не сдаётся, его уничтожают. – Agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar.
3. Дураку закон не писан. – Ahmoqqa qonun bitilmagan.
4. Zo'ri behuda miyon meshikanad. – Behuda kuchanish belni sindiradi.
5. Holva degan bilan og'iz chuchimaydi. – "Халва" сколько не говори, во рту сладко не станет.

Hijjaviy tarjimaga misollar:

1. "крестьянин крепко осел" (dehqon mustahkam o'tmashdi) – dehqon mustahkam eshak
  2. "парк занесен снегом" (parkni qor bosdi) – park qor bilan olinib ketildi
  3. угловатый (qo'pol, dag'al) – burchakli
  4. бархатный голос (mayin ovoz) – duxoba ovoz
  5. голубые глаза (ko'k ko'z) – kaptar ko'zlar
  6. краса и гордость (ko'rk va savlat) – bo'yoq va faxr
  7. ученая собака (o'rgatilgan it) – olim it
  8. Jigar-bag'rim kabob bo'ldi (Mashrabdan). – Сердце стало шашлыком.
  9. U qizilmag'izdan kelgan edi (A.Qodiriy. "Obid ketmon"). – Он приехал из Кизилмагиза.
  10. Перевести дух (Kafka). – Ruhiyatni tarjima qilmoq.
- Akram Qodiriyning "Tarjimon" nomli bir pardali komediyasi. Mulla Mirgarang yozgan ariza: "Glavni bosh paxtaqo'mg'a. Maya

<sup>1</sup> Ko'chirma quyidagi kitobdan olindi: Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent. 1966. 272-273-betlar.

jilizni daro'ga yuk taskayt. Adin polovina luna bo'ladi. Xotinim uyda pitir-pitir delayt. Shunga denga dayut". Yana shu asardan:

"Bagdadskiy vor" – "Bag'dod ham bor". "Va glavniy roli" – ya'ni aptambilini ro'lini burab turadigan odam. "Miravuy bayavik – "Meros boyvachchasi".

**Aniq tarjima** – so'zma-so'z aniqlikka intilish. Buning yorqin misoli V.Bryusov tarjimasidagi Vergiliyning "Eneida" asari. U asarni olti-etti marta tarjima qilgan. Har gal yangi prinsip qo'llagan: 1) erkin tarjima yoki "qayta hikoya qilib berish" usuli; 2) chin ma'nodagi "she'riy tarjima" (aniq, ammo bukvalistik belgilardan xoli); 3) sof bukvalizm.

**Taglama** – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan so'zma-so'z, jumlama-jumla, satrma-satr (she'riy tarjimada) aynan tarjima, tahtullafz, podstrochnik. Sovet davrida rus tarjimonlari o'zbek adabiyoti namunalarini asosan taglamadan tarjima qilganlar (L.Penkovskiy, V.Derjavin, S.Lipkin, K.Simonov, M.Sale. "Farhod va Shirin"ning ayrim boblarini nemis tiliga o'g'irgan Alfred Kurella ham taglamadan foydalangan).

**Tabdil**. "Klassik adabiyot asarlarining lug'atida, jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug'atida ham shu darajada katta tafovut borki, bu asarlarni to'la tushunib yetish uchun ularni to'la ma'noda tarjima qilinmasa ham, loaqal, "yarim tarjima" qilishga zarurat tug'iladiki, buning nomini **tabdil qilish** deyiladi". Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa" dostonlari, "Lison ut-tayr" dostoni nasriy bayon qilingan bo'lsa, "Mahbub ul-qulub" hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilingan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari ham nasriy tarjimada o'qilayapti. Bu asarlarning asl nusxasini faqat mutaxassislar o'kiydi.

**Adaptatsiya** – soddalashtirish, moslashtirish. Chunonchi, Xomushiy Firdavsiyning "Shohnoma", N.Komilov Atorning "Ilohiynoma"-sini xalq saviyasi va o'quvchilar darajasini hisobga olib, nasriy tarjima qilganlar. Menimcha, "Shohnoma" tarjima qilinadigan bo'lsa, hozir ham uni soddalashtirib, nasriy tarjima qilish kerak. Chunki 120 000 misralik bu ulkan asarni keng ommaning o'qishi qiyin.

**Mualliflashtirilgan tarjima** – Muallifning o'zi tomonidan (Ayniy asarlari) yoki muallif va tarjimon hamkorligida (P.Qodirov va Y.Surovsev) amalga oshirilgan tarjimalar. Ch.Aytmatov qissalari ham.



S.Ayniyning «Buxoro jallodlari», «Odina», «Sudxoʻrning oʻlimi», «Qullar», «Esdaliklar»ining birinchi qismi ham oʻzbek, ham tojik tilida yozilgan. Bunda u oʻz asarlariga xohlaganicha oʻzgartirish va tahrirlar kiritgan. Masalan, «Qullar» romanida oʻzbekchada:

Hasanmi-ye, Husanmi-ye,

Lakalakka oʻynasammi, –

degan sheʼri keltirsa, tojikchada bu sheʼri:

Ho, Layli, Layli, Layli-ye,

Jonim fidoyi Layli, –

sheʼri bilan almashtirgan.

**Qayta tarjima.** Aslyiat barcha zamonlar va oʻquvchilar uchun oʻzgarmas boʻlib qolaveradi. Lekin har bir davr, har bir avlod yangi, zamonaviy tarjimaga ehtiyoj sezadi. Aytaylik, Saʼdiy “Guliston”ining Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari lisoniy jihatdan bugungi oʻquvchi talabini qondirolmaydi. Shuning uchun XX asrda uning yangi tarjimai paydo boʻldi. Chunki bu tarjimalarning oʻzi tarjimaga muhtoj.

Umuman, qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab boʻladi:

- avvalgi tarjimaning til jihatdan eskirganligi;
- badiiy jihatdan boʻsh tarjima qilinganligi;
- vositachi til orqali oʻgʻirilganligi;
- ijodiy bellashuv istagi.

Masalan, Braziliya adibi Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarini bir vaqtning oʻzida uch tarjimon – Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboyev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir tomondan, jahon adabiyotida voqea boʻlgan asarga davr talabi boʻlsa, ikkinchidan, mohir adib “panjasiga panja urish”, oʻz isteʼdod kuchini sinab koʻrish.

Jamol Kamol ilgari rus tilidan oʻgʻirilgan Shekspir fojialarini bevosita ingliz tilidan tarjima qildi. Yoki Bayronning “Don Juan” asarini Abdulla Sher ingliz, Sulaymon Rahmon rus tilidan tarjima qildilar. Shavkat Rahmon otashnafas ispan shoiri Garsia Lorca sheʼrlarini dastlab rus tilidan tarjima qilgan edi. Keyin ispan tilini oʻrganib, bevosita asl nusxadan oʻzbekchalashtirdi.

Oybek tarjimasidagi A.S.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” sheʼriy romani aslyiatning mazmunini toʻla-toʻkis aks ettirgan boʻlsa-da, shaklan buyuk rus shoiri asariga qoyimmaqom emas, badiiy jihatdan

ham uncha baland emas edi. Shuni hisobga olib, oradan yarim asr oʻtib, Mirzo Kenjabek uni qayta tarjima qildi.

“**Vorisiylik** – bir tarjimadan ikkinchisiga meros boʻlib oʻtadigan xususiyatlar... bir asarning dastlabki tarjimasida erishilgan yutuqlar, aslyiat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar keyingi, taʼbir joiz boʻlsa, musobaqadosh tarjimon tarafidan ham istifoda etilishi mumkin. Chunki oʻsha narsaning shu tilda bundan ortiq muqobili boʻlmasligi ham mumkin-da”<sup>1</sup>. Chunonchi, «Yevgeniy Onegin» romanini tarjimasida Oybek «Куда ж поскачет мой проказник» satrini «Qaerga yugurar arzandam hali» deb tarjima qiladi. «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat»da «prokaznik» soʻzi «shoʻx bola, toʻpolonchi, zumrasha, shumtaka» deb izohlangan-u<sup>2</sup>, lekin uning «arzanda» maʼnosi berilmagan. Demak, bu – Oybek topilmasi. Yoki Tatyananing singlisi Olga haqida «Её голубка молодая» deyiladi. Bu «uning yosh yoki jaji kabutari» mazmunini anglatib, majoziy maʼnoda hamrohini bildiradi. Oybek bu soʻzni «qumri» deb tarjima qiladi. Holbuki, «голуб»ni «qumri» deb atash mumkinligi lugʻatlarda berilmagan. Oybek esa uni shunday deb tarjima qilishni lozim topgan. Muvaffaqiyat bilan topilgan bu har ikkala soʻz keyinchalik Mirzo Kenjabek tarjimasiga aynan koʻchib oʻtadi.

Asarni ilk bor tarjima qilgan tarjimon oldida murakkabliklar bilan birga, imkoniyatlar ham boʻladi – qanday xohlasa shunday, koʻrinib turgan maʼnolari bilan tarjima qiladi. Keyingi tarjimon esa oʻxshab qolmasligi uchun atay boshqa soʻzlar, oʻzgacha ifodalar izlaydi.

Qaysi tildan oʻgʻirilishiga qarab ham tarjima ikkiga boʻlinadi:

- bevosita tarjima (asl nusxa tilidan tarjima);
- bilvosita tarjima (vositachi tildan tarjima).

### Avtomatik tarjima

Avtomatik tarjima faqat bir maʼnoli soʻzlar va bir xil grammatik tuzilishga ega tillardan tarjimada muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Aksincha, u soʻzlarni oʻz oʻrnida tarjima qilib qoʻya qoladi – keyin ular asosida qayta gap tuzish kerak boʻladi. Bu ikkinchi ish boʻladi.

<sup>1</sup> Olimov S., Matyoqubov A. Lermontovning oʻzbek tarjimonlari. – Toshkent, 1989. 19-20-betlar.

<sup>2</sup> Ruscha-oʻzbekcha lugʻat. 2-jild. – Toshkent: «Fan», 1984. 246-bet.

Badiiy bo'yoqqa ega matnlarni esa hech qachon avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki badiiy matnda so'zlar ko'pincha o'z ma'nosida kelmaydi, yoki bir necha ma'noga ega bo'ladi. Misollar:

“Букет в благородном вине” – “Oliyjanob vinodagi guldasta” – “Sof sharob ta'mi”.

“Соль соли земли” – “yer tuzining tuzi” – “ona zaminimizning mag'z-mag'zi” – “jamiyat gullarining guli” – “el-yurt guli”.

Georgiy Markovning. “Соль земли” romani o'zbek tiliga “Yer mag'zi” deb tarjima qilingan.

#### Antonimik tarjima

Shakli bir-biriga zid, ammo ma'nolari monand bo'lgan birikmalar antonimik birikmalardir. Masalan, rus tilida “nima bo'lsa, shu bo'lsin”, “mening parvoyimga kelmaydi” degan ma'noda **хоть трава не расти** degan frazeologik butunlik ishlatiladi. Buni “Menga desa, o't o'smasin” deb tarjima qilsa, o'zbekchada qoyilmaqom chiqmaydi. Shuning uchun “Menga desa, g'ovlab ketmaydimi!” deb o'giriladi. Yoki:

Одной рукой в ладони не хлопнется. – Qars bir qo'ldan chiqmaydi. – Yak dast besado ast. – Qars ikki qo'ldan chiqadi.

#### Tayanch so'z va iboralar:

Og'zaki tarjima, yozma tarjima, adekvat, erkin, ijodiy, so'zma-so'z, hijjaviy, taglama, tabdil, avtomatik, antonimik tarjimalar.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Qanday tarjima turlari mavjud?
2. Qanday tarjima xillarini bilasiz?
3. Bevosita va bilvosita tarjima nima?
4. Antonimik tarjimaga misol keltiring.
5. Avtomatik tarjima deganda nimani tushunasiz?

#### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Tarjima usullari bo'yicha misollar topib kelish.
2. So'zma-so'z va hijjaviy tarjima bo'yicha materiallar to'plash.

#### Adabiyotlar:

1. Salomov G'. *Til va tarjima*. – Toshkent: “Fan”, 1966.
2. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish*. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1978.
3. Komilov N. *Bu qadimiy san'at // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami)*. 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar.

#### OLTINCHI MAVZU: FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

#### Dars rejasi:

1. Frazeologizmlar va ularning tasnifi.
2. Maqol, matal va iboraning o'zaro farqi.
3. Frazeologizmlar tarjimasining asosiy prinsiplari.
4. Tarjimada kompensatsiya.

#### Frazeologizmg va tarjima muammolari

**Fraza** – 1. Ibora, jumla, gap. 2. Qanotli ibora, hikmatli barqaror birikma.

**Frazeologiya** – 1. Barqaror so'z birikmalari. 2. Tilshunoslikning barqaror so'z birikmalarini o'rganadigan bo'limi.

**Frazeologizmlar** – maqol, matal va idiomalar.

Turmushda sinalgan, ma'lum ezgu, tugal umumiy ma'no anglatuvchi, ixcham, jarangdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga **maqol** deyiladi.

Masalan: Bir yigitga yetmish hunar oz. Aql yoshda emas, boshda.

Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir.

Masalan: Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirmoq. O'zini aka, echkisini taka demoq. O'zimni sen, uni siz deb yurgan edim.

“Matal aytilmoqchi bo'lgan fikmi biror vosita orqali ifodalovchi ko'chma ma'noli sodda jumla bo'lib, unda xulosa bo'lmaydi, balki



uning o'zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal "u ahmoq odam" deyish o'rniga – "uning bir qaynovi past" deydi; "ular bir-biriga o'xshaydi" deyish o'rniga – "ular bir olmaning ikki pallasi" deb aytadi<sup>1</sup>.

**Matal** – tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (mas., "qizil qor yoqqanda", "tuyaning dumi yerga tekkanda")<sup>2</sup>.

Matallar: ona suti og'zidan ketmagan, dokaday oqargan, tirik murda, so'qir ko'zga surma, dengizdan tomchi, birovning nog'orasiga o'ynamoq, terisi suyagiga yopishgan, dumini qisdi, sigirga to'qim urganday.

**"Idioma** – ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora. Masalan: tomdan tarasha tushganday, og'zingga qarab gapir"<sup>3</sup>.

Idiomalar: oyoq uzatmoq, bosh qotirmoq, ishlar besh, parvoi falak, pichoqsiz so'ymoq, boshi osmonda, qo'ynini puch yong'oq bilan to'ldirmoq, kunduz kuni chiroq yoqib topolmaysan.

"Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmi aynan, so'zma-so'z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi"<sup>4</sup>.

1. Zo'ri behuda miyon meshikanad. – Ortiqcha kuchanish belni sindiradi.

Az no'gi xamir fatir – xamir uchidan patir

Aro'si modarash nabo'sida – onasi o'pmagan qiz

Angur angura dida rang megirad – chillaki chillakini ko'rib chumak uradi, qovun qovundan rang oladi.

Цыплат по осени считают – jo'jani kuzda sanaydilar

Покорную голову мечь не сечет – egilgan boshni qilich kesmaydi

2. Мать твоя курица – onasi baytal

Птичье молоко – anqoning urug'i

<sup>1</sup> Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent, 1966. 259-bet.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Moskva, 1981. 451-bet.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. 314-bet.

<sup>4</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983. 117-bet.

Язык до Киева доведет – "So'ragan Kiyevni topadi" (rus)

"Tili uzun odam Rimni topadi" (fransuz)

"So'ragan Makkani topadi" (o'zbek)

3. Терпи казак, атаманом будешь – sabr qil, kazak, ataman bo'lasan.

Язык чешется – tili qichimoq

Висеть на волоске – hayoti qil ustida turmoq

Obyekt o'zgarishi:

musichaday beozor – sigirday beozor

Bechora Gulbahor karvondan ajralgan bo'taday bo'zlaydi, sho'rlik – "go'sfandi az rama judo aftodagi barin faryod mekunad".

Boy boyga boqar, suv soyga oqar – Kabo'tar bo kabo'tar, boz bo boz.

It ham kun ko'radi, bit ham – Mush ham ro'z mebinad, shabush ham

It bo'lsa ham, bit bo'lsa ham, aytganim bo'lsin. – Xoh balo boshad, xoh batar boshad, guftagim shavad.

Kel, hu o'sha do'ndiq qullaringdan o'rgulay! – Biyo, az hamin dasthoi nozukat gardam!

### Tarjimada kompensatsiya

Tarjimada kompensatsiya – berilgan qurbonlikning o'rnini to'ldirish, tovon to'lash.

«Asarning asl nusxasidagi ko'chma ma'noli birikmalarni ularning ekvivalentlari va muqobil (variant)lari bilan almashtirish uncha qiyin emas. Ammo, ko'p hollarda, shunday maqol, matal va idiomatik birikmalar uchraydiki, ular faqat ayni tilning o'zigagina xos bo'lib, boshqa tilga ko'chirish juda qiyinchilik tug'diradi. Bunday holda o'sha frazeologizm o'rniga boshqa birikma keltirib qo'yiladi va bu bilan originalning o'rnini to'ldiriladi»<sup>1</sup>.

Masalan: «посеешь ветер, пожнешь бурю» – «qarimta qaytadi» (G'.Salom) – «kimki shamol yuborsa, o'zi bo'ronga uchraydi» (M.Ismoliy). O'zbekcha «Nima eksang, shuni o'rasan», «Birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan», «Qarimta qaytadi» maqollari kontekst mazmuni va muallif uslubini berolmaydi, «shamol eksang, bo'ron olasan» desa, buni o'quvchi tasavvur qilolmaydi.

«Basharti, N.V.Gogolning "Uylanish" komediyasidagi basurman («А кабы умела по-басурмански, то тебе же хуже») so'zini o'zbekcha musulmon bilan almashtirilsa, bu bilan, birinchidan, asarning milliy xususiyatiga zarar yetgan bo'lardi. Bundan tashqari, Fekla bu

<sup>1</sup> Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent, 1966. 274-bet.

so'zni ishlatganida «musulmon» tilini emas, balki fransuz tilini nazarda tutgan edi. Shuning uchun Abdulla Qahhor basurman so'zini uning o'zbekcha muqobili – chulchutch bilan kompensatsiya qilgan. Serafimovichning «Temir oqim» asarida bu so'zni «Опять же свои, не басурман») tarjimon Kibriyo Qahhorova g'ayridin so'zi bilan ag'dargan»<sup>1</sup>.

Yoki, Umar Xayyom ruboiylaridan birida qulon va qabr ma'nolariga ega go'r so'zi vositasida so'z o'yini qiladi:

*Bahrom, ki go'r megirifti hama umr,  
Didi, ki chi guna go'r Bahrom girifti*<sup>2</sup>.

Ma'nosi: «Bahrom bir umr go'r ovlar edi, mana endi go'r uni qanday ovlaganini ko'r!»

Go'r – yovvoyi eshak, qulon. Uni qadim zamonda ovlab, tanovul qilganlar. Bahrom – sasoniylar sulolasidan bo'lgan podshoh. Ko'pincha go'r ovlagan uchun uni Bahrom Go'r deganlar.

Go'r so'zining qulon ma'nosi o'zbek o'quvchisi uchun notanish. Shuning uchun Sh.Shomuhamedov qulon lafzi orqali asliyatdagi tajnis san'ati o'miga o'zbekchada so'z o'yini hosil qiladi. Natijada, ma'no ham buzilmaydi, asarning badiiyati ham saqlanadi:

*Bir umr qulonlar ovlar edi u,  
O'limga qulonday ovlandi Bahrom.*

Ayni bayt tarjimasida J.Kamol tajnisni tajnis bilan berishga urinib, nafaqat mazkur san'atni qayta yaratolmagan, balki she'riy mazmunni ham buzgan: Chunki u qo'llagan «qabr» so'zi ko'p ma'noli emas. Natijada, o'zbekchada Bahrom Go'r – Bahrom Go'rkovga aylangan:

*Bahromki, umr bo'yi qabr qazmishdi (?),  
Ko'rgil, mana, ne qabrni Bahrom olmish.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Frazeologizm, maqol, matal, idioma, prinsip, kompensatsiya.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maqol, matal va idiomaning farqini ajratib ko'rsating.

<sup>1</sup> O'sha yerda. 274-bet.

<sup>2</sup> Umar Xayyom. Ruboiylar (fors, o'zbek va rus tillarida). – Toshkent, 1985. 121-bet.

2. Frazeologizmlar tarjimasida qanday usullar qo'llaniladi?
3. Kompensatsiya deganda nimani tushunasiz?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

1. Frazeologizmlar tarjimasiga misollar topib kelish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: «Fan», 1966.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1983.
3. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М., 1971.
4. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы). – М., 1983.

#### **YETTINCHI MAVZU:**

#### **YAQIN TILLARDAN TARJIMA MUAMMOLARI**

#### **Dars rejası:**

1. Uzoq va yaqin tillardan tarjima tushunchasi.
2. Yaqin tillardan tarjimaning qulayliklari va qiyinchiliklari.
3. Yaqin tillardan tarjimaning yutuqlari va muammolari.
4. Yaqin tillardan tarjimaga munosabat va uning hozirgi ahvoli

Tili, hayot tarzi, diniy e'tiqodi yaqin tillardan tarjima qilish qator qulayliklarga ega bo'lib, turli til guruhlariga kiradigan mutlaqo begona, dini va urf-odatlarini bir-biriga yot xalqlar tilidan tarjimaga nisbatan birmuncha oson. Shunga qaramay, tarjimashunoslikda noto'g'ri bir qarash keng tarqalgan: emishki, uzoq tillardan tarjimaga ko'ra, yaqin tillardan tarjima qiyinroq. Bunga sabab qilib esa har ikki til lug'atida ham mavjud, lekin shaklan bir xil bo'lsa-da, mazmunan bir-biridan uzoq so'zlar – soxta ekvivalentlar ko'rsatiladi: ular har qanday tarjimoni ham chalg'itib, tarjima matniga o'tib qolishi va asliyatdagi vazifasini bajarmasligidan tashqari, noo'rin qo'llangani tufayli muallif fikri, asar mazmunini o'zgartirishi, buzishi mumkin. Holbuki, taniqli tarjimashunos Z.Isomiddinov ta'biri bilan aytganda: «Yaqin tillardan tarjima qilishda "soxta ekvivalentlar"ning tarjimonga

pand berish hollari aslida mutarjimning original tilini yetarli darajada bilmasligi tufayli kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Bizda badiiy tarjimaning yaqin tillardan tarjima sohasi yetarli darajada rivojlanmagan, uning qoida va prinsiplari ishlab chiqilmagan, bu soha nazoratdan bir qadar chetda qolgan. Shundanmi, bu borada tarjimonlar ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar qabilida ish tutib, o'zlari xoblagan usulda tarjima qilmoqdalar. Bu sohaga professional tarjimonlar qolib, ko'pincha tasodifiy kishilarning qo'l urishi o'zbek tarjimashunosligidagi ana shu e'tiborsizlik – xo'jasizlik sababidan bo'lsa kerak.

Ilmda "g'alati mashhur" degan ibora, tushuncha mashhur. U aslida xato bo'lsa-da, mashhur bo'lib ketganligi uchun "to'g'ri" bo'lgan so'zlar, iboralar, tushunchalarga nisbatan qo'llanadi. Masalan, "avliyo" – "valiy" so'zining ko'pligi ekani holda, unga "lar" ko'plik qo'shimchasini qo'shib, "avliyolar" tarzida yozamiz, yoki "axbor" – xabarning ko'pligi bo'lsa-da, unga yana "ot" ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi va hokazo. Ba'zi so'zlarning ma'no o'zgarishi xususida ham shunday deyishimiz mumkin. Aytaylik, Xoliq yaratuvchi, maxluq – yaratilgan. O'tmishda ijobiy mazmunga ega bo'lgan "maxluq" so'zi hozirda salbiy ma'noga ega – u haqorat so'ziga aylangan. Yoki "doril-omon" so'zini bugun tinch, osoyishta hayot ma'nosida ishlatamiz, holbuki, o'tmishda bu so'z tinchlik, osoyishtalik uyi, ya'ni u dunyo ma'nosida qo'llangan.

Shunga o'xshab, bizda yaqin tillardan tarjima qilish uchun til bilish shart emas degan yozilmagan qonun mavjudga o'xshaydi. Bunga turkman, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, tatar, boshqird, qoraqalpoq kabi qardosh tillarning hech qaerda maxsus o'rgatilmaligi ham sabab bo'layotgandir (oliy o'quv yurtlarida turkiy tillardan faqat turk tili o'qitiladi, qolgan turkiy tillarni faqat shu millat vakillari maktablarda o'qiydilar, o'zbeklarga ular o'rgatilmaydi. O'zbeklar uchun bu tillardan darslik yoki o'quv qo'llanmasi ham, lug'atlar ham yo'q). Shuning uchun qardosh tillardan tarjima qilayotganlar ro'yxatiga ko'z tashlasak, ularning ko'pincha ikki xalqqa aloqador kishilar ekanligiga guvoh bo'lamiz (masalan, Nosir Fozilovning – qozoq, Tursunboy Adashboyevning – qirg'iz, Muzaffar Ahmadning – qoraqalpoq, Abdumo'min Jumaevning –

<sup>1</sup> Isomiddinov Z. "Aldoqchi so'zlar" bilan bahs // "Tarjima san'ati" (Maqolalar to'plami), 5-kitob. – Toshkent, 1980. 159-bet.

turkman xalqiga u yoki bu darajada bog'liqligi bor). Bu sohada Mirte-mirday professional tarjimonlar kam.

Birgina, Maxtumquli tarjimonlarini olaylik. Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmad, Mirzo Kenjabek, Olim To'raev, Abdumo'min Jumayevlardan birortasi turkman tili bo'yicha mutaxassis emas. Shoir, adib, tarjimashunos olim J.Sharipovga Xorazmda tug'ilib o'sgani, binobarin, Xorazm o'zbeklari tilining turkman tiliga boshqa o'zbek shevalariga nisbatan bir qadar yaqinligi qo'l kelgan bo'lsa, O.To'rayev – toshhovuzlik maktab o'qituvchisi: ham turkmanlar, ham o'zbeklar bilan aloqada. Abdumo'min Jumayev – o'zbekistonlik turkman farzandi. M.Ahmad qoraqalpoq farzandi bo'lgani uchun o'zini turkmanlarga ham yaqin sezadi.

Ma'lumki, yaqin tillardan tarjimada ko'plab so'z va iboralar, satrlar, hatto butun-butun bandlar tarjimaga deyarli o'zgarishsiz ko'chishi mumkin. Har yaxshining bir yomoni bor deganlaridek, bu qulaylikning bir salbiy jihati ham mavjud – u ham bo'lsa, tarjimonni ijodiy izlanishdan qaytarishi, erinchoq qilib qo'yishi. Bunda ikki holat kuzatiladi: birinchisi – ko'plab so'zlar, jumalalar, misralar va bandlarning tarjimaga aynan ko'chganini ko'rgan tarjimonlar bu imkoniyatni suiiste'mol qilib, qolganini ham o'zicha saqlab qolish yo'lidan boradilar va ayrim tushunarsiz so'zlarga matn ostida izoh berib ketaveradilar. Natijada tarjimada izoh ko'payib ketadi. Masalan, Mirza Kenjabek Maxtumquli she'rlaridan qilgan tarjimalariga 300 ga yaqin izoh bergan. "Tabiiyki, izohlarning ko'p berilishi tarjima qilingan asarning o'qilishini qiyinlashtiradi"<sup>1</sup>. Holbuki, bu asiyat emas, tarjima. Agar shoir she'rlarini turkmancha asiyatda nashr etganimizda ham shuncha yoki sal ko'proq izoh berilsa kerak. Ikkinchisi – bizda yaqin tillardan tarjimaga ko'p hollarda ijodiy ish deb qaralmaydi, balki unga tabdil darajasida munosabatda bo'linib, shunchaki u tildan-bu tilga o'tkazib qo'ya qolish va ba'zi bir tushunarsiz so'zlarni tushunarlisi bilan almashtirish deb tushuniladi. Shuning uchun bunday tarjimalarga ortiqcha tayyorgarliksiz kirishiladi va natijada uzoq tillardan tarjimaga ko'ra yaqin tillardan tarjimada xatolar ko'proq uchraydi. Rus tarjimashunosi M.Rilskiy uzoq tillardan tarjima qilish-

<sup>1</sup> Normamyedov Z. Ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar tarixiga bir nazar // Badiiy tarjimaning aktual masalalari (Maqolalar to'plami). – Toshkent: Fan, 1977. 56-bet.

dan ko'ra, yaqin tillardan tarjima qilishning qiyinligini alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Chunki uzoq tillardan tarjimaga tarjimon katta tayyorgarlik bilan kirishadi, aslyatdagi har bir so'z va jumlaning teran tahlil qilib, mag'zini chaqadi, ma'no qirralarini salmoqlab ko'radi. Yaqin tillardan tarjimada esa tarjimon bu mas'uliyatni unutib, bir qadar xotirjam bo'ladi. Natijada, sirtidan o'xshash, lug'atsiz ham tushunsa bo'ladiganday ko'rinadigan so'z, ibora va maqol-matallarga aldanib, ko'plab qo'pol xatolarga yo'l qo'yanini bilmay qoladi. Qardosh tillardan tarjimada kelib chiqadigan xatolarning sababi asosan 3 ta deyish mumkin:

1. Aslyat tilini yetarli darajada bilmaslik.
2. O'xshash so'z, ibora va tushunchalarning tarjimonni aldab qo'yishi.
3. Beparvolik, mas'uliyatsizlik, faromushxotirlik orqasida bilmay xatoga yo'l qo'yish.

#### Tillararo omonimlar va tarjima

Tarjimashunoslikda shaklan o'xshash, lekin ma'nolari bir-biridan farq qiladigan so'zlar **soxta ekvivalentlar** deb yuritiladi. Aslida bu tushuncha XIX asr oxirlarida ilk bor qayd etilib, XX asr boshlaridan e'tiboran maxsus o'rganila boshlangan. Fransuz lug'atshunoslari M.Kesler va J.Derokini birinchi marta "Inglizcha-fransuzcha tarjimonlarning aldoqchi do'stlari" degan lug'at tuzgan edilar. Keyinchalik bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar ham paydo bo'ldi. "Tillararo omonimlar", "tillararo analogizmlar", "ohangdosh so'zlar", "aldoqchi so'zlar" va boshqalar shular jumlasidandir<sup>1</sup>. O'zbek tarjimashunosligida ulardan "aldoqchi so'zlar" termini o'zlashdi deyish mumkin.

Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov turli tillarda faqat ayrim so'zlarninggina fonetik jihatdan o'xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo'lsa, G.Salomov bu terminni tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshash, ammo ma'nosi jihatidan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba'zida bir-biriga zid bo'lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo'llaydi.

Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. – Саяпер ошибается один раз.

<sup>1</sup> Berdak Yusuf. Önsöz // Turkcha-o'zbekcha "aldoqchi" so'zlar lug'ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – S. 5.

Rus olimi V.V. Akulenko bunday so'zlarni tillararo omonimlar (shaklan o'xshash, ammo ma'nolari har xil so'zlar) va tillararo paronimlar (so'zlarning talaffuzdagi tasodifiy o'xshashligi) kabi ikki guruhga bo'lgan edi. M. Taylaqova va M. Saparov singari tilshunoslar J. Sharipovning Maxtumqulidan qilgan tarjimalarini shu asosda o'rganadilar<sup>1</sup>. Masalan, turkmanchada **xovsala** – **qo'rquv**, **chigmak** – **qaynab-toshmoq**, **gorumli** – **boodob** bo'lib, ularni muvofiq ravishda **hafsala**, **cho'kmoq**, **ko'rkam** deb tarjima qilib bo'lmaydi<sup>2</sup>.

Ko'pgina turkiy tillarda, jumladan, tatar va turkman tillarida "yoz" deb bahorni aytadilar. Binobarin, Maxtumqulining "Yigitlik – eglenmes yazdir" misrasini "Yigitlik – to'xtamas yozdir" (M. Ahmad) emas, balki "Yigitlik – qaytmas bahordir" deb tarjima qilish kerak. Shoirning "Chaxar pasla bashdir yaz" misrasini esa J. Sharipov "To'rt faslga boshdir yoz" deb o'zbekchalashtiradi. Holbuki, yilning boshi – bahor, binobarin, barcha fasllarning boshi ham u. Yoki taniqli tatar shoiri Musa Jalilning quyidagi misralarida ham bu so'z bahor ma'nosida kelgan. Mamarasul Boboyev esa uni aynan olib, xatoga yo'l qo'yan:

*Yaz kilde, dulkinli, yalkinli,  
Chachakkə torende xçir oste.*

*Yoz keldi – to'lqinli, yalqinli,  
Gullarga burkandi yer usti.*

M. Kenjabek "koshe" (go'sha) so'zini "ko'cha" deb noto'g'ri talqin qiladi:

*Bir koshede bolsam mukim, koule geltirsem kadri-sim,  
Xer koshеyi-veyranadan sed gençеi-bipayan chikar<sup>3</sup>.*

*Bir ko'chada bo'lsam muqim, dilga ketirsam qadri siym,  
Har ko'chai vayronadan sad ganji bepoyon chiqar<sup>4</sup>.*

Bu yerda bir go'shada o'tirish – xilvatga chekinish haqida so'z bormoqdaki, uni ko'cha deb talqin qilish aslyat mazmunini buzgan.

<sup>1</sup> Qarang: Taylaqova M., Saparov M. Maxtumquli asarlari tilining o'zbekcha tarjimasiga ba'zi bir qaydlar. 48-52-betlar.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Isomiddinov Z. "Aldoqchi so'zlar" bilan bahs // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 5-kitob. – Toshkent, 1980. 157-162-betlar.

<sup>3</sup> Magtimygli. Shigirlar. Ych tomlyk. 1-tom. – Ashgabat, 1992. 37-bet.

<sup>4</sup> Maxtumquli. Saylanma (M. Kenjabek tarjimalari). – Toshkent, 2004. 36-bet.

Bunday yanglishishlar katta-kichik barcha tarjimonlar, jumladan, Mirtemirday zabardast mutarjim ijodida ham uchraydi. Masalan, "bylmoq" so'zi qoraqalpoq tilida to'zmoq, buzilmoq, vayron bo'lmoq, yaroqsiz holga kelmoq deb tarjima qilinadi:

*Qaraqalpaqdan xalqi bylip.*

*Qoraqalpoq xalqi bo'lib.*

Holbuki, shoir "Qoraqalpoq xalqi to'zib" demoqchi. Yana shu she'ning keyingi bandida o'qiyamiz:

*Bylgen yel qaraqalpaq bo'ldi.*

*Bo'lgan qoraqalpoq bo'ldi.*

"Tamaq" so'zi qoraqalpoqchada tomoq va ovqat ma'nolarini bildiradi. Jumladan, quyidagi misrada u ovqat ma'nosida kelgan: "Ashliqtan bolmadi tamaq". Mirtemir esa uning bo'g'iz ma'nosida talqin qiladi: "Ochlikdan quriydi tomoq".

Mana bu misrada Berdaq sovuqdan hatto kapa (yurta, o'tov)ning ichi ham muz bo'ldi deydi: "Qostin ishi bolip tur muz". Mirtemir esa uni "Qo'sh chiqmayin ish bo'ldi muz" deb tarjima qiladi. M. Ahmad ham unga ergashib "Qo'shni qo'shsam, yer hali muz" deb o'giradi. Qo'sh – "Omochga qo'shilgan bir juft (yoki bitta) ho'kiz yoki ot".

Qozoq tilida "qadimgi odam" deganda rostmana, haqiqiy, risoladagidek kishi tushuniladi. Boshqa tilda esa u ayni ma'noni bermaydi. Ayni jihatdan Qalmaqon Abduqodirovning "Hojimuqon" qissasi tarjimasida N. Fozilovning bu iborani o'ziday qoldirishi to'g'ri emas. Ch. Aytmatovning "Somon yo'li" qissasi tarjimasida esa A. Rashidov "ushkurup kele jatti" jumlasini "chuchkurib kelardi" deb o'zbekchalashtiradi. Bu – xato. To'g'risi: – "xo'rsinib kelardi".

"So'zma-so'z o'girish, originalning quli bo'lish qanday xatoliklarga olib kelishi ko'rinib turibdi. Ayniqsa, yaqin tillararo tarjimada so'zma-so'z tarjima ish bermasligi, beparvolik, tarjimani oson ish deb o'ylash yoki original mansub tilni yaxshi bilaman deb xotirjamlikka berilish, uning stilistik tomonlariga, so'zlashuv nutqidagi individual xususiyatlariga e'tibor bermaslik kulgili holatlarga solib qo'yishi mumkin"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Karimov M. Tarjimada nomlar ifodasi // Tarjima muammolari (Maqolalar to'plami). Uch kitobdan iborat. Ikkinchi kitob. – Toshkent-Samarqand, 1991. 29-bet.

## Tillararo paronimlar va tarjima

Yaqin tillardan tarjimada nafaqat tillararo omonimlar, balki tillararo paronimlar ham tarjimonlarni chalg'itadi. Paronimlar "talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o'xshash, leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar"<sup>1</sup> bo'lib, ularga "mucha" (a'zo, unsur) so'zini – "muchal", "don" (to'n)ni – "don" (g'alla, urug'), yoki tan, "dulluk" (tullik, bevalik)ni – "to'liq", "bela" (balo)ni – "bola", "sonuram" (o'ylayman, xayol qilaman)ni – "sog'maman", "gilik" (qayliq)ni – "qiliq" kabi so'zlarni yanglish tushunish va xato talqin qilish kiradi. "Leksik paronimlar tarjimonni chalg'itishi tufayli Maxtunqulining o'zbekcha she'riy to'plamida (bu yerda so'z J. Sharipov tarjimalari ustida ketayapti. – E.O.) g'aliz, to'mtoq, asl nusxaning mazmuniga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan so'zlar uchraydi"<sup>2</sup>, – deb yozadilar M. Taylaqova va M. Saparovlar J. Sharipov tarjimalarini tahlil qilar ekanlar. Bunday kamchiliklar yaqin tillardan tarjima qiluvchi deyarli barcha tarjimonlarda bor. Jumladan, Maxtunqulining "ko'ngul" radifli g'azali tarjimasida M. Kenjabek "bagtim siyosidir" jumlasini "boqtim: siyosiydir" deb tarjima qiladi. Holbuki, u "baxtim siyosidir" – "baxtim qorasidir" bo'lishi kerak:

*Necha mæxrem binovalar tapdilar andan nova,*

*Manig eden andan meni bagtim siyosidir, ko'ngul.*

*Necha mahram benavolar topdilar andin navo,*

*Man' edan andan meni boqdim siyosiydir, ko'ngul.*

"Demak, yaqin tillardan bir-biriga tarjima qilishdagi asosiy masalalardan biri – so'zlarning tashqi o'xshashligiga aldanib qolmaslikdir.

## Tarjimada tushul ekvivalentlar

Ma'lumki, bir oilaga mansub tillarda, jumladan, turkiy tillardan so'zlashuvchi xalqlar bir-birining tiliga, asosan, tushunadi. Ammo har

<sup>1</sup> Madvaliyev A. Paronimlar // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent, 2003. 695-bet.

<sup>2</sup> Taylaqova M., Saparov M. Maxtunquli asarlari tilining o'zbekcha tarjimasiga ba'zi bir qaydlar // O'zbek filologiyasi masalalari (Ilmiy asarlar to'plami). – Toshkent, 1990. 50-bet.



bir tilning o'zigagina xos bo'lgan qonuniyatlari mavjud. Ayrim narsa predmet va hodisalarni bir xil so'z bilan atashsa-da, o'sha so'zlar yoki bu tilda boshqa ma'noda ko'llanilishi mumkin.

Yaqin tillarda, xususan, turkiy tillarda so'zlar shaklan o'xshash bo'lsa-da, ma'no ottenkasi, qo'llanilish o'rni va vazifasiga ko'ra farq qiladi<sup>1</sup>.

Tarjimonlar o'zi tushunmagani tufayli o'xshashiga nisbat berib, mana bu ma'noni anglatsa kerak deb taxmin bilan tarjima qiladigan so'zlarni Z. Isomiddinov "tasmol ekvivalentlar" deb ataydi<sup>2</sup>. Olimning yozishicha, "ayrim tadqiqotchilarni yaqin tillardan, xususan, turkiy tillarning biridan ikkinchisiga o'girish uzoq tillardan ag'darishga nisbatan birmuncha qiyin degan noto'g'ri xulosaga olib kelgan tarjima asarlari matnidagi xato va nuqsonlarning o'ndan to'qqiz qismini "soxta ekvivalentlar"ga o'xshagan, aslida esa – agar shunday atash mumkin bo'l – "tasmol ekvivalentlar" tashkil qiladi<sup>3</sup>. Chunonchi, M. Ahmadning Maxtumlulining bir she'ri tarjimasida "qumosh" (kiyim, nafis mato) so'zini "qamish" deb olishi bunga misol bo'la oladi:

Duzak turar al kumashit, sim-zerit.

Aldash-chun olib chiq qamish, sim-zaring.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda qamishning siymu zar (kumush va oltin) bilan sira ham aloqasi yo'q. Aslida bu misra quyidagicha tarjima qilinishi kerak:

Tuzoq qurar mol-mato, siymu zaring.

Yoki "bug'z" – kek, gina, adovat, dushmanchilik degani bo'lib, Maxtumlulining "Yaman ishdir bug'z bo'lmak er erden", ya'ni "Mardning mardga kek saqlashi yaxshi emas" ma'nosidagi misrasini J. Sharipov "Yomon ishdir bo'g'oz bo'lmoq er'erdan" tarzida mantiqsiz va be'mani tarjima qilgan edi.

Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasida Satimqul kerayaq degan personaj bor. Uni M. Hakimov "kamsuxan Satimqul" deb o'giradi. Zaynab esa "Satimqul tajang" deb tarjima qiladi. Aslida

<sup>1</sup> Karimov M. Turkiy tillarning biridan ikkinchisiga tarjima qilishning ayrim masalalari // Badiiy tarjima – do'stlik quroli (Maqolalar to'plami). – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 15-16-betlar.

<sup>2</sup> Qarang: Isomiddinov Z. "Aldoqchi so'zlar" bilan bahs. 161-163-betlar.

<sup>3</sup> O'sha yerda. 161-bet.

"Satimqul shumqadam" yoki "Satimqul pismi" bo'lishi kerak. Chunki u borgan joyda bir ko'ngilsizlik sodir bo'ladi<sup>1</sup>.

### Qulayliklar va qiyinchiliklar

Yaqin tillardan tarjimadagi eng katta illat tarjimonlarning ko'pincha nafaqat so'zlar, iboralar, satrlar va bandlarni, hatto she'rlarni ham asosan aynan o'tkazib qo'yish yo'lidan borishlaridir. Albatta, turkiy xalqlar birlarini tarjimasiz ham deyarli tushunganlari uchun bu usul ko'p hollarda o'zini oqlaydi: ko'pincha butun-butun she'rlar ayrim so'z va jumlarigina o'zgartirilib, shundoqqina o'zbekchaga ko'chirib qo'ya qolinadi. Albatta, mana bunday o'rinlarda bu o'zini oqlaydi:

Maxtumlul:

*Gan edipdir pelek bagrim pirakda,  
Elmidam gezer men yar diy sorakda,  
Kabe etrapinda, Shamda, Irakda,  
Meni saxipjemalimni gordiyumi?!*

E. Ochilov tarjimasida:

*Qon etibdir falak bag'rim firoqda,  
Har doim kezarman yor deb so'roqda,  
Ka'ba atrofinda, Shomda, Iroqda,  
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?!*

Ko'rinib turibdiki, "Kordiyumi" she'rining mazkur bandidagi barcha so'zlar shundoqqina o'zbekchaga ko'chgan.

Maxtumlul she'rining quyidagi bandi tarjimasida esa juz'iy o'zgartirishlarnigina ko'ramiz:

*Namart koprysinden olsem gechmez men,  
Kerven bolsam, xalal ishden gachmaz men,  
Elinden bir kase sherap ichmez men,  
Sag elim sol ele mataj eyleme!*

Muzaffar Ahmad tarjimasida:

*Karvon bo'lsam, to'g'ri yo'ldan qochmasman,  
Nomard ko'prigidan o'lsam kechmasman,  
Qo'lidan bir kosa sharob ichmasman.*

<sup>1</sup> Karimov M. Tarjimada nomlar ifodasi. 27-bet.

*Sog' qo'lim so'l qo'lga muhtoj aylama.*

Bu yerda tarjimon bor-yo'g'i "halol ishdan" birikmasini "to'g'ri yo'ldan" deb o'zgartirgan hamda birinchi va ikkinchi misralarning o'rnini almashtirgan – natijada ikkinchi va uchinchi misralararo mustahkam bog'liqlik vujudga kelgan. Tarjima amaliyotida bunday o'zgarishlarga yo'l qo'yiladi. Chunki aslyatda nomard ko'prigidan kechmaslik bilan uning qo'lidani sharob ichmaslik mazmunidagi misralar o'rtasiga karvon bo'lsa, to'g'ri yo'ldan qochmaslik to'g'risidagi satr tushib qolganiki, u o'zaro bog'liq ikki fikrni parchalab tashlagan. Bu qo'shiq Himmat Jalilov degan bir baxshi repertuaridan yozib olingan bo'lib, uning matnini balki o'sha buzib aytgandir. Fikr mantig'idan kelib chiqib, tarjimon tarjima jarayonida uni to'g'rilab ketgan.

"Qardosh tillarda bitilgan she'riy asarlarning juda katta qismi shunday xususiyatga egaki, ularning matnidagi so'zlarning qariyb barchasi ikkinchi tilda ham uchraydi va shunga ko'ra tarjima tilida mavjud bo'lmagan ayrim so'zlarni almashtirish yo'li bilan ag'darish orqali adekvatlikka erishish ham mumkin. Biroq, bu "almashtirish" mexanik yumush bo'lmay, aksincha, ko'pgina hollarda mutarjimni san'atkor sifatida saralaydigan og'ir ijodiy izlanishdir"<sup>1</sup>. Binobarin, yaqin tillardan tarjima ham tarjima unsurlaridan xoli emas. Chunki ayrim satrlar, bandlar goh aynan, goh ba'zi so'zlarni almashtirish bilan deyarli o'zgarishsiz ko'chsa-da, tarjima o'quvchisiga tushunarsizligi jihatidan ba'zida misralarni, bandlarni o'zgartirishga to'g'ri keladiki, bu butun bandning tuzilishini o'zgartirish, boshqacha aytganda, she'rni chinakamiga tarjima qilish degani bo'ladi. Bu esa, tabiiyki, ter to'kish, zahmat chekish, ijodiy izlanishni talab etadi<sup>2</sup>. Chunonchi:

*Pana bersen keo'lim jaydi,  
Yad yetermen men qudaydi,  
Tilgim meni udayi,  
Xalqima oziq, pana ber.*

Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Berdaqning "Panoh ber" nomli she'ri birinchi misrasidagi qofiya bo'lib kelgan so'z – "jaydi" (yozildi, ochildi) o'zbek o'quvchisiga tushunarli emas, uchinchi misradagi "udayi" (doim, hamisha) so'zi ham shunday. Binobarin,

<sup>1</sup> O'sha yerda. 173-bet.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978. 74-bet.

ularni aynan qoldirib bo'lmaydi. Demak, boshqa, tushunarli so'zlarni topib, qofiyaga chiqarish kerak. Bu esa bandning qurilishini ham o'zgartirishga olib keladi. Bu ijodiy jarayon bo'lib, tarjima degani bo'ladi. Qiyoslang:

*Madad bersang agar dil shod,  
Xudoyimni etarman yod,  
Tilgim ko'p haddan ziyod,  
Xalqinga o'zing madad ber!*

Ma'lum bo'ladiiki, yaqin tillardan tarjimaga nisbatan ham tabdil emas, tarjima terminini qo'llagan maqsadga muvofiq. Chunki bu jarayonda tabdil va tarjima o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Sababi, yaqin tillardan tarjimada ham tarjimon munosib so'z tanlaydi, o'quvchiga tushunarli qofiya izlaydi, misra va bandlarni qaytadan tuzadiki, bu jarayon ijodiy izlanishni taqozo etadi. Ana shu izlanish jarayonida mutarjim mahorat ko'rsatadiki, bu endi san'at bo'ladi. Shunday ekan, yaqin tillardan tarjimini ham kamsitmasligimiz, uni ham ijodiy ish, san'at deb hisoblashimiz kerak.

Qardosh tillardan tarjimada tarjimonlarimiz ko'pincha ana shu oddiy haqiqatni tushunib yetmaydilar yoki istamaydilar, balki buni ortiqcha, keraksiz ish deb hisoblaydilar. Holbuki, mana bunday "tarjima" qilib, har bir tushunarsiz so'zga matn ostiga izoh bergandan ko'ra, aslyatning o'zini zarur sharhu izohlar bilan nashr etgan yaxshi emasmi?

Maxtunquli:

*Bir tort atli geldi, bari sebzebaz,  
Asalari yashil, ati teblebaz...*

Mirzo Kenjabek tarjimasi:

*To'rtta otliq keldi, bari sabzaboz,  
Asolari yashil, oti tablaboz...*

Ko'rinib turganidek, bu yerda bor-yo'g'i ikkitagina so'z o'zbek o'quvchisiga tushunarsiz bo'lib, tarjimon esa o'shalarni ham tarjima qilish o'rniga aynan qoldirib, matn ostida izoh bergan: sabzaboz – yashil kiyimli, tablaboz – o'ynoqi.



Yoki Maxtumlul qalamiga mansub quyidagi misralarni tarjima deb bo'larmikan:

*Go'yo murg'i sahardur, shab suxan aylar og'oz.*

\*\*\*

*Go'sh berdi, dahan berdi,  
Dahanga zabon berdi.*

\*\*\*

*Men yorning sarniguni,  
Bog'labon bu oyinni,  
To'kdi jigardan xunni...*

\*\*\*

*Hazor pesho, sad savdo.*

\*\*\*

*Bir hashri qiyomatdir, bir yavmi arosatdir.*

\*\*\*

*Zebu zanaxdonli g'uncha dahanlar.*

(M. Kenjabek tarjimalari)

Bu tarjimami yoki ko'chirmakashlik?

"Agar yaqin tillardan tarjima – matnda mavjud barcha **tanish** so'zlarni o'z tilimizga o'tkazib, **notanish** so'zlarni satr ostida "izohlash"dan iborat bo'lsa, o'z-o'zidan, tarjimaning bu turi nuqul nusxa ko'chirishdan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqadi. Basharti, chindan ham shunday bo'lsa, yaqin tillardan tarjima qilib o'tirishga hech qanday zarurat qolmaydi, desa ham bo'ladi.

Aslida esa, bunday emas. Qardosh tillar bilan ish ko'rganda ham, qardosh bo'lmagan tillarga murojaat etganda ham tarjimaning qoidasi bitta: asl nusxani boshqa tilga o'tkazib – qayta yaratish"<sup>1</sup>.

Tarjimonning mahorati aynan uning kerakli so'zni topib qo'llashida namoyon bo'ladi. Buning uchun nozik did, o'tkir farosat talab qilinadi. Topib qo'llangan birgina so'z tarjimaning husnini ochib yuborsa, o'ylanmay qo'llangan, o'z o'rniga tushmagan so'z, aksincha,

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 73-bet.

ma'noni buzadi, mavhumlik keltirib chiqaradi, matnga yopishmay turgan so'zlar tab'ni ham xira qiladi. Chunonchi, Maxtumlulning "Yerda xoshvaqt yatar posti atamin" misrasini A. Jumayev va J. Zulpiyevlar "Yerda xushvaqt yotar po'sti otamning" deb tarjima qilishadi. Bu juda qo'pol bo'lib, uni "Yerda mamnun yotar jismi otamning" deb tarjima qilish mumkin edi. Chunki "po'st" jonning qolipi, qobig'i ma'nosida kelayotgani uchun bemalol shunday deb o'girish mumkin. Ular "Yazdirmagil, məkəm eyle gushagin" misrasini esa, negadir, "Or-nomusda ori saqla to'shaging" deb tarjima qilishadi. Holbuki, misraning ma'nosi: "Bo'shatma, belbog'ingni mahkam tut" bo'lishi kerak. "Gushak" – "to'shak" emas, belbog', kamar degani.

Milliy xususiyatlar, turmush tarzi bilan bog'liq tafovutlar ham mavjud. Masalan, o'zbeklarda qizlarni *ohuga* o'xshatsalar, turkmanlarda *bo'z qo'chqorga* mengzaydilar. Bunday hollarda ularni an'anaviy obraz-timsollar bilan almashtirishga to'g'ri keladi. Misol uchun, "Ovozingdan" nomli she'rdan bir parcha keltiraylik:

*Bu ashrat chog' ichinde,  
Boz gach kabi tog' ichinde,  
Andalibsan bog' ichinde,  
Soz ochmayin ovozingdan.*

Tarjimasi:

Bu ayshu ishrat kechinda,  
Bo'z qo'chqorday tog' ichinda,  
Bir bulbulan bog' ichinda,  
So'z ochmayin ovozingdan<sup>1</sup>.

Bu yerda "Bo'z qo'chqorday tog' ichinda" misrasini "Misli ohu tog' ichinda" deb o'zgartirilsa, ayni muddao bo'lar edi. Hozirgi holida esa mazmun mavhumlashgan, chunki "bo'z qo'chqor" deganda bizda bo'y yetgan, go'zal qizlar tushunilmaydi. Yoki o'zbek tilida chiroyli qora ko'z charosga, ohuning ko'ziga o'xshatilsa, qirg'iz va qozoqlarda bo'tako'zga, qorag'atga qiyoslanadi. N. Fozilov G'abit Musrepovning "Dog'da qoldirib ketgan qiz" qissasi tarjimasida qorag'atday ko'zni "zulukdek ko'zlari" deb o'giradiki, zulukning ijobiy ma'nosi yo'q.

Ma'lumki, tillarda qavm-qarindoshlikning turli darajalari va xillari ham farqlanadi. Ayni terminlar tarjimasida ham tarjimonlarimiz

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 45-bet.

ko'plab xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Jumladan, Fattoh Abdullayev taniqli turkman adibi Berdi Kerboboyevning "Dadil qadam" romani tarjimasida "dayi" – "tog'a"ni "xola" deb xato talqin qilsa, Mamarasul Boboyev tatar shoiri Musa Jalil she'rlari tarjimasida "aga" – "aka"ni "opa" deb xatoga yo'l qo'yadi. Ch. Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasi tarjimasida M. Hakimov "jeue" – "yanga" so'zini goh "xola", goh "opa" deb beradi. Yoki qozoq tilida "aziz" so'zini qisqartirib, "az" deyishadi. Bundan bexabar tarjimon "az og'a" – "aziz og'a"ni "noyob og'a" deb tarjima qiladi.

### Imlo va tarjima

Yaqin tillardan tarjimadagi eng katta va jiddiy nuqson bu tarjimonlarning til bilmaligi, so'zlarning imlosidan bexabarligi. Aytaylik, "ko'z" so'zi turkman tilida "göz" shaklida yoziladi. "Köz" esa "ko'mir, cho'g', qo'r" demakdir. Tarjimonlar esa uni "ko'z" deb o'girib ketaveradilar. Jumladan, J. Sharipov "Xer yprekde ishkdan köz xem bolmasa" misrasini "Har yurakda ishqdan ko'z ham bo'lmasa" deb tarjima qiladi. Holbuki, "Har yurakda ishqdan cho'g' ham bo'lmasa" deb o'zbekchalashtirsa, asliyatga muvofiq bo'lar edi.

Turkman tilida "o'y" so'zi "oy", "uy" so'zi – "öy" shaklida yoziladi. Tarjimonlarimiz ba'zida mazkur so'zlarni ham farqlamaydilar. Chunonchi, "Birev yatir, öyden jera tartmayin" misrasini M. Kenjabek "Birov yotar o'ydan jafö tørtmayin" deb tarjima qiladi – bunda "uyda yotish" "o'y surib yotishga" aylangan.

Qoraqalpoq tilida "jaraq" – "yaroq" degani. Chiroq – "shiraq" shaklida yoziladi. Mirtemir esa Berdaqning "Jaraq tauip izlar edim" misrasini "Chiroq yoqib izlar edim" deb tarjima qiladi. Yoki o'tovning yog'ochlaridan biri bo'lgan "uo'iq"ni "yovuq" – "yaqin" deb o'zbekchalashtiradi. Bu tilda "tyr" so'zi 1) ko'rinish, xarakter, shakl, obraz, xil, nav; 2) yuz, qiyofa, tashqi ko'rinish; 3) rang, bo'yoq ma'nolarini bildiradi<sup>1</sup>. Berdaq tarjimonlari esa uni ko'pincha "to'r" deb tarjima qilib ketaveradilar. Masalan: "Zaman tyrin bayan yetsem" – "Zamon to'rin bayon etsam". Holbuki, bu yerda u "zamon tavrı", "zamon holi" ma'nosida kelayпти.

<sup>1</sup> Каракалпакско-русский словарь. – Москва, 1958. – С. 750.

Bundan ma'lum bo'ladiki, yaqin tillardan tarjimada ko'plab xatolarga yo'l qo'ymagan tarjimonning o'zi yo'q ekan.

### Arxaik so'zlar va tarjima

Ko'pincha tarjimonlar mas'uliyatsizlik yoki beparvolik tufayli oddiy vaziyatlarda ham xatolarga yo'l qo'yadilar. Aytaylik, M. Ahmad Maxtumqulining "Nichele bar – xayir islar, shar tapar" misrasini "Nechalar bor, xayr qozonar, dur topar" deb tarjima qiladi. Aslida "Nechalar bor, xayr istab, shar topar" tarzida o'girilishi kerak. Ya'ni: "Ba'zilar yaxshilikni istaydi-yu, lekin yomonlik topadi". "Dunya bir koxne rabat, ilni kervan eyledi" misrasining mazmuni "Dunyoni bir ko'hna karvonsaroyu xalqni bir karvon qildi" bo'lib, "Dunyoni bir ko'hna rabot, eski karvon ayladi", tarzida qilingan tarjimada bu ma'no chiqmagan: karvonsaroy ham, karvon ham – har ikkalasi ham dunyo bo'lib qolgan. "Bir yumush buyranda yzyzni asar" satrini esa "Bir yumush buyursang, yuzini osar" deb o'giradi. O'zbek tilida "yuzini osar" degan ibora yo'q, uni "yuzini tirishtirar", "aftini burishtirar" deb berish kerak edi. Yoki "ruh" so'zining jon ma'nosi ham borligi ma'lum. Binobarin, "sdaqai ruhing bo'lay" jumlasini "sdaqai joning bo'lay" deb o'girish maqsadga muvofiq. Shuningdek, "zarrin hisor" iborasini "oltin qasr" deb tushunarli shaklda berish mumkin.

Barcha tarjimonlar uchun xos yana bir kamchilik tarixiy-arxaik so'zlarni yo' o'z ma'nosida, yo' buzib ishlatishdan iborat. Masalan, "mehnat" so'zi mumtoz adabiyotda 1) ranj, mashaqqat, azob; 2) bala, musibat; 3) g'am, qayg'u ma'nolarida kelib, u hozirgi "ish" mazmunini bermaydi. Binobarin, J. Jabborovning Maxtumquli she'rlari tarjimasida har gal bu so'zni aynan qoldirishi shoir fikrining noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'lgan. Masalan:

Birovga beribdir qayg'u-g'am, mehnat...

Qayg'u, mehnat bilan chiqadi joni...

Ko'rinib turibdiki, har ikki o'rinda ham g'am va qayg'uga ma'nodosh so'z qo'llanishi kerak. Bugungi kitobxon "mehnat" so'zini faqat "ish" ma'nosida tushunadi. M. Ahmad tarjimalarida ham bu holni ko'ramiz ("Pes xotin boshga mehnatdir").

“Sarrishta” soʻzi ipning, kalavanning uchi, majozan esa biror ishning asosi maʼnosini bildirib, negadir, M.Ahmad uni har gal “sarrishta” (batartib) maʼnosida qoʻllaydi.

“Saranjomlik” soʻzi biror ishni bajarish, oxiriga yetkazish, ishning oqibati, natijasini anglatadi. “Kamil bolup, seranjamlilik kiltip men” misrasini bu oʻrinda kontekstdan kelib chiqib, “Tahsilni nihoyasiga yetkazib, kamolotga yetibman” tarzida tarjima qilish kerak edi. “Kamil boʻlib, saranjomlik qilibman” (M.Ahmad) yoki “Kamol topib, saranjomlik qilibman” (M.Kenjabeq) misralari bu maʼnoni bermaydi.

“Eʼtibor” soʻzi hozir obroʻ, qadr-qimmat maʼnosida tushuniladi. Holbuki, mumtoz sheʼriyatda u koʻpincha ishonch, eʼtimod maʼnosida keladi. Shunday ekan, “Omre igtibar yok, nege yatip sen?” misrasini “Umrga eʼtibor yoʻq, nega yotibsan?” (M.Ahmad) tarzida emas, balki umrga eʼtimod yoʻq, nega yotibsan?” deb tarjima qilgan maqsadga muvofiq.

Shu tariqa, yaqin tillardan tarjimalarni oʻrganish orqali soʻzma-soʻz tarjima chegarasi, jumla qurilishi, qofiya va radiflarni aynan saqlab qolish, tushunarsiz soʻzlarga izoh berish meʼyori, “aldoqchi soʻzlar”ning koʻrinishlari kabi koʻplab masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Maʼlum boʻladiki, yaqin tillardan tarjimoni tizimli ravishda yoʻlga qoʻyish, uning saviyasini koʻtarish, bu yoʻlda sodir boʻlayotgan har turli oʻzboshimchaliklarni bartaraf etish, yigʻilib qolgan muammolarni yechish va kelgusi rivojini taʼminlash uchun quyidagi dolzarb masalalarni kechiktirmay hal etish taqozo qilinadi:

1. Ozarbayjon, turkman, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, tatar, boshqird kabi qardosh turkiy tillarni imkon darajasida qisqa kurslar doirasida boʻlsa ham oʻqitish-oʻrgatishni yoʻlga qoʻyish, bu tillardan tarjima qiladigan tarjimonlar va ular boʻyicha tadqiqotlar olib boradigan mutaxassislar tarbiyalab yetishtirishni yoʻlga qoʻyish kerak (Masalan, Turkiyada hatto xakas, chuvash kabi kam sonli turkiy xalqlar tillarini oʻrganish ham izchil yoʻlga qoʻyilgan – boshqa turkiy xalqlar ham bundan ibrat olishi kerak). Shundagina yaqin tillardan tarjimada yoʻl qoʻyilayotgan koʻpdan-koʻp xato-kamchiliklarning oldini olish mumkin boʻladi va bu sohaga tasodifiy kishilarning kirib kelishiga chek qoʻyiladi.

2. Qardosh tillar boʻyicha ikki tili va frazeologik lugʻatlar, darslik va qoʻllanmalar yaratish ishini yoʻlga qoʻyish kerak (Mustaqillik yillarida maxsus oʻqitish yoʻlga qoʻyilgani uchun hozirgacha birgina turk tili boʻyicha mazkur ishlar bir qadar amalga oshirildi,

lekin ular ham yetarli darajada emas). Oʻshanda Mirtemir, Mirzakalon Ismoiliy, Jumaniyoz Sharipov, Miad Hakimov, Nosir Fozilov, Mama-rasul Boboyev kabi zabardast tarjimonlarimiz ham oʻz tarjimalarida muayyan xatolarga yoʻl qoʻymasmidilar. Shunday lugʻatlarning yoʻqligi tufayli yaqin tillardan tarjimada xato-nuqsonlar oqimi kamaymayapti, bilʼaks yangi avlod tarjimonlar tarjimalarida ular tobora koʻpayib borayapti. Bunga, albatta, qardosh xalqlar bilan ilmiy-adabiy aloqalarning ancha uzilib qolganligi ham oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda.

3. Yaqin tillardan tarjimaning qonun-qoidalari, prinsip va usullari mavjud tarjimalar tahlili asosida keng nazariy planda ishlab chiqilib, tarjima amaliyotiga tatbiq etilishi, tarjimonlar ular bilan qurollantirilishi, bu borada ularga zarur tavsiyalar berilishi kerak. Ayni paytda, yaqin tillardan tarjima boʻyicha tadqiqotlar doirasini kengaytirish, adadini koʻpaytirish, ilmiy-nazariy jihatini kuchaytirish, bu borada amalga oshirilayotgan tarjimalarni kuzatib, baholab borish, ularni muntazam ravishda muhokamadan oʻtkazish, taqriz qilish ishlarini keng yoʻlga qoʻyish, sodir etilayotgan xato-kamchiliklarni koʻrsatib, ularni bartaraf etish boʻyicha yoʻl-yoʻriqlar berish, lozim topilsa, hatto sohani nazoratga olib, tarjimonlarni yoʻnaltirib turish (Aytaylik, nimalarni tarjima qilish va nimalarni tarjima qilmaslik haqida maslahatlar berish – oʻshanda adabiyotimizni boyitmaydigan, maʼnaviyatimizni yuksaltirmaydigan toʻgʻri kelgan, saviyasi past asarlarni tarjima qilishning oldi olingan boʻlar edi) joiz.

4. Yaqin tillardan tarjimaga boʻlgan masʼuliyatni oshirish, bu sohaga nisbatan qarashlarni tubdan oʻzgartirish, uning ham shunchaki tabdil, bir tildan ikkinchisiga oddiygina uygʻunlashtirish emas, balki toʻlaqonli ijodiy jarayon, mashaqqatli mehnat, binobarin, sanʼat ekanligini isbotlash va avvalo ilmiy-adabiy jamoatchilikni bunga ishon-tirish kerak.

#### *Tayanch soʻz va iboralar:*

Yaqin tillardan tarjima, soxta ekvivalent, aldoqchi soʻzlar, tillararo amonimlar, tillararo paronimlar, tushmol ekvivalentlar.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Uzoq va yaqin tillardan tarjima deganda nimani tushunasiz?
2. Yaqin tillardan tarjimaning qulayliklari nimada-yu, qiyinchiliklari nimada?

3. *Yaqin tillardan tarjimada sodir bo'ladigan xatolarning sabablarini ko'rsating.*

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

1. Yaqin tillardan tarjimaga ixtisoslashgan mutarjimlar haqida ma'lumot to'plang.
2. Yaqin tillardan tarjimada yo'l qo'yilgan xatolarga mavjud tarjima asarlaridan misollar toping.

#### **Adabiyotlar:**

1. *Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: «O'qituvchi», 1978.*
2. *Tarjima nazariyasi masalalari. ToshDU ilmiy ishlar to'plami, №606. – Toshkent, 1979.*
3. *«Tarjima san'ati», «Tarjima muammolari», «Маҷмӯаи наърифаи тарҷума», «Тарафҳои наърифаи тарҷума» to'plamlari.*

### **SAKKIZINCHI MAVZU: TARJIMA VA MILLIY KOLORIT**

#### **Dars rejası:**

1. *Tarixiy, milliy va mahalliy kolorit tushunchasi.*
2. *Realialar – milliy xos so'zlar haqida.*
3. *Realialarni tarjima qilishning uch usuli.*
4. *Milliy koloritning tarkibiy qismlari.*

#### **Milliy kolorit va realialar**

**Kolorit** – lotincha kolor, italyancha kolorito so'zidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq, manzara ma'nosini bildiradi.

Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi.

Adabiyotda esa badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi ko'zda tutiladi.

Kolorit biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuini bildiradi.

Ma'lumki, tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarning umumiyliigi asosida vujudga kelgan kishilar guruhiga millat deyiladi.

**Milliylik** u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir.

Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar.

Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda **milliy kolorit** deyiladi.

Adabiyotshunoslikda yana **mahalliy kolorit** degan tushuncha ham mavjud. **Mahalliy kolorit** – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish<sup>1</sup>.

Ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar **realialar**, boshqacha aytganda, **milliy xos so'zlar** deyiladi. **Realia** lotincha so'z bo'lib, buyumga, narsaga oid degan ma'noni bildiradi.

“Realialar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi”<sup>2</sup>. Shuning uchun ham realialar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimaning murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalg'itadigan jihatlarni tashkil etadi.

“Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent, 1983. 192-bet.

<sup>2</sup> Hamroyev H. Milliy xos so'zlar – realialar va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 1982. 158-bet.

<sup>3</sup> Fayzullayeva R. Yo'llar yiroq, ko'ngillar yaqin // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 1973. 257-bet.

"Milliy o'ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dafa, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi"<sup>1</sup>.

### Milliylik va tarjima

Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash – badiiy tarjimaning muhim nuammolaridan biri hisoblanadi. Milliy o'ziga xoslikni boshqa til vositalari bilan berish sohasida katta tajribalar to'plangan. Biroq bu sohaning prinsip va mezonlari ishlab chiqilgani yo'q.

Adabiyotning milliy xarakterga egaligi harakatdagi obrazlarning xarakterida, jumladan qiliqlari, yumor xususiyatlarida, fikrlash va intilish tarzida namoyon bo'ladi.

Har qanday kishi biror millat vakili sifatida ma'lum xarakterga va o'ziga xosa psixologik bilimlarga ega. Badiiy obrazning milliy xarakteri – uning nutqi, muhitga munosabati, surati, siyrati, his-tuyg'ulari va boshqalarda ko'rinadi.

Milliy xarakter ma'lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining in'ikosi hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini o'sha millatning hayotini, milliy tarixini, o'ziga xosligini, milliy, madaniy va adabiy an'analarini o'rganish orqali to'g'ri tushunish mumkin.

Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy, adabiy sharoitlarini o'rganishdir. Undan keyingi bosqich xarakterning asosiy belgilarini, uning mazmunini belgilash. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo'lgan aslyat tilining vositalarini va uslubiy yo'llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli vositalarini axtarib topish.

Adabiy asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzida, turmush sharoitida, kiyimida, urf-odatlarida, ko'cha, shahar, san'at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalarda namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. 101-bet.

Bularning yig'indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi aslyatda nutq vositalari orqali bayon etilgan bo'ladi. Ularning to'g'ri tarjimasida juda muhimdir.

Har bir tilda psixikaning milliy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan obrazli ifodalar mavjud<sup>1</sup>.

Masalan, o'zbek tilida qora ko'z, qo'y ko'z, quralay ko'z, ohu ko'z va boshqalar go'zallik alomati sifatida qo'llaniladi. Qadimgi yunonlarda go'zal, shahlo ko'z ho'kizning ko'ziga o'xshatilgan. Qirg'iz va qozoqlarda bo'tako'z chiroyli ko'zning sifati bo'lib keladi. Hindistonda sigir – nafosat, go'zallik, saxovat va ona mehrining timsoli bo'lganligi sababli go'zal mahbuba sigirga nisbat beriladi. Ko'p xalqlarda arslon yirtqichlik, shafqatsizlik ramzi bo'lsa, bizda dovyurak kishilarni arslonga o'xshatadilar. Masalan, Qirol Lirning shafqatsiz qizlari arslonlarga o'xshatiladi. Bizda arslon ijobiy ma'noga ega bo'lganligi uchun ham tarjimada G'afur G'ulom bu so'z oldidan "urg'ochi" sifatini qo'shadi:

Nima qilib qo'ydingiz, yo urg'ochi arslonlarmisiz?

Nemislarda esa cho'chqa omad va baxt timsoli ekan. O'zbeklarda yo'lpashsha – mehmon darakchisi.

Ana shunday tabiiy, ijtimoiy, tarixiy sabablar taqozosi bilan tug'ilgan hamda har bir xalqning o'ziga xos ruhiy hayotini aks ettiruvchi (ko'pincha xos so'zlar bilan ifodalangan) tasavvur va tushunchalarni bir tildan boshqa tilga o'tkazish tarjimondan nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Masalan, hind eposi "Panchatantra" tarjimasida delfin – toshbaqaga aylangan. Hindlarning dafn marosimi bilan bog'liq o'rinlar, islom diniga yot lavhalar qisqartirilgan.

Xalqlarda qavm-qarindoshlikning turli darajalari va xillarini farqlashda tafovutlar bor: aka-uka, opa-singil, amma-xola, tog'a-amaki va hokazo.

"Venger tilida "aka" va "opa" so'zlari yo'q. Biroq aka va opalarning har biri uchun alohida so'zlar mavjud. Malaya tilida "aka" "opa" so'zlarini ifodalovchi birgina "sudara" mavjud. Braziliyadagi hinduslar tilida to'tiqushning turlari juda ko'p so'zlar bilan ifodalanadi. Biroq "to'tiqush" so'zining o'zi yo'q. Bu so'z to'tiqush

<sup>1</sup> Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun G' Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari" kitobiga qarang (Toshkent, 1983).



umuman bo'lmagan mamlakatlar tillarida ishlatiladi. Sahroi Kabirdagi tillarda palma daraxtining oltmishga yaqin turlaridan har birining nomini ifodalovchi so'z bor. Biroq "qor" so'zi yo'q. Neneslar tilida esa buning aksi – qorning turlarini ifodalovchi qirqaqa yaqin so'z mavjud, lekin "palma" so'zi yo'q. Chunki neneslar qattiq sovuq bo'lib, qor qalin yog'adigan Sharqiy Sibirda yashashadi. U yerda palma daraxti o'smaydi. Sahroyi Kabir jazirama issiq bo'ladi, u yerdagilar qishni, hatto qorning nimaligini ham bilishmaydi<sup>1</sup>.

"G'arbiy Avstraliyadagi qabilalardan birining tilida qo'lning mushak qismini, o'ng va chap qo'lni ifodalovchi so'zlar mavjud, biroq "qo'l" ma'nosiga to'g'ri keluvchi so'zning o'zi yo'q"<sup>2</sup>.

"G'arbiy Arizonada yashovchi mohave tilida so'zlashuvchilarda "ayol kishining otasi" bilan "erkak kishining otasi" farqlanadi, binobarin, ularda har ikkala jinsning "otasi"ni anglatadigan boshqa-boshqa so'zlar mavjud"<sup>3</sup>.

"Sudan va Janubiy Saxarada esa tuareg atalmish kichik bir xalq yashaydiki, ularda erkaklar yuzlarini yashirib yuradilar"<sup>4</sup>.

1-aprel: Amerikada – ahmoqlar kuni, Shotlandiyada – kakku kuni, Fransiyada – baliq kuni, Yaponiyada – qo'g'irchoq kuni, Ispaniyada – laqmalar kuni deb aytiladi<sup>5</sup>.

Yevropada aza rangi – qora, Xitoyda – oq.

Milliy xos so'zlar tarjimasida eng qiyini tarjima tilida bo'lmagan, tarjima o'quvchisiga begona hisoblangan so'z, tushuncha, narsa-hodisa to'g'risida tasavvur hosil qilishdir. Aytaylik, yer yuzi aholisining yarmidan ko'pi yostiqqan foydalanmas ekan. Endi tasavvur qilavering: bir yostiqqa bosh qo'ymoq, boshi yostiqqa yetmoq kabi iboralarni ularga qanday tushuntirasiz? Yoki sayyoramiz xalqining yarmi umrida qor ko'rmagan. Sahroi Kabirda faqat bir marta – 1979-yilning 18-fevralida qor yoqqan. Demak, ularda qor haqida tasavvur hosil qilish qiyin. Bu jihatdan rus shoiri Robert Rojdestvenskiyning "Singapur shoiri Go-Bo-Senning yetti yashar o'g'li Hasan bilan qor haqida suhbat" she'ri diqqatga sazovor. She'rning mazmuni shunday:

<sup>1</sup> Abduazizov A. Tillar olamiga sayohat. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1988. 29-30-betlar.

<sup>2</sup> O'sha yerda. 21-bet.

<sup>3</sup> O'sha yerda. 53-bet.

<sup>4</sup> O'sha yerda. 56-bet.

<sup>5</sup> O'sha yerda.

Dengiz sayridan zerikkan Hasan tabiat mo'jizalarini surishtir-surishtira, ittifoqo mendan qorni so'rab qoldi.

– Qor nimaligini aytib bering-chi.

Men qanchalik tasvirlab bermayin, bundan hech narsa chiqmadi.

– Qanaqasi? Bu – muzqaymoqqa o'xshaydimi bo'lmasa?

– Bir hisobda, shunday desa ham bo'ladi, – javob berdim men.

– Yo'g'-e?! – og'zining tanobi qochdi bolaning.

– Xuddi shunday, – gapni ilib ketdim men. – O'zing o'ylab ko'r: xoh ishon, xoh ishonma: bizda, Moskvada qish faslida hammayoqni muzqaymoq bosib ketadi – ko'cha-ko'ylarda, o'tlarning ustida, daraxtlarning uchida, tomlarda, odamlarning hovlilari, dalalarda – muzqaymoq. U barchaga baravar: o'g'il-qizlar hayvonot bog'idagi jonivorlargacha teppa-teng taqsimlanadi. Uning otini bizda "qor" deyilar. Butun davlat unga mushtoq. Osmondan muzqaymoq yog'averadi-yog'averadi, og'ayni. Xuddi ertaklardagiday, yengilgina sirli tovush taratib, ajib nash'u namo bilan shivirlab yog'adi. Yo'lovchi odamlarning ust-boshlariga qo'nadi...

– Shirinmi o'zi? – toqat qilolmay so'raydi bola.

– Shirin bo'lganday qanday! Shunday mazaki, asti qo'yaver!

Suhbatdoshim damini ichiga yutganicha, tamshanib, uzoq-uzoqlarga tikiladi, shirin xayollar og'ushiga cho'madi. Tin olmasdan:

– Zap baxtli ekansizlar-ku! – deydi havas bilan boqib.

– Ba'zan, – deyman men uning fikrini ma'qullab<sup>1</sup>.

Nil daryosi tarixda ikki marta – IX va XI asrlarda muzlagan. O'z-o'zidan, muz bilan bog'liq iboralar tarjimasida bu tilda qiyinchilik tug'diradi.

Misrda chaqmoq chaqish holati ikki yuz yilda bir marta kuzatishlar ekan. Bu tilga yashin tezligida, chaqmoqday yigit, chaqmoq qand kabi iboralar, yoki Mirtemirning:

Ko'zim ko'zingga tushdi,

Chaqmoq chaqqanday bo'ldi, –

qabilidagi she'rlarini muayyan sharhu izohsiz tarjima qilib bo'lmaydi.

Quyidagi oddiy hayotiy bir hangoma ham ayni jihatdan diqqatga sazovor.

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 79-bet.

Bir o'zbek Qrimda dam olganida bir rus bilan qardoni bo'lib qoladi va qishlog'iga qaytgach, unga bir kilo sho'rdanak bilan kattagina novvot bo'lagini sovg'a qilib jo'natadi. Oradan yillar o'tib yana dam olishga borganida o'sha qardoni uni uyiga chorlab, mehmon qiladi va yuborgan sovg'asi uchun minnatdorchilik bildiradi:

– Rahmat, do'stim. Sovg'alaringni oldim. Faqat yuborgan danaging yo'lda aynib, ochilib qolibdi. Shuning uchu uni tashlab yuborishga to'g'ri keldi. Lekin suveniring, mana, shkaf ustida turibdi.

Ma'lum bo'ladiki, u sho'rdanak nimaligini bilmaydi. Novvotni esa sharqona ekzotika deb o'ylagan.

Sharq she'riyati boshdan-oyoq gul va bulbul, bog'u bahor tasviridan iborat. Bu she'rlarni shimoldagi bahor bo'lmaydigan xalqlar tiliga tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. Yoki O'zbekistonda kuz – yorug', quyosh, hosildorlik ramzi, Rossiyada – rutubat, yong'irlar mavsumi.

Turli xalqlarning moddiy va ma'naviy hayotida o'ziga xos maxsus tushunchalar ko'p uchraydi:

– nemis Frakrini o'zbek tilida nima deb berish kerak?

– o'zbek paranjisini nemis tilida qanday tushuntirsa bo'ladi?

Shuningdek, o'zbek qishlog'i, ukrain xutori, qozoq ovuli, qirg'iz aili har biri o'ziga xos milliy-hududiy xususiyatga ega bo'lgan aholi va xo'jalik birliklaridir. Demak, umumiy til vositalaridan tashqari, har bir ijodkorning o'ziga xos individual uslubidan kelib chiqadigan milliylikni aniqlash va buni tarjimada qanday aks ettirish yo'llarini izlab topish murakkab ish.

“Mehrobdan chayon” romani tarjimasida “tahsil” – “высшее образование”, “mudarris” – “ректор”, “mullavachcha” – “студент” deb o'girilganki, bu tarixiy-milliy koloritga to'g'ri kelmaydi. Yoki Ra'nonning ukasi opasidan achchiqlanganda uni “Mullatani xotini” deb qochadi. Bu iboraning “Жена ученого брата” deb olinishi o'zini oqlamaydi, chunki u yosh bola tilidan aytilayapti. Yoki ruscha tarjimada Nigorxonim Solih Maxdunga “erxon”, “erginam” (“муженек”) deb murojaat qiladiki, bu o'zbek xalqining tabiatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> A'zamov Q. “Mehrobdan chayon”ning ikki tarjimasi // Tarjima muammolari (Maqolalar to'plami). Uch kitobdan iborat. 2-kitob. – Toshkent-Samarqand, 1991. 154-bet.

Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romani nemis tiliga ruschadan tarjima qilingan. “Sovut”ni – “колчуга”, “dubulg'a” ni – “шлем”, “xanjar” ni – “кинжал” tarzida asliga mos berganlari holda, “supa” – “скамейка”, “yo'lak” – “туннель”, “chilim” – “трубка”, “kuloh” – “шапка”ga aylanib ketgan. Endi XV asrda darveshning boshiga shapka kiyib, og'ziga trubka qo'ndirib olganini o'zingiz tasavvur qilib olavering!

M.Javbo'riyev yana bir nozik o'lehov birligiga e'tiborni qaratadi. Asarda quduqning chuqurligi nari borsa, o'n-o'n besh gaz deb ko'rsatiladi. Bir gaz – 0,71 m.ga tengligini hisobga olsak, asl nusxada tilga olingan quduqning chuqurligi 7-10 m. ekanligi ma'lum bo'ladi. Ruscha va nemischa tarjimalarda gaz o'lehov birligi sajen o'lehov birligi bilan berilgan. Bir sajen uch gazga teng ekan. Demak, quduq chuqurligi ham uch barobarga oshib ketadi – 30 m.ga borib qoladi<sup>1</sup>.

Masalan, Sharq hayoti tasvirlangan asarda “katorga” so'zining uchrashi...

Yoki cho'qintirish marosimini beshik to'yi deb tarjima qilish mumkinmi?

Bobur “Boburnoma”da Hindiston podshohlaridan Sulton Muzaffar haqida gapirar ekan, jumladan “doim Mushaf kitobat qilur erdi” deydi. Asarni ingliz tiliga o'giran V.Erskin uni “doim Qur'on yozardi” deb beradi. Hofbuki, “kitobat qilish” – “ko'chirib yozish” degani.

S.E.Palastrov o'zbek xalq ertaklarini tarjima qiladi. “Uch og'ayni botirlar”:

“To'ng'ichi – yigirma bir yoshda, o'rtanchasi – o'n sakkiz yoshda, kenjasi – o'n olti”.

Tarjimasi: “Старшему – Тунгич-батыру был двадцать один год, среднему – Уртанча-батыру – восемнадцать лет, а младшему – Кенджа-батыру – шестнадцать”.

“O'zbekchadan ruschaga o'girmalarda rus tarjimonlari o'zbek tilidagi “siz” (“вы”) olmoshini ko'pincha “ты” qabilida beradilar. Ma'lumki, o'zbekdarda kattalarga “siz” deb murojaat qilinadi. Nazarimizda, bu o'ziga xoslikni ham saqlash kerak”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Javbo'riyev M. Tarjimada tarixiy davr koloriti // Tarjima muammolari. 2-kitob. 120-bet.

<sup>2</sup> Soipova M. Tarjimada milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish // Tarjima muammolari. 2-kitob. 72-bet.

Pirimqul Qodirovning "Olmos kamar" romani tarjimasida "kosa" – "глубокая тарелка" deb ruschaga o'giriladi.

O'lmas Umarbekovning "Damir Usmonovning ikki bahori" qissasi tarjimasida "moshkichiri" – "рысовая кама" deb berilgan.

"Tarixiy asarlardagi milliy o'ziga xosliklarni va davr koloritini tarjimada qayta yaratishni quyidagi asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin:

a) qahramonlarni o'rab turgan ijtimoiy va moddiy muhit, predmetlar dunyosi, turmush tarzining o'ziga xosligini o'ziga til kitobxoniga to'la anglatish orqali;

b) urf-odat, udumlar, marosimlar, e'tiqod, axloqiy aqidalarni qayta yaratish bilan;

c) asar qahramonlarining psixologiyasi, xatti-harakati, dunyoqarashi, nutqi, portreti, "narsalarni tushunish tarzi"ni to'la gavdalanitirish orqali;

d) tasvirlangan voqealar, hodisalar, xarakterlarda aks etgan, ularga singib ketgan davr koloritini to'la saqlab qolish orqali". (G. Salomov).

### Xos so'zlarni tarjima qilishning uch usuli

Xos so'zlar tarjimasida asosan quyidagi uch usul qo'llanadi:

1. **Transliteratsiya** – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko'rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so'zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash. Masalan: джигит, султан, кичмак, каса, титана. Oybekning "Navoiy" romani ruscha va fransuzcha tarjimasida "devon", "parvonachi" kabi terminlar transliteratsiya qilib berilgan.

Albatta, transliteratsiyadan keyin ko'pincha matn ostida izoh beriladi. Masalan, Parda Tursun fransuz adibi Emil Zolyaning "Tegirmon qamali" povesti tarjimasida frank, mer kabi tushunchalarni aynan qoldirib, matn ostida ularga izoh beradi: F r a n k – "O'tgan asrdagi fransuz pul birligi, bir frank ruslarning 37 tiyinigiga teng bo'lgan". M e r – "Qishloq yoki shaharni boshqaruvchi qilib saylangan kishi, ayni vaqtda, hukumat chinovnigi ham bo'lgan". Mopassanning "Tuan" novellasi tarjimasida dastlab "lyo" o'leov birligini "o'ntosh"

deb olgan bo'lsa, keyin o'zini qoldirib, unga izoh beradi: "Lyо taxminan 4 km.ga teng bo'lgan fransuz o'leov birligi"<sup>1</sup>.

"Transliteratsiya qo'llanilishi tarjima tilida realiyalarga to'g'ri ekvivalentlarning yo'qligi bilan sharhlanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning taraqqiyot yo'llari va hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo'lganligi, ikkinchidan, realiyalarning ko'p ishlatilishi tarjima tili ularni hazm qila olmasligi va o'quvchi uchun realiyalar ajib tushunmovchiliklar keltirishi bilan tushunitadi"<sup>2</sup>. Shuning uchun ham Q.A'zamov Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ruscha tarjimasida o'zbek turmushi bilan bog'liq xola, opa, dada, devor, bo'yra, choydush, yo'lak so'zlarining rus tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilganini tanqid qiladi. "To'g'ri, transliteratsiya metodidan hozir ham foydalaniladi, lekin bu usulning nozikligi shundaki, me'yor buzilsa, realiyalar milliy o'ziga xoslik belgilari emas, balki unga yot bo'lgan ekzotik belgilarga aylanadi, kitobxonni chalg'itadi. Realiyalar ekvivalent topilmaganda va tarjima qilishning iloji bo'lmagandagina transliteratsiya qilinishi mumkin"<sup>3</sup>.

1. Transliteratsiya vositasida til xazinasini boyiydi – yangi so'zlar, terminlar, tushunchalar kirib keladi.

2. Bir paytlar transliteratsiya vositasida kirib kelgan so'z keyinchalik tilga singib ketishi mumkin.

3. Transliteratsiyada ham muayyan me'yor bo'lishi kerak (masalan: milord – мой принц – shahzodam, господин – janob, assalomu alaykum – здравствуйте).

2. **Analogiya** – o'xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Masalan: Oybekning "Navoiy" romani ruscha tarjimasida "sholcha" – "шалаш" deb o'girilgan. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani tarjimasida "рождество" – "yilboshi" deb olingan. Bunda so'zlarning ma'nosi umuman to'g'ri berilgan bo'lsa-da, milliy-tarixiy kolorit yo'qolgan. E.Vohidov Gyotening "Faust" asari tarjimasida "yuristlar"ni – "ulamo", "magistrlar"ni – "fuzalo" deb berishi ham to'g'ri emas.

<sup>1</sup> Qarang: Xolbyekov M. Parda Tursun – fransuz adabiyotining tarjimoni // Tarjima madaniyati (Maqolalar to'plami). 127-128-betlar.

<sup>2</sup> Hamroyev H. Milliy so'zlar – realiyalar va badiiy tarjima. 159-bet.

<sup>3</sup> A'zamov Q. "Mehrobdan chayon"ning ikki tarjimasini. 154-bet.

Analogiya usuli "yaqin tarjima" deb ham ataladi. Lekin bu termin nomining o'ziyoq asl nusxadagi milliy xos so'zlarning barcha vazifalarini, ma'no qirralarini to'liq ifoda etmasligini ko'rsatib turibdi: o'xshash o'xshashi-da – aynan o'zi emas!<sup>1</sup>

3. **Yangi so'z va so'z birikmasi yaratish** – ba'zi tarjimonlar milliy xos so'z va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilarki, bu hol ko'pincha o'zini oqlamaydi. Masalan, M.Kenjabeq "Yevgeniy Onegin" tarjimasida "troyka"ni – "uchot", "kotlet"ni – "qiyma et" sifatida tarjima qiladiki, bunda termin ifodalagan ma'no berilib, terminning o'zi qurbon qilinadi. Yoki "Kreshenskie vecheri" marosimini – "hayit shomi", "muqaddas shomlar" deb beradi. Holbuki, bu nasroniylarga xos but yuvish bayram oqshomi hisoblanadi. Shunga o'xshab, "palov"ni – "рисовая каша", "tirog"ni – "somsa", "kosa"ni – "глубокая тарелка", "kasha"ni – "shovla", "tun"ni – "sho'rva" deb o'girish ham o'zini oqlamaydi.

### Milliy koloritning tarkibiy qismlari

Milliy kolorit tarjimaning:

– asarda tasvirlangan xalqning milliy o'ziga xosligini aks ettirish kerakmi?

– asarni boshqa milliy zaminga ko'chirish kerakmi?

degan ikki bir-biriga zid prinsipini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

Tarjimada til almashadi, lekin milliylik qoladi.

Milliy kolorit tushunchasining tarkibiy qismlari:

1. Xalqning moddiy tirikchilik sharoitidan olingan xos so'zlar va ularni tarjima qilish xususiyatlari: paxta, g'o'za, yagana, o'toq, pilla, ho'p, juvoz yog'i, jo'xori; yetti xazina: qovoq, turp, sabzi, piyoz, sholg'om, mosh, lavlagi, loviya va hokazo.

2. Moddiy tirikchilik sharoitidan olinib, majoziy ma'noda ishlatiladigan xos so'zlar tarjimasining xususiyatlari: paxtaday oppoq, paxtaday yumshoq, joni paxtaday, qo'yday bezabon; ko'zi charosday – ko'zi qorag'atday – ko'zi sigirday; musichaday beozor – sigirday beozor (koreys); ohuday qiz – bo'z qo'chqorday qiz (turkman).

<sup>1</sup> O'sha yerda.

3. Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi: Ilya – Ilyos, Solomon – Sulaymon, Avraam – Ibrohim, Iisus – Iso (Masih), Kain – Qobil, Adam – Odam Ato, Yeva – Momo Havo, Aristotel – Arastu, Platon – Aflotun, Sokrat – Suqrot, Galen – Jolinus, Gippokrat – Buqrot, Ibn Sino – Avisenna va hokazo.

"Badiiy ijod vakillari ba'zan o'z personajlarini shunday ismlar bilan ataydilarki, bu nomlar o'sha personajlar xususiyatini o'zida mujassamlashtirganlari sababli "gapiruvchi nomlar" deb ataladilar"<sup>1</sup>. Masalan, "Qutlug' qon"da – Tantiboyvachecha, "Tobutdan tovush"da – Zargarov, "Sudxo'ning o'limi"da – Qori ishkamba va hokazo. Bunday nomlarning transliteratsiya qilinishi muallif maqsadining ro'yobga chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

4. Diniy istilohlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada berilishi: Olimp xudolari, ilohlar, ma'budlar – Ollohlar (Q.Mirnuhamedov), Injil – Kalomulloh (V.Fayzullo), pasxa – ro'za, g'usl – cho'milish, namoz – ibodat ("Qutadg'u bilig" tarjimasida), faqih – sudya, azon aytish – cho'qintirish va hokazo.

5. Jug'rofiy nomlar: Dashti Qipchoq – Velikiy step, Yegipet – Misr, Suriya – Shom, Rum – Kichik Osiyo, Farang, – Evropa, Ajam Ural – Yoyiq, Sayhun – Sirdaryo, Jayhun – Amudaryo, Samarqand – Maroqand, Chin – Xitoy va hokazo.

6. Pul birliklari tarjimasida: dinor, dirham, so'm, tanga, miri, tiyin, rubl, dollar, rupiya, tuman, riyol, funt-sterling va h.k.

7. O'lchov birliklari: kilometr, chaqirim, farsang, lyo, tosh, qadam.

Qadoq, botmon, pud, kilo.

Gaz, sarjin, qarich, tirsak.

8. Taom nomlari: palov – рисовая каша, chalob – окрошка, tirog – somsa, kotlet – qiyma et, sho'r bodom – sho'rdanak, kasha – shovla, tsa – sho'rva.

9. Cholg'u asboblari va musiqiy atamalar tarjimasida: doira, nay, qo'shnay, karnay, surnay, chang, fleyta, gitara, muza, barbat, ud.

Lapar, katta ashula, shashmaqom, xirgoyi.

Masalan, танцевать so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi: танцевать-raqsga tushish. танцевать – tansa tushish.

<sup>1</sup> Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Fan", 2005. 105-bet.

10. Kiyim-kechaklar nomi: to'n, do'ppi, qiyiqcha, kuloh, guppi, nimcha; galstuk, frak, shuba, plashch, shlyapa, palto, kostum-shim. Shuba – charm to'n, xalat – guppi, kuloh – shapka, to'n – palto.

11. Adabiy terminlar tarjimasida: ruboiy, g'azal, tuyuq, fard, xokku, tanka, qasida – oda, marsiya – elegiya, oq she'r – белый стих, barmoq vazni – пальчиковая система; aruz, devon, o'lan, bayoz, antologiya, xrestomatiya, majmua, tazkira, elegiya – o'lan, g'azal, svod elegiy – devon, yor-yor, terma, yallama-yorim, omonyor.

12. Xalqaro tashkilotlar, yirik uyushmalar, firmalar nomlari tarjimasida: Красный полумесяц – Hiloli ahmar – Qizil yarimoq.

13. Gazeta va jurnal nomlari tarjimasida: "Xalq so'zi" – "Народное слово", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkiston", "O'zbekiston ovozi", "Mushtum".

14. Toponimlar tarjimasida: Bangilar, Sassi q hovuz, Ko'kcha, Beshkent, Qiziltepa, Beshariq, Oltiariq, Uchariq. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "Kamrud" so'zini – "безводная дорога" ("qagroq yo'l") deb olingan.

15. Urf-odat, rasm-rusum, an'ana va marosimlar tarjimasida: aqqa, beshik to'yi, qizlar majlisi, mavlud, Bibi seshanba, iftorlik, xatmi Qur'on, charlar, kelintalbon, maslahat oshi, chimildiqkanon, xudoyi, tog'ora qilish, to'qqiz tovoq, idishni quruq qaytarmaslik, padaroshi, janoza, yigirma, yil, hayit.

16. Asarlarning nomlari tarjimasida: Библия – Bibliya, Евангелия – Injil, Пластир – Naftiyak, Букварь – Alifbo, "Обон" – "Куй" – "Jamila", "Тронка" – "Hayot navosi", "Плаха" – "Qiyomat", "Сестра Керри" – "Baxtiqaro Kerri", "Yulduzli tunlar" – "Бабур", "Декамерон" – "Dekameron".

17. Uy jihozlari tarjimasida: sandal, taxmon, pech, xontaxta, stol, stul, shkaf, javon, sham.

18. Mehnat qurollari: o'roq, ketmon, omoch, choriq, panshaxa, g'alvir, tegirmon, do'l, duk, charx, arava, qop, qanor, korjoma, paytava. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "ketmon" – "belkurak" deb berilgan.

19. Oshxona anjomlari: o'qlov, rapida, tandir, o'choq, shevan, hovoncha, nonpar, elak, tog'ora, guppi.

20. Qush, hayvon va hasharotlar nomi: qo'y, fil, tuya, delfin, timsoh, boyo'g'li, bulbul, qarg'a, suvarak, chivin, pashsha, chumchuq, beshiktebratar, echki, ari, asalari, qaldirg'och, musicha, bedana, sassiqpopishak, chug'urchiq, ilon, tipratikan, qurbaqa, ot, it, eshak, mushuk, sichqon, kargaz, chayon, yumronqoziq, kaltakesak. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "oq kiyik" – "белый зверь" ("oq hayvon") deb berilgan.

21. Mevalar nomi tarjimasida: o'rik, olxo'ri, qovun, tarvuz, uzum, nok, rediska, anjir, anor, behi, olma, gilos, olcha, jiyda, do'lana, ravoch, yong'oq, bodom, qovoq, lavlagi, turp, arpabodiyon, banan, kokos, tut, qulupnay. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "olma"ni – "behi", "xanzal" ("achchiq tarvuz") – "qovoq", "nashvati"ni – "qovunning bir navi", "mehrigiyoh"ni – "mandragora" ("zaharli o't") deb berilgan.

22. Daraxtlar va gullar nomi: gultojixo'roz, rayhon, jambil, atirgul, gulibeor, majnuntol, tol, sada, gujum, akatsiya, ar-ar, dub, palma, chakalak, sarv, shamshod, to'bo.

Bu tasnifni yana davom ettirish mumkin. Biz faqat ularning asosiylariga to'xtalib, to'g'ri va noto'g'ri tarjimalardan misol keltirish bilan kifoyalandik.

#### *Tayanch so'z va iboralar:*

Kolorit, tarixiy kolorit, milliy kolorit, mahalliy kolorit, realiya, transliteratsiya, analogiya.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. Milliy kolorit nima?
2. Xos so'zlarni tarjima qilishning qanday usullari mavjud?
3. Milliy koloritning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.

#### *Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:*

Mavjud tarjima asarlaridan milliy xos so'zlarning berilishi bilan bog'liq misollar topish.



### Adabiyotlar:

1. Salomov G'. *Til va tarjima*. – Toshkent: "Fan", 1961.
2. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish*. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.
3. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983.
4. Musayev Q. *Tarjima nazariyasi*. – Toshkent: "Fan", 2004.

### TO'QQIZINCHI MAVZU:

#### TARJIMADA FUNKSIONAL USLUBLAR

##### Dars rejasi:

1. *Uslub tushunchasining ma'no-mazmuni, qo'llanish doiralari*.
2. *Davrlar va uslublar*.
3. *Muallif va mutarjim uslubi*.
4. *Uslub qatlamlari*.

##### Uslub tushunchasining mazmun va mundarijasi.

##### Tarjima va uslub mavzuida uslubning asosiy tushunchalari

**F u n k s i y a** – ish, vazifa, xizmat. "Biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi"<sup>1</sup>. **F u n k s i o n a l** – "Tuzilishiga emas, balki faoliyatiga, xizmatiga, funksiyasiga bog'liq bo'lgan"<sup>2</sup>.

**U s l u b ( s t i l )** – lotincha **s t i l u s** so'zidan olingan bo'lib, xat yozish uchun tayyorlangan uchi o'tkir tayoqcha; yozish usuli, bayon tarzi ma'nolarini bildiradi. Badiiy asarning umumiy ohangi va koloriti degan mazmunda ham keladi.

"Uslub – keng ma'noda – yozuvchi ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, tor ma'noda – ifoda usuli (tarzi bayon). Keng ma'noda uslub tushunchasi shoirning dunyoqarashi, asarlarining

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildlik. 2-jild. – Moskva, 1981. 308-bet.  
<sup>2</sup> O'sha yerda.

asosiy leymotivini tashkil etuvchi g'oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarni qamrab oladi"<sup>1</sup>.

"Uslub tushunchasi xilma-xil mazmunda, ya'ni nihoyatda keng yoki juda tor ma'nolarda qo'llaniladi. Bu tushuncha muayyan davr adabiyoti xususiyatlariga ham (muayyan davrdagi uslublar), turli xalqlar adabiyotlariga xos belgilarga ham (milliy uslublar), turli adabiy usul va yo'nalishlarning o'ziga xos tomonlariga ham (klassisizm, sentimentalizm, romantizm uslublari), bir yozuvchi ijodidagi alomlarga ham (Navoiy, L.Tolstoy, M.Gorkiy, Hamza, A.Qahhor uslublari), nihoyat, alohida bir asarga ham (A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi uslublar) taalluqli holda qo'llaniladi"<sup>2</sup>.

Uslub keng va murakkab tushuncha bo'lib, uning xillari ko'p. Lekin ilmiy adabiyotlarda asosan 5 xil uslub ajratib ko'rsatiladi:

1. So'zlashuv uslubi
2. Badiiy uslub
3. Ilmiy uslub
4. Publisistik uslub
5. Rasmiy uslub.

**S o' z l a s h u v u s l u b i** – jonli nutqqa xos, o'zaro suhbat, fikr almashuv jarayoniga xos bo'lgan bayon usuli. U jonli nutqdan iborat bo'lib, bunda til qonun-qoidalariga rioya qilinmaydi.

So'zlashuv uslubining belgilari:

1. Nutq o'zaro suhbat shaklida bo'lib, unda to'liqsiz gaplar ko'p ishlatiladi – muayyan vaziyatda sharoit, holat, mimika, imo-ishoralar nutqni to'ldirib kelgani uchun nutq ixcham bo'ladi. Masalan: quydi (yomg'ir), kelyapti (avtobus).

2. So'z tanlash va ularni tartibga solish birmuncha erkin ko'rinishda bo'ladi. Masalan:

Bugun ma'ruza bo'ladi, tarjima nazariyasidan.

Biz mashina oldik, "Neksiya".

Hozir majlis bo'ladi, katta zalda.

Boshqacha aytganda, so'zlovchi gapini aytadi-yu, keyin unutgan ba'zi so'zlarini ketidan keltiraveradi.

<sup>1</sup> Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent, 1967. 232-bet.

<sup>2</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 1995. 239-240-betlar.

3. Ko'chma ma'nodagi so'zlar, obrazli iboralar, frazeologik birikmalar ko'p uchraydi. Masalan: Ular juda inoq – oralaridan qil o'tmaydi. Quloqqa lag'mon osadi. Gapga to'n kiygizadi. Aravani quruq opqochadi.

4. Har xil takrorlar (so'z takrori) uchraydi:

Kim? Kim keldi? Nima? Nima olding? Yurib-yurib bozorning darvozasiga kelib qoldim.

5. Grammatik shakllarning norma bo'lmagan shakllari qo'llanadi; Aytinglar, aytingiz – ayting bo'lishi kerak.

6. Intonatsion vositalar – hayronlik, gumon, ishonmaslik, qat'iylik ma'nolarini berish.

7. Hazil unsurlari bo'ladi:

Mana, topshiriqni ham "qoyil" qilib bajardingiz!

8. Sodda gaplar ko'p ishlatiladi:

Qololmadim: ishim chiqib qoldi.

So'zlashuv uslubi faqat og'zaki nutqdagina emas, badiiy asarlarga ham xos bo'lib, personajlarning til xususiyatlarini xarakterlashda juda muhim. Shuning uchun tarjimada bunga alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

**B a d i i y u s l u b** – badiiy adabiyot, badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Badiiy uslubda tematik va uslubiy chegaralanish yo'q.

Belgilari:

1. Til boyligidan foydalanishda "ortiqcha" so'zlarning ham qo'llanaverishi.

2. Ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, frazeologizmlar, badiiy tasvir vositalarining ko'p ishlatilishi.

3. So'z tartibida adabiy til me'yorlaridan chekinishning uchrashi.

4. Ilmiy-texnik atamalar nisbatan kam istifoda etilishi.

5. Ritorik so'roq gaplar, emotsional jumlar va boshqalardan ko'p foydalanishi.

Shuning uchun badiiy uslub "aralash uslub" ham deyiladi.

**I l m i y u s l u b** da mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan darslik va qo'llanmalar ham shu uslubda yoziladi. Ilmiy uslubda biror mavzu bo'yicha aniq, asoslangan izchil ma'lumot berish kerak bo'ladi.

Belgilari: ilmiy uslubda ta'riflab berish, tahlil qilish, sababini aniq lab isbotlash va natijalarni bayon qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda

so'zlashuv uslubi unsurlari, tasvir deyarli uchramaydi, balki maxsus terminlar, o'z asl ma'nosidagi so'zlar, bir ma'noli so'zlar yetakchilik qiladi. Bu uslubda adabiy til me'yorlariga to'la rioya qilinadi. Nutqda ixchamlik, lo'ndalikka harakat qilinadi. Ayni paytda, murakkab sintaktik konstruksiyalar ko'p bo'ladi. Yig'iq gap kam qo'llaniladi.

Keng jamoatchilikka havola qilinadigan materiallar (gazetalar, om-mabop jurnallarda turli ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar yoki keng omma oldida o'qiladigan ma'ruzalar) **i l m i y - o m m a b o p** uslubda bo'ladi. Bu uslubda obrazlilik – tasvir ham bo'ladi. Maxsus terminlar kam ishlatiladi. Ishlatilganda ham izohlar orqali tushuntiriladi.

**P u b l i s i s t i k u s l u b** – tilning ta'sir qudratiga asoslanadi. Bu targ'ib-tashviq va da'vat uslubi. Asosan matbuot materiallari shu uslubda yoziladi.

Belgilari: ilmiy atamalar kam, turli uslub unsurlari aralash keladi.

**P u b l i s i s t i k a** – lotincha publisus – "ijtimoiy" so'zidan. Jamoatchilik fikriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazish maqsadida kundalik ijtimoiy masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan adabiy tur. Publisistika vaqti matbuot bilan chambarchas bog'langan. Publisistik turning asosiy asarlari muammoli maqolalar, ocherklar, pamfletlar, felyetonlar va boshqalar hisoblanadi.

**P u b l i s i s t**. "Ijtimoiy-siyosiy mavzularda asar yozuvchi adib. Publisist yozuvchi"<sup>1</sup>.

**P u b l i s i s t i k a** – ijtimoiy-siyosiy masalarga oid adabiyot.

**R a s m i y - i d o r a v i y u s l u b** – o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi* kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

Rasmiy uslub neytralligi bilan ajralib turadi. Qaror, buyruq, raport, instruksiya, akt, ariza, e'lon kabilar shu uslubda yoziladi va tarjima qilinadi.

Belgilari: qisqa, standart shakl, urg'un iboralar, maxsus profesional so'zlar, terminlar, tayyor qolip (shablon) iboralar: *shunga ko'ra, shu asosda, ...ni e'tiborga olib, biz quyida imzo qo'yuvchilar,*

<sup>1</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. 605-bet.

*biz ushbu akti tuzuvchilar, ...ga muvofiq, biz yuqorida nomi ko'rsatilganlar, ... uchun, oylik maoshi miqdorida va hokazo.*

Bu uslubda ma'noning ikki xil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

### Yozuvchi uslubi

“Yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o'ziga xos tili, tasvirlash manerasi. Har bir chinakam ijodkor o'z uslubiga ega bo'ladi. Masalan, Navoiy g'azallari yuksak badiiyligi, fikrlarning teranligi bilan, Bobur asarlari esa musiqiyliigi, tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uslub ijodkorning o'zligini, mustaqilligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o'zi o'ylab chiqargan narsa deb qarash kerak emas. Ijodkor o'zidan avvalgi adib va shoirlarning asarlari bilan tanishar ekan, ulardan o'rganadi.

Muallif uslubi unsurlarini tarjimon ikkiga bo'lib qarashi mumkin:

– Tarjima matniga o'zgarishsiz ko'chib o'tuvchi unsurlar.

– Tarjimada tarjimon mavqeyiga bog'liq bo'lgan unsurlar.

Ularning birinchisiga asarning kompozitsion qurilishi, tabiat tasviri, portret yaratish, xarakter yoki tip yaratish usuli, qahramonlarni nomlash, tasvir vositalariga boylik darajasi va boshqalar kiradi.

Ikkinchisiga esa tarjimada tarjimon mahoratiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin bo'lgan unsurlar, jumladan, asar jumalalarining uzun-qisqaligi, ulardagi so'z tartibi, so'zlarni tanlashdagi emotsionallik darajasiga tarjimonning munosabati, tarjima nazariyasining ba'zi prinsiplariga tarjimonning munosabati kabilar kiradi.

Bu hollarda kontekstlarning o'zgarishiga qarab:

1. O'z tillarida mavjud ekvivalent orqali.

2. Funktsional o'xshash varianti orqali.

3. Transliteratsiya yo'li bilan.

4. Xolis obrazli yo'l bilan xal qilib keladilar.

Har bir asarning ham o'ziga xos uslubi bo'ladi. Yozuvchining har bir asari muayyan uslubda yoziladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” asarlari, hajviya va ocherklarining har biri o'ziga xos uslubga ega. Yoki Abdulla Qahhor hikoyalari, “Sarob” romani. “Qo'shchinor chiroqlari”, “Sinchalak”, “Shohi so'zana” asarlari haqida ham shunday deysish mumkin.

Muallif va mutarjim uslubining bir-biriga mos kelish va mos kelmaslik muammosi doirasida tarjimaning ikki prinsipial masalasi yotadi:

1. O'zgani taqdim qilish.

2. O'zni taqdim qilish.

Yoki:

1. Tarjima asari – tarjima asari.

2. Tarjima asari – original asar.

Uslub muammosining ikki tomoni mavjud:

1. Yozuvchi uslubining tarjimon uslubiga ta'siri.

2. Tarjimon uslubining yozuvchi uslubiga ta'siri.

Uslubiy moslashtirish asarni ko'proq *iqtimlashtirish*, yozuvchini “o'zimizniki” qilish maqsadiga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

“Individual uslub deganda biron muallifning muayyan davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy uslubiy unsurlar majmuasi tushuniladi. Shuningdek, ijodiy faoliyatga munosabatidan qat'i nazar, biron shaxsning og'zaki yoki yozma nutqda muntazam ishlatiladigan so'z va iboralari ham individual uslubni keltirib chiqaradi”<sup>1</sup>.

“Badiiy tarjimada aniqlikka erishish faqat yozuvchining individual uslubini aks ettirish orqali amalga oshadi. Uslubni berolmagan tarjimon aniqlikni da'vo qilolmaydi”<sup>2</sup>.

“Badiiy tarjima ikki uslubning birikishidan hosil bo'lgan y a n g i a d a b i y h o d i s a d i r. Tarjima jarayonida ikki ijodkor uslubi ro'baro' keladi, tanishish yuz beradi. Bu tanishuv tarjimada birikish, o'zaro singib ketish holatida namoyon bo'ladi.

### Personajlar nutqi tarjimasi

Personajlarning o'z nutqi bo'lib, u adabiy tildan farqlanadi, ular qiyin so'zlarni ba'zan buzib talaffuz qiladilar – asl nusxada o'z aksini topgan bu so'zlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar asliga xos berilishi kerak. Masalan, Vasiliy Shukshinning bir qahramoni yozuvchilikni havas qiladi, biroq uning adabiyotdan savodi haminqadarki, hikoya so'zini to'g'ri yozolmaydi – “packac” deb yozadi. Uni

<sup>1</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983. 66-bet.

<sup>2</sup> Salomov G', Komilov N. Do'stlik ko'priklari. – Toshkent, 1979. 113-bet.

O'.Hoshimov va X.Sultonovlar "xikoya" deb tarjima qiladilar. X.Ab-rorova esa rus mujiklari tilida kelgan "фершал", "рожество", "аблакат" kabi so'zlarni "feldsher", "rojdestvo", "advokat" tarzida tuzatib tarjima qiladiki, bu qahramonlar nutqining tabiiyligini yo'qqa chiqaradi<sup>1</sup>.

"S.A.Baruzdinning tasvirlash maromiga xos birinchi fazilat – bu qisqalik; ikkinchi alomat – aniqlik; uchinchisi – chuqur psixologizm"<sup>2</sup>. Shunga qaramay, uning 199 sahifalik "Oydek ravshan" qissasi tarjimada 238 betga cho'zilgan. "Sababi, muallifning ixcham uslubi me'yorida ortiq darajada izohlab, sharhlab, talqin qilib berilgan"<sup>3</sup>. Masalan:

"Катюше тридцать пять. Сходится, расходится" degan beshta so'zdan iborat gap "Katyusha o'ttiz beshga kirdi. Nuqul erga tegib, erdan chiqish bilan ovora" tarzida o'n bitta so'z bilan o'girilgan ekan, qizning xulq-atvori tasviriga mos tarzda, tarjimonning tadbiriga e'tiroz bildirib bo'lmas. Biroq agar bunday uslubiy "bag'rikenglik" muxtasar aniq tasvirni lanj qilib qo'ysa, mantiqsizlik sodir bo'lishi ham hech gapmas.

Albatta, tarjimada ikki uslub – muallif va mutarjim uslubi kesi-shadi – chinakam tarjimada ana shu nuqtada vujudga keladi.

V.Xinkisning fikricha, asl nusxadagi sheva elementlarini tarjima qilinayotgan tildagi aynan sheva so'zlari bilan berish shart emas, uni so'zlarning o'zaro birikishi – sintaksis yordamida ham ifodalasa bo'ladi. Tarjimashunos M.Loriening fikri ham shunday bo'lib, shevalarni tarjima qilishda ona tilidagi biror shevadan foydalanmay, uni sintaksis va ma'lum intonatsiya yordamida ham aks ettirish mumkin<sup>4</sup>. S.Olimov ham F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romani tarjimasida Toshkent shevasiga xos "shag'am", "ha-de", "talinka", "o'zi" o'rnida "o'zligi" so'zlarini qo'llagani uchun I.G'afurovni tanqid qilgan edi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati. 4-kitob. – Toshkent, 1978. 271-272-betlar.

<sup>2</sup> Salomov G., Komilov N., Jo'rayev T. Badiiy tarjimaning taraqqiyot mayllari // tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 6-kitob. – Toshkent, 1985. 13-bet.

<sup>3</sup> O'sha yerda. 16-bet.

<sup>4</sup> Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do'stlik quroli (Maqolalar to'plami). – Toshkent. 1974. 33-34-betlar.

<sup>5</sup> Olimov S. Ikkinchi tashrif // Tarjima san'ati. 5-kitob. – Toshkent. 1980. 251-bet.

"Personajlar nutqidagi jonli nutq elementlarini muvaffaqiyatli o'girish uchun rasmiy lug'atlarga emas, xalq tiliga tayanish kerak. Negaki, jonli tilga oid so'zlar ko'pincha lug'atlarda qayd qilinmaydi, bo'lganlari ham aksari hollarda muayyan kontekst ruhiga mos kela-venmasligi mumkin. Shu sababli tarjimaning asl nusxaga nechog'lik yaqin bo'lishi tarjimon mahoratiga, xalq tilini qay darajada egallagani-ga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi"<sup>1</sup>.

### Uslub qatlamlari

So'zlar uslubiy bo'yog'iga ko'ra ham bir-biridan farqlanadi: *chehra, ruxsor, yuz, aft, bashara, turq.*

Uslub qatlamlari:

Tantanavor uslub – *chehra; tanovul qildi.*

O'rta uslub – *yuz; yemoq.*

Jaydari uslub – *aft; oshamoq.*

Qo'pol uslub – *bashara; yutmoq.*

Erkalash va kichraytirish so'zlari yasovchi qo'shimchalardan ham uslubiy ifodada foydalaniladi: - *voy, - xon, - jon, -qul, -gina, - kina, - loq, kay* va hokazo.

So'zning ma'no qirralaridan foydalanish: *o'ldi, yafot etdi, juvonnarg bo'ldi, u dunyoga rixlat qildi, joni qutuldi, dunyoni tark etdi, Azroil jonini oldi, jonini jabborga topshirdi* va hokazo. Masalan, "Boburnoma"da "o'lmoq" so'zi 27 o'rinda 27 xil qo'llangan.

Mumtoz adabiyot asarlari va qadimgi madaniy yodgorliklarni tarjima qilishning uch prinsipi:

1. Funktsional-tarixiy prinsip.
2. Tarixiy uslubiy moslashtirish prinsipi.
3. Modernizatsiya prinsipi.

Muallif uslubini aks ettirishi jihatidan tarjimonlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

<sup>1</sup> Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi. 34-bet.

1. Muallif va o'z uslubini sezilmas darajada mahorat bilan omuxta qilib yuboradigan mutarjimlar (Mohir mutarjimlarning barchasini bu guruhga kiritish mumkin).

2. Muallif uslubiga mahliyo bo'lib, o'z ovozi yo'qotgan, butunlay muallif uslubiga singib ketgan tarjimonlar (No'noq va o'z uslubiga ega bo'lmagan, taqlidchi tarjimonlarni bu guruhga qo'shish mumkin).

3. Har qanday uslubdagi asarni o'z uslubiga solib o'giradigan tarjimonlar (Bu yo tarjimon shaxsiyatining kuchliligidan, yo tarjima xususiyatini yaxshi bilmasligidan, yo tarjimani kosibchilikka aylantirib olganligidandir). Bir qolipdagi yakrang tarjimalar ana shunday tarjimonlar mehmati mahsuli.

#### *Tayanch so'z va iboralar:*

Uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, rasmiy uslub, yozuvchi uslubi, tarjimon uslubi, uslub qatlamlari.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. *Uslub deganda nimani tushunasiz?*
2. *Qanday uslublarni bilasiz?*
3. *Uslubning asosiy tushunchalari qaysilar?*

#### *Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:*

Uslub qatlamlariga misollar topib kelish.

#### *Adabiyotlar:*

1. *Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983. 64-97, 126-162-betlar.*
2. *Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 4-kitob. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 265-272-betlar.*
3. *Salomov G'. Tarjima tashvihlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 15-93-betlar.*

4. *Umarov A. Yuksak san'at yo'lida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. 92-101-betlar.*
5. *"Tempadu perevodchika" to'plamlari. – Moskva, 1968 (№ 5); 1971 (№ 7).*
6. *Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва, 1961.*

## **O'NINCHI MAVZU: ILMIY TARJIMA MURAKKABLIKLARI**

### **Dars rejasi:**

1. *Ilmiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari.*
2. *Ilmiy uslub va tarjima.*
3. *Hozirgi ilmiy asarlar tarjimasining yutuqlari va kamchiliklari.*
4. *Terminologiya va tarjima.*

Ma'lumki, tarjima xarakteriga ko'ra 4 xil bo'ladi: badiiy, ilmiy, publisistik, rasmiy.

Ilmiy asarlarda mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan darslik va qo'llanmalar ham shu uslubda yoziladi. Ilmiy uslubda biror mavzu bo'yicha aniq, asoslangan izchil ma'lumot berish kerak bo'ladi.

Belgilari: ilmiy uslubda ta'riflab berish, tahlil qilish, sababini aniqlab isbotlash va natijalarni bayon qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda so'zlashuv uslubi unsurlari, tasvir deyarli uchramaydi, balki maxsus terminlar, o'z asl ma'nosidagi so'zlar, bir ma'noli so'zlar yetakchilik qiladi. Bu uslubda adabiy til me'yorlariga to'la rioya qilinadi. Nutqda ixchamlik, lo'ndalikka harakat qilinadi. Ayni paytda, murakkab sintaktik konstruksiyalar ko'p bo'ladi. Yig'iq gap kam qo'llaniladi.

Keng jamoatchilikka havola qilinadigan materiallar (gazetalar, ommabop jurnallarda turli ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar yoki keng omma oldida o'qiladigan ma'ruzalar) ilmiy-ommabop uslubda bo'ladi. Bu uslubda obrazlilik – tasvir ham bo'ladi. Maxsus terminlar kam ishlatiladi. Ishlatilganda ham izohlar orqali tushuntiriladi.

Ilmiy uslub uchun norma bo'lgan shakl – mo'tadil kitobiy yozma nutqdur. Demak, unga og'zaki nutqdan hech narsa kirmasligi, unda adabiy tilning belgilangan sintaktik normalariga rioya qilinishi shart.



Shunday bo'lgach, tarjimada asliyat tilining ilmiy uslubi tarjima tili uslubiga to'la bo'ysundiriladi.

Ilmiy matnlar tarjimasiga qo'l urgan tarjimon tarjima matni mansub bo'lgan sohadan mukammal xabardor bo'lishi kerak. Chala xabardorlik ham ba'zan tarjimonni kulgili ahvolga solib qo'yishi mumkin. Atamalarning tarjimada ikki xil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning har ikki tildagi shakliga lug'at tuza borish yaxshi natija beradi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida rus tilini o'rganish zamon va hayot talabiga aylangach, ruscha-o'zbekcha lug'at tuzish kun tartibiga chiqadi. Lekin o'sha davrda bunga yetarli imkoniyat, bu ishni amalga oshiradigan mutaxassislar yo'q edi. Shuning uchun Ashurali Zohiriy 1920 yili Qozonda bosilgan «Ruscha-tatarcha mukammal lug'at»dagi tatarcha so'zlar o'rniga o'zbekcha so'zlarni qo'yib, «Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at»ni tuzadi. U tarjimaga bilimdonlik bilan ijodiy yondashadi. Aytaylik, auksion so'zi tatarcha lug'atda «to'rk. oluchilarni yorashdirub, kim ko'brak bera, shuga sotu, muzoida» deb berilgan bo'lsa, A.Zohiriy uni «xalq oldida «kim oshdi» deb bir narsani sotish» deb ifodalaydi. Yoki «чаща терпения переполнилась» iborasini tatarchada «tuzarlik hol qolmadi» deb berilgan bo'lsa, A.Zohiriy uni «sabr kosasi to'lib-toshdi» tarzida oladi. *Тутук* so'zini boshi berk ko'cha, *перелок* ni esa tor ko'cha deb tarjima qiladi. Ayni paytda, ba'zi xatolarga ham yo'l qo'yadi. Masalan, *тольман* so'zini «gullari ko'b yoshaydurg'on gul» deb izohlagan. *Крупа* ni guruch deb tarjima qilgan. Holbuki, *тольман* – tola, *крупа* – yorma bo'ladi.

Asliyat tilidagi atamani to'g'ri tushungan tarjimon ularni o'z o'rnida ishlatib ketaveradi. Masalan: rus tilidagi «древесный уголь» “yog'och ko'mir” deb emas, “pista ko'mir” deb tarjima qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, ilmiy matnlar tarjimasida so'z tanlashdagi oxirgi to'xtam **ma'no talablari** bilangina emas, tarjima qilinayotgan tildagi **terminologik norma talablari** bilan belgilanadi. Ilmiy matn uslubi tarjimonga keng sintaktik imkoniyatlar beradi. Chunki **jumla tuzilishi** bu uslubda asosiy rol o'ynamaydi: jumlar istalgandek tuzilishi, uzunlari bo'lib yuborilishi, qisqa jumlar birlashtirilishi, grammatik va sintaktik qayta tuzilishi mumkin.

Ilmiy tarjimada fakt, tahlil, sxema, atama va hokazolar alohida e'tibor talab qiladi.

Ilmiy matnda termin (atama)ga aylangan so'zning ma'nosi lug'aviy ma'nodan farq qilishi unga o'ziga xoslik bag'ishlab turadi

(Atama – biror sohaga xos bo'lgan muayyan tushunchaning barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. U odatda bittagina shakl bilan ifodalanadi, xolos).

Masalan: “poluprovodnik” – ikki vagonga xizmat qiluvchi provodnik emas, “yarim o'tkazgich”dir yoki “umformer” – aqlni shakllantiruvchi emas, elektr tokining bir turdan ikkinchi turga aylantirib beruvchi.

Ingliz tilida “paket” – “cho'ntak” so'zi aviatsiyada “havo bo'shlig'i”, afg'onlarda “pochta konverti” ma'nosini beradi.

Ilmiy asarlar tarjimasining turlari:

1. Umumiy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar.
2. Fanning muayyan sohasiga oid ilmiy asarlar.
3. Fanning ayrim yo'nalishlariga oid asarlar.
4. Har bir asar tarjimasidagi qiyinchiliklar.
5. Sof texnik asarlar.

Ilmiy asarlar tarjimasidagi murakkablik va qulayliklar:

1. Qanday tildan o'girilayapti?
2. Qaysi tilga o'girilayapti?
3. Tilning rivojlanish darajasi.
4. Ilmiy terminologiyani ishlanganlik darajasi.
5. Muayyan ilmiy an'ananing mavjud yoki mavjud emasligi.
6. Ilmiy asarlar tarjimachiligi an'anasining bor-yo'qligi.

Ilmiy asarlar tarjimasida ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ko'pchilik ilmiy asarlar tarjimasida o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan, hali ommalashmagan, o'ta ixtisoslashgan atamalar ishlatilmoqda.

2. Terminlarning birligi, yaxlitligi va barqarorligini saqlashga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

3. Tarjimonlar tomonidan o'zi bilganicha termin yasash holatlari uchramoqda. Masalan, Atoullah Husayniyning «Badoyiu-s-sanoyi» asari tarjimasida Alibek Rustamov quyidagicha yangi terminlar yasagan: *mafhum* – anglam, *munshiyon* – yozg'uchilar, *hashv* – qistirma.

4. Mumtoz asarlar tarjimasida termin qo'llash borasida ba'zida me'yor buzilmoqda. Masalan, Forobiy, Ibn Sino kabi Sharq olimlarining adabiyot nazariyasiga oid asarlarida ritm, dialog, obraz, epopeya, poema, ritorika kabi yevropacha, ayni paytda zamonaviy so'zlarning uchrashi o'quvchini ishontirmaydi.

5. Terminlarning neytral ma'no emas, balki uslubiy jihatdan ko'chma ma'no kasb etish holatlari sodir bo'lmoqda.

6. Terminlarni noto'g'ri qo'llash hollari yuz bermoqda.

Hayotning turli sohalariga oid matnlardagi atamalarni tasviriy yo'l bilan ifodalashga yo'l qo'yimaslik kerak. Ularni hayotda o'sha sohada hozirgi zamon uchun amalda bo'lgan shaklini – ekvivalentini topib qo'yish kerak. Masalan:

Свободно конвертируемая валюта – erkin muomaladagi valyuta

Общие положения – umumiy qoidalar

Национальная программа подготовки кадров – Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi

Кабинет министров – Vazirlar Mahkamasi

Аппарат Президента – Prezident devoni va hokazo.

Bunday matnlarda jumalarning uzun-qisqaligi o'quvchi yoki eshituvchiga malol kelmaydigan darajada bo'lmog'i kerak. Ya'ni uzundan-uzoq qo'shma, ergashgan qo'shma gaplardan qochish kerak. Bunda asliyat uslubiga juda yaqinlasha boradi. Bunday matnlar tarjimasida amaliyotida tarjima o'rinda asliyatning referati bayoni ko'p qo'llaniladi...

Ma'lum bo'ladiki, terminlar tarjimasida quyidagi usullar qo'llanadi:

1. Muayyan termin tarjimaga aynan ko'chadi: tipologiya, romantizm, realizm, integral, differensial, matematika, astronomiya, kompyuter, skayner.

2. Tarjima tilidagi muqobili bilan almashtiriladi: stereotip – qolip, semantik – ma'noviy, original – asl nusxa, psixolog – ruhiyatshunos.

3. So'zma-so'z tarjima qilinib olinadi: ekvivalent – teng qiymatlik, integral – jamlovchi, differensial – fraqlovchi, stilist – uslub ustasi, ekvimetriya – muqobil vazn, ekviritmiya – muqobil ohang.

Terminlar tarjimasidagi quyidagi usullarni esa oqlab bo'lmaydi:

1. Terminni tasviriy yo'l bilan tarjima qilish: epigraf – sarnaqsh, prolog – sarahbor, kolorit – nash'u namo, nomeklatur – mahriy, romantik – tantavor-mahobatli.

2. Ma'nosidan kelib chiqib, terminni sharhli-izog'li tarjima qilish: tipologiya – qiyosiy-qoliplovchi sharh, akademik uslub – jiddiy sip'o uslub, intim – lisoniy-botiniy.

3. Zamonaviy terminlarni qadimiy shakli bilan almashtirish: fizika – hikmat, matematika – riyoziyot, geometriya – handasa, botanika

– nabotot, astronomiya – ilmi hay'at, astrologiya – ilmi nujum, adabiyot nazariyasi – ilmi bade'.

4. Yangi atamalar yasash: ekstrasensorka – sehrshunoslik, kafedra – minbargoh, fakultet – kulliyot, rayon – depara, nohiya, romantik – ma'sumiy. Bunday terminlar o'zbek tilida ilgari bo'lmagan. Ular muayyan terminni zo'r berib milliyashtirishga urinishdan boshqa narsa emas.

5. Terminlar tarjimasida har xillikka yo'l qo'yish, ya'ni ularni sinonimlari bilan tarjima qilish: zamon va makon – fazo va vaqt – makon va vaqt; qarama-qarshiliklar birligi – qarama qarshiliklar ayniyati – qarama qarshiliklar ayniyligi – gumondor – gumon qilinuvchi; ko'rsatma – ko'rgazma – ko'rgazuv; ko'rsatuv – guvohlik – so'roq; прекращение (дело): (ishni) tugatish – (ishni) yotqizish – (ishni) bekor qilish – (ishni) tamomlash – (ishni) tugallash va hokazo. Xurram Rahimov nemis toponimlari va antroponimlari tarjimasida ularning rus va o'zbek tillarida to'g'ri va xato berilishini maxsus jadval yordamida ko'rsatgan edi. Misollar:

Geyne – Hayne, Gumboldt – Humboldt, Gegel – Hegel, Gofman – Hofmann, Yakob – Yoqub (emas), Genrix – Haynrix.

Biz ilgari rus tili orqali ko'p nomlar, tomonimlarni, terminlarni noto'g'ri tarjima qilib kelganmiz. Bizda termin qo'llash va tarjima qilish borasidagi xilma-xilliklar shu darajadagi, hatto termin so'zining o'zi uch xil shaklda qo'llanadi: termin – atama – istiloh.

5. Terminlarni xato tarjima qilish: to'ri qasd, egri qasd, yuqori prokuror, quyi prokuror, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish kabi.

#### *Tayanch so'z va iboralar:*

Ilmiy tarjima, termin, uslub, muqobil termin, so'zma-so'z tarjima, tasviriy tarjima, ma'no tarjimasida, yangi atamalar yasash.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. Ilmiy tarjimaning o'ziga xosliklari nimada ko'rinadi?
2. Ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqi nimada?
3. Terminlar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?

#### *Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:*

Terminlar tarjimasiga misollar topish.

### Adabiyotlar:

1. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983.
2. Olimov S. *Ilmiy tarjima murakkabliklari // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami)*. 6-kitob. – Toshkent. 1985. 95-112-betlar.

### O'N BIRINCHI MAVZU: BADIY TARJIMA TURLARI, JANRLARI VA XUSUSIYATLARI

#### Dars rejası:

1. *Epik, lirik va dramatik tur haqida*.
2. *Adabiy janr tushunchasi va badiiy asar tarjimasining janriy xususiyatlari*.
3. *Tarjimada g'oyaviy mazmun va estetik ma'no*.

"Tasvir prinsipi, hayotiy voqelikning qamrovi va aks etish tarzi, obrazlar xarakterini ochish imkoniyatlariga qarab, barcha badiiy asarlar uch katta turga bo'linadi: **1) Epik tur**. Bu turga roman, qissa, masal, hikoya, ocherk kabi janrlar kiradi. **2) Lirik tur**. Bu turga g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, ruboiy, tuyuq kabi klassik adabiyotdagi janrlar va hozirgi adabiyotdagi she'riy janrlarning hammasi kiradi. **3) Dramatik tur**. Dramatik tur drama, komediya va tragediya kabi janrlarni o'z ichiga oladi.

Ayrim asarlar adabiy turlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Masalan, **she'riy roman**, **nasriy nazm** kabi. Bunday asarlar **liro-epik** turga mansub deb yuritiladi<sup>1</sup>.

**Janr** – fransuzcha so'z bo'lib, shakl va mazmun jihatidan o'ziga xos belgilar birligiga ega bo'lgan san'at asari turi. Badiiy asarlarning syujet va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan har bir turi. Masalan: *roman, qissa, hikoya, g'azal, ruboiy, drama* va hokazo... Tor ma'noda janming ichki xillanishini bildiradi: *tarixiy roman, detektiv roman, hajviy roman, siyosiy roman, fantastik roman* va hokazo. Yoki *mehnat qo'shiqlari, muhabbat qo'shiqlari, hajviy qo'shiqlar*.

<sup>1</sup> Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1983. 63-64-betlar.

Har bir janr tarjimasi o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Masalan, nasriy asar tarjimasida avvalo muallif uslubini aks ettirishi kerak. Aytaylik, T.Murod o'ta xalqona yozadi, ta'sirchanlikni oshirish uchun takrorlardan, odamlar ichida yurgan gaplardan mahorat bilan foydalanadi. "Otamdan qolgan dalalar" romanidan:

"Kuydi-kuydi – ayolimni tani kuydi.

Kuydi-kuydi – meni bag'rim kuydi.

Kuydi-kuydi – bolalarimni sho'ri kuydi" (176).

Kuydi-kuydi – kattalarni nimasi kuydi?

Kattalarni... oyog'i kuydi!

Yoki:

"Dalalarim – bobolarim sho'r-sho'r peshonasi.

Dalalarim – otalarim yag'ir-yag'ir yelkasi.

Dalalarim – ayollarim xazon-xazon umri".

2. Asar ritmini berish: oddiy, murakkab, xalqona, milliy, jiddiy yoki hajviy va hokazo. Shiddatli yoki bosiq hikoya tarzi...

N.Aminovning "Qo'l haqqi" hajviyasi:

"Husndan, qaddi-qomatdan qarzimiz yo'q. Bo'y – 190, qosh-ko'z qop-qora, ko'krak va bilaklarning juni olti oylik toychoqning yoliday. Ko'chada yursam, ro'paramdan chiqqan ayol zotiki bor, besh-o'n qadam o'tmasdanoq orqa o'girilib izimdan qaramay iloji yo'q", – deb boshlanadi.

3. Personajlar nutqi:

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida Anvarning ukasi va uning o'rtoqlari bo'lgan yigitlarning o'zaro suhbatiga diqqat qiling:

"– Tur Sharif, tur, peshin bo'lubtu.

Ikkinchi yigit ko'zini ochdi:

– Ey, qo'ysang-chi, Rahem.

– Tur-da, axi, ana Qobelboy ham keb to'xtabtu.

Sharifboy yostiqdand burilib, yonidag'i uchunchi yigitga qaradi:

– Pala'nat, qachon kelgan ekan?

– Kim bilsin... Inisini bo'uchratdimikin? Kani, uyg'ot-chi pala'natini...

– Ebi, ebi, – dedi Rahim, – burodaring ahvolini gapur-da, axi. Bar padari uyquki, peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga bo'lib yotkan to'palangni go'shingga ilasanmi?

4. Qahramonlar portreti, holatini chizish.

"Kumushning bu daqiqadagi xolini qalam bilan chizib ko'rsatish albatta mumkin emas edi. Ul titrar edi, ko'karar edi, to'lg'anar edi..."

"... Ra'noning ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushkan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lg'anda edi, so'z bila biljirab o'lturmas, shu o'runda sizga Ra'noning rasmini tortib ko'rsatib qo'yar, faqat menga Ra'no gulining suvigina ko'proq kerak bo'lar edi".

She'riy tarjima esa yanada murakkab – bejizga u badiiy tarjima-ning oliy shakli deyilmaydi. Bunda, avvalo, muqobil vazn topish, asliyatga muvofiq ohangni va muallif uslubini saqlab qolish, qofiya, radif va badiiy san'atlarni qayta yaratish taqozo qilinadiki, sho'ir bo'lmagan yoki tab'i nazmi yo'q kishi she'riy tarjimaga qo'l urmaydi.

She'riy tarjimaning qiyinchiliklaridan biri shundaki, unda barcha so'zlarni aks ettirishning hamma vaqt ham iloji yo'q – vazn, qofiya va radif kabi she'riy unsurlar shuni taqozo etadi. Chunki nasrdagi kabi bunda erkin harakat qilib, mazmunni imkon qadar to'la va tushunarli ifodalash payidan bo'lolmaysiz. Siz topgan so'z vaznga tushishi, qofiyaga to'g'ri kelishi kerak – misrani misra, baytni bayt qilib o'girishning o'zi bo'lmaydi. Axir, misra orttirib, baytni – uchlik, ruboiyni – beshlik qilib o'girolmaysiz. Asliyatdagi so'zlar esa barfina-harf, bo'g'inma-bo'g'in tarjima tiliga mos kelmaydi. Asl nusxada bir so'zda ifodalangan ma'noni ba'zida tarjimada ikki-uch so'z bilan ifodalashga to'g'ri keladi. ba'zida aksi: avvalgi holat shuning hisobiga ba'zi so'zlarni tushirib qoldirishni taqozo qilsa, keyingisi misrani to'ldirish uchun so'z qo'shishni talab etadi. Binobarin, she'riy tarjimada so'zlarning goh tushib qolishi, goh qo'shilishi tabiiy hol. Shuning uchun tajribali va mahoratli tarjimonlar barcha so'zlar yig'indisidan hosil bo'lgan ma'noni berishga harakat qiladilar. Ba'zi so'zlarning ma'nosi o'shanda ham sig'may qoladigan bo'lsa, ma'noga uncha ta'sir yetkazmaydigan ba'zi so'zlardan «voz kechadilar». Zero, ikki tildagi so'zlar hamisha ham bir-biriga mos kelavermaydi. Bunda, Abu Rayhon Beruniy tavsiya qilganidek, tarjimon asosiy e'tiborni ma'noni chiqarishga qaratadi, chunki maqsad ma'noni qayta yaratishdir<sup>1</sup>.

Nasriy tarjimada bir so'z-yarim so'z orttirish mumkin. Aytaylik, 100 sahifalik asar tarjimada 120 sahifaga cho'zilsa, bu normal hodisa

<sup>1</sup> Qarang: Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, naqlar, hikmatlar, she'rlar. – Toshkent, 1973. 22-bet.

deb qaraladi. Lekin she'r tarjimasida misra orttirib bo'lmaydi: misrani misra, baytni bayt qilib tarjima qilish kerak, vassalom. Vaznni o'zgartirish mumkin, lekin bunda shakliy mutanosiblik buziladi, ritmik nomuvofiqlik natijasida ohang o'zgaradi, demakki, uning ta'siri ham boshqacha bo'ladi. Chunonchi, A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she'riy romani shiddatli va jo'shqin 9 hijoli yambda yozilgan bo'lib, O'zbek asliyatdagi so'zlar tarjimasida o'ziga qulaylik tug'dirish uchun 11 hijoli barmoq vaznini tanlagan, natijada o'zbekchada uning avji bir qadar sekinlashgan edi. Buni anglagan Mirzo Kenjabek asarning qayta tarjimasiga qo'l urganida ishni vazn masalasini hal qilishdan boshlab, romanni unga muvofiq keluvchi 9 hijoli barmoqda tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligini saqlab qolgan edi. Demak, tarjimon «muallif yaratgan mazmunni qayta yaratish uchun ham, o'girilayotgan asarning vatan adabiyoti namunasi bo'lishini taqozo etadigan darajadagi shaklini mukammal saqlash uchun ham birday mas'uldir»<sup>1</sup>.

So'zma-so'z tarjimada mazmun nafaqat g'aliz va to'mtoq, ba'zida mavhum, hatto asliyatga zid chiqib qolishi ham mumkin. Lekin bu so'zma-so'z tarjimadan mutlaqo voz kechish degani emas. Chunki ba'zida matnni so'zma-so'z tarjima qilish imkoniyati bo'ladi va undan foydalanish kerak. So'zma-so'z tarjima qilish imkoniyati mavjud bo'lgani holda tashqi jimjimadorlikka ruju qilib, chiroyli tarjima qilish maqsadida atay matnni o'zgartirish ham muvaffaqiyatga olib kelmaydi, qaytanga tarjimoni bachkanalashtiradi, u soxta qoplamali yaltiroq buyumga o'xshab qoladi. Badiiy tarjima amaliyotida shunday hodisalar ham uchraydi. Bu hodisani, ta'bir joiz bo'lsa, «tarjimadagi olifta-garchilik» yoki «olifta tarjimalar» deyish mumkin. «Chunki fikr – o'z qolipi bilan fikr. Qolipi o'zgardimi, fikrda ham ozmi-ko'pmi o'zgarish yuz berishi tabiiy. Tarjimada, baribir, qolip o'zgaradi-ku, deyishlari mumkin. O'zgaradi, lekin o'zgartirishning imkoni bo'lmagandagina o'zgaradi»<sup>2</sup>. Shuning uchun tajribali va mahoratli tarjimon imkoni bo'lganda so'zma-so'z tarjima qiladi, imkoni bo'lmaganda matnga ijodiy yondashib, ma'no tarjimasini amalga oshiradi. Chunki Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek: «Agar (tarjimalarimizda) ishlatgan

<sup>1</sup> Vladimirova N. Illat qaerdan boshlanadi? // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami), 6-kitob. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 73-bet.

<sup>2</sup> Olimov S. Navoiyning she'rshunos shogirdi. –T.: «Fan», 1990. 47-bet.

so'zlarimiz odatda ishlatiladiganga to'g'ri kelmasa, ma'nolariga e'tibor berilsin, chunki maqsad ma'nolarni bildirishdir<sup>1</sup>. Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy» asaridan Jamol Kamol tarjima qilgan quyidagi bayt xuddi shunday deyarli so'zma-so'z amalga oshirilgan deyish mumkin:

*Solho boyad, ki andar oftoob  
La'l yobad rangu raxshoniyu tob.*

Mazmuni: «La'ning oftoob ostida rangu ravshanligu yaltiroqlikka ega bo'lishi uchun uzoq yillar kerak».

*Necha bir yillar kerakkim, oftoob  
Ostida la'l tovlanib, olguncha tob.*

Tarjimon ikki so'zdan iborat «solho boyad» – «yillar kerak» iborasini kengaytirib, «necha bir yillar kerakkim» tarzida to'rtta so'z bilan o'giradi, «andar» – «ostida» (bu yerda) ikkinchi misraga o'tkaziladi, «la'l rangu porloqligu yaltiroqlikka yetguncha» misrasi esa ijodiy qayta ishlanib, «la'l tovlanib, olguncha tob» tarzida o'zbekchalashtiriladi. Tob so'zining nurlanish, shu'lalanish, porlash, yaltirash ma'nolari mavjudligini hisobga olganda bu misra tarjimasi ham har jihatdan muvaffaqiyatli chiqqanligi ma'lum bo'ladi.

Forsiy va turkiy she'riyatda shakllangan mushtarak qoliplar mavjud – ayni qoliplar asosida qurilgan jumlar tarjimasi muayyan qulayliklar tug'diradi va Jamol Kamol tillararo qaror topgan bunday imkoniyatlardan mahorat bilan foydalanadi:

*Sirri in garchi nakardam oshkor,  
Beqaroram beqaroram, beqaror.*

*Etmadim garchi bu sirni oshkor,  
Beqarormen, beqarormen, beqaror.*

Ko'rinib turibdiki, bu bayt tarjimasida birinchi misradagi besh so'zdan uchtasi tarjima matniga aynan ko'chib o'tgan, ikkitasi esa o'z ma'nosidagi muqobili bilan almashtirib qo'yilgan, ya'ni chetdan yangi so'z izlashga hojat bo'lmagan, ikkinchi misra esa o'zgarishsiz ko'ch-

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar (To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.Irisov). –T.: Yosh gvardiya, 1973. 22-bet

gan. Albatta, barcha baytlar shunday tuzilganida forsiydan o'zbekchaga tarjima deyarli muammo tug'dirmas edi, lekin bunday baytlar oz bo'lsa-da uchrab turadi va mahoratli tarjimon bunday imkoniyatdan mohirlik bilan foydalanadi.

### G'oyaviy mazmun va estetik ma'no

Badiiy asar faqat g'oyaviy mazmundan emas, balki estetik ma'nodan ham iborat bo'ladi.

Sahna asarlari tarjimasining ham o'ziga xos jihatlari mavjud: dramada ruhiy holat ifodasi, tragediyada – fojia tsviri, komediyada kulgi chiqarish asosiy o'rin tutadi.

**Estetik ma'no** deganda she'ring o'kuvchida qoldiradigan ta'siri, nash'u namosi, kayfiyati, zavqu safosi vositasida tug'diriladigan g'oyani tushunmoq kerak. Masalan:

*Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lgay,  
Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lgay,  
Hech o'ylama intiqom olishni, chunki  
Yomonga yomonligi kifoyat bo'lgay.*

Bu ruboiyning asosiy g'oyasi yaxshilikka, birovdan o'ch olish tuyg'usidan uzoq bo'lishga da'vat bo'lsa, mazmuni birovdan diling ranjib, har qancha qiynalsang-da, sira undan o'ch olishni o'ylama, chunki yomonga yomonligining o'zi yetarli jazodir, degan fikr. "Lekin bu g'oya va mazmunning o'zidan o'zidan estetik ma'no kelib chiqmaydi. Estetik ma'no shu mazmun **she'riy libosga** o'ralgandagina hosil bo'ladi. Estetik ma'no umumiy mazmunga nisbatan kengroq tushunchadir. Bas, she'riy tarjima haqida gapirganda, **mazmunning qanday saqlanganiga** emas, balki **estetik ma'no** qay darajada **qayta yaratilganligiga** qarab baho berish lozim. She'ring g'oyaviy mazmunini adabiyotshunos yoki kitobxonning o'zi ham fahmu idrok darajasiga qarab izohlab berishi mumkin. Ammo tarjimonning vazifasi bo'lak. Tarjimon **mazmunni tushuntirish bilan** emas (garchi har qanday tarjimada ham ma'lum **tafsirlash** elementi bo'lsa-da), balki shu mazmunni boshqa til ixtiyoridagi muqobil shakliy badiiy-tasviriy vositalar orqali **yangidan hosil qilish** bilan shug'ullanadi. Binobarin, tarjimon yangi til sohibi bo'lgan kitobxon oldida **muallifning to'la vakolatini olgan kishi** sifatida ish ko'rishi zarur. Demak, tarjima



muallif kashf etgan estetik voqelikning boshqa til imkoniyatlari doirasida va uning lingvo-uslubiy vositalari orqali shunday estetik voqelikka aylantirilgan teng qiymatli (ekvivalent) nusxasidir<sup>1</sup>.

Estetik ma'no shakl va mazmunning dialektik birligi zamirida tug'iladi. Holbuki, ba'zida tarjimada shoirning fikri yetkaziladi-yu, she'r tashqarida qoladi. Eshboy Pardaev tomonidan amalga oshirilgan Adib Sobir Termiziy ruboiylari tarjimasidagi quyidagi misralar bunga misol bo'la oladi:

*To may ichmasang, hargiz xursand bo'lmassan,  
Mayli, ketur, ketgan kelmaydi qaytadan.*

*Bu kun ham ul kuningdek qaytarilmaydi hech,  
Erta-indin kelur, o'tib ketur axir.*

*Nega chekasun shunchalik ko'p tashvish.*

*Menga haqorat-la qarashga haqqing yo'qdur,  
Yuz quzg'undan bir lochin yaxshiroq.*

*To'g'ri, oshiqlar tuni uzundir aksar.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Epik, lirik, dramatik tur, adabiy janr, frazeologizm, g'oyaviy mazmun va estetik ma'no.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Adabiy tur va janrlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering.
2. Nasriy va she'riy tarjimaning o'zaro farqli jihatlari nimada?
3. G'oyaviy mazmun va estetik ma'no deganda nimani tushunasiz?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

Kichik janrdagi asarlar (hikoya, novella, she'r) tarjimasining badiiy tahlili

<sup>1</sup> Salomov G., Komilov N. Jahongashta ruboiylar // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 3-kitob. -Toshkent, 1976. 118-119-betlar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G'. *Til va tarjima*. -Toshkent, 1966;
2. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari*. - Toshkent, 1983.
3. Чуковский К. *Высокое искусство*. - Москва, 1979.
4. Sharipov J. *Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar*. - Toshkent, 1972.
5. "Tarjima san'ati", "Tarjima muammolari", "Tarjima madaniyati", "Мастерство перевода", "Темаду переводчика" davriy to'plamlari.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

#### **BIRINCHI MAVZU: TARJIMA VA INTERPRETATSIYA**

##### **Dars rejasi:**

1. Interpretatsiya haqida tushuncha
2. Tarjimada interpretatsiyaning o'rni va roli

#### **IKKINCHI MAVZU: TARJIMASHUNOSLIK FANINING TARIXIY ILDIZLARI**

##### **Dars rejasi:**

1. Tarjimashunoslik tarixiga bir nazar.
2. Mashhur tarjima ustalari.
3. Beruniy va tarjima masalalari.

#### **UCHINCHI MAVZU: TARJIMANING LISONIY VA G'AYRILISONIY MUAMMOLARI**

##### **Dars rejasi:**

1. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolariga oid misollar tahlili
2. Tillararo tafovut va tarjima

#### **TO'RTINCHI MAVZU: TARJIMADA JINS KATEGORIYASI**

**Dars rejasi:**

1. Jins kategoriyasi haqida tushuncha
2. Jins kategoriyasi va tarjima muammolari

**BESHINCHI MAVZU:  
TARJIMA USULLARI**

**Dars rejasi:**

1. Tarjima usullari haqida ma'lumot
2. Tarjima amaliyotida turli tarjima usullarining o'rni va roli
3. Badiiy tarjima taraqqiyoti va tarjima usullariga munosabat

**OLTINCHI MAVZU:  
MAQOL, MATAI VA IDIOMALAR TARJIMASI TAHLILI**

**Dars rejasi:**

1. Frazelogizmlar tarjimasiga oid misollar tahlili
2. Frazeologiya va tarjima muammolari

**YETTINCHI MAVZU:  
TARJIMADA SOXTA EKVIVALENT**

**Dars rejasi:**

1. Tarjimashunoslikda soxta ekvivalent tushunchasi
2. Soxta ekvivalentlar tarjimasiga oid misollar tahlili

**SAKKIZINCHI MAVZU:  
TARJIMA MILLIY XOS SO'ZLARNING AKS ETISHI**

**Dars rejasi:**

1. Milliy kolorit va realiyalar
2. Tarjima asarlarida milliy xos so'zlarning berilishi

**TO'QQIZINCHI MAVZU:  
USLUB QATLAMLARI**

**Dars rejasi:**

1. Funktsional uslublar va ularning tarjima amaliyotidagi o'rni
2. Uslub qatlamlariga oid misollar tahlili

**O'NINCHI MAVZU:  
TERMINOLOGIYA VA TARJIMA**

**Dars rejasi:**

1. Ilmiy asarlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari
2. Terminologiya va tarjima

**O'N BIRINCHI MAVZU:  
IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASI**

**Dars rejasi:**

1. Gazeta maqolalari tarjimasini
2. Ijtimoiy-siyosiy terminlar va tarjima muammolari

## TARJIMASHUNOSLIK TERMINLARI

**Adaptatsiya** – soddalashtirish, moslashtirish.

**Adekvat tarjima** – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha “adekvatus” – “tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan”).

**Analogiya** – o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya‘ni muqobil tushuncha bilan berish.

**Aniq tarjima** – so‘zma-so‘z aniqlikka intilish.

**Antinomiya** – yunoncha anti – zid, nomos – qonun degani.

**Asliyat** – tarjimaga asos bo‘lgan asar, original.

**Badiiy uslub** – badiiy adabiyot, badiiy asarlarga xos bo‘lib, unda badiiylilik, ifodaviylilik, ta‘sirchanlik kuchli bo‘ladi.

**Vorisiylik** – bir tarjimadan ikkinchisiga ineros bo‘lib o‘tadigan xususiyatlar.

**Yozuvchi uslubi** – yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos tili, tasvirlash manerasi.

**Janr** – fransuzcha so‘z bo‘lib, shakl va mazmun jihatidan o‘ziga xos belgilar birligiga ega bo‘lgan san‘at asari turi. Badiiy asarlarning syujet va uslub jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan har bir turi.

**Idioma** – ma‘nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma‘no beruvchi ixcham ibora.

**Ijodiy tarjima** – asar g‘oyasi va badiiy o‘ziga xosligini o‘zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so‘zma-so‘z tarjimaga ham, o‘zgartiruvchi ‘erkin tarjimaga ham zid tushunchadir.

**Ilmiy uslub** – mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo‘llanishi xos bo‘lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan darslik va qo‘llanmalar ham shu uslubda yoziladi. Ilmiy uslubda biror mavzu bo‘yicha aniq, asoslangan izchil ma‘lumot berish kerak bo‘ladi.

**Interpretatsiya** – lotincha “interpretatio” so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish ma‘nosini bildiradi.

**Interpretatsiyalash** – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demakdir.

**Kolorit** – lotincha kolor, italyanacha kolorito so‘zidan olingan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma‘nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san‘atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligi tushuniladi.

**Maqol** – turmushda sinalgan, ma‘lum ezgu, tugal umumiy ma‘no anglatuvchi, ixcham, jarangdor shakliga kirib qolgan xalq hikmati.

**Matal** – tugal ma‘no ifodalamaydigan obrazli ibora.

**Mahalliy kolorit** – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish.

**Medium** – lotincha “o‘rta” degani bo‘lib, boshqa til orqali tarjima qilish ma‘nosini bildiradi.

**Milliy kolorit** – badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar majmui.

**Milliylik** – u yoki bu millatning ma‘naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklar.

**Mualliflashtirilgan tarjima** – muallifning o‘zi tomonidan yoki muallif va tarjimon hamkorligida amalga oshirilgan tarjimalar.

**Publisistik uslub** – tilning ta‘sir qudratiga asoslangan targ‘iblashviq va da‘vat uslubi. Asosan matbuot materiallari shu ustubda yoziladi.

**Rasmiy-idoraviy uslub** – o‘ziga xos nutq ushubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog‘ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy uslubda gaplar ixcham va aniq bo‘ladi.

**Realiya** – lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma‘noni bildiradi.

**Sinxron** – bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo‘lgan yoki bo‘ladigan, sinxronizmga, sinxronlikka ega bo‘lgan.

**Sinxronizm** – ikki yoki bir necha hodisa, protsess va shu kabilarning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo‘lishi.

**Sinxronist** – nutqni notiq bilan ketma-ket tarjima qilib boruvchi tarjimon.

**Sinxronlamoq** – ikki yoki bir necha hodisa, protsess va sh.k.ning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir qilmoq.

**Soxta ekvivalentlar** – tarjimashunoslikda shaklan o'xshagani bilan ma'nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so'zlar.

**So'zlashuv uslubi** – jonli nutqqa xos, o'zaro suhbat, fikr almashuv jarayoniga xos bo'lgan bayon usuli. U jonli nutqdan iborat bo'lib, bunda til qonun-qoidalariga rioya qilinmaydi.

**So'zma-so'z tarjima** – so'zni so'z bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlasmadidan qilingan tarjima.

**Tabdil** – muayyan tilning qadimiy shaklidan zamonaviy shakliga tarjima qilish.

**Taglama** – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan so'zma-so'z, jumlama-jumla, satrma-satr (she'riy tarjimada) aynan tarjima, tahtullafz, podstrochnik.

**Tarjima** – muayyan tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash.

**Tarjima nazariyasi** – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish prinsiplarini o'rganadigan filologik fan.

**Tarjima tanqidi** – tarjima jarayonini kuzatib, chop etilayotgan asarlarni baholab boradi, tarjimalar sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi. Tarjima tanqidi tarjimachilik ishining amaliy va tashkiliy masalalarini ko'tarib chiqadi, adabiy tanqid bilan hamkorlikda rivojlanadi.

**Tarjima tarixi** – tarjima adabiyotining vujudga kelishi va rivojlantirish tarixini o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan.

**Tarjimashunos** – tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, olim.

**Tarjimashunoslik** – tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidi bilan shug'ullanuvchi fan.

**Tarjimon** – bir tildagi og'zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmochi, tarjimachi.

**Tarjimonlik** – tarjima qilish, tarjima ishi bilan shug'ullanish. Kasb oti.

**Transliteratsiya** – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko'rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so'zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash.

**Uslub (Stil)** – lotincha stilus so'zidan olingan bo'lib, xat yozish uchun tayyorlangan uchi o'tkir tayoqcha. Keng ma'noda – yozuvchi ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, tor ma'noda – ifoda usuli (tarzi bayon).

**Fraza** – 1. Ibora, jumla, gap. 2. Qanotli ibora, hikmatli barqaror birikma.

**Frazeologizmlar** – maqol, matal va idiomalar.

**Frazeologiya** – 1. Barqaror so'z birikmalari. 2. Tilshunoslikning barqaror so'z birikmalarini o'rganadigan bo'limi.

**Hijaviy tarjima** – turli-tuman tillarning so'zlari o'rtasidagi nuqul tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjima.

**Erkin tarjima** – bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipi.

## TEST SAVOLLARI

- 1. O'zbekistonda tarjimashunoslik fanining asoschisi kim?**
  - A) Sanjar Siddiq
  - B) Jumaniyoz Sharipov
  - C) G'aybullay Salomov
  - D) Ninel Vladimirova
  - E) Najmiddin Komilov
- 2. Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi qachon tuzilgan?**
  - A) 1880-yilda
  - B) 1901-yilda
  - C) 1924-yilda
  - D) 1952-yilda
  - E) 1963-yilda
- 3. Tarjima so'zi qaysi so'zdan kelib chiqqan?**
  - A) tarjimon
  - B) tarzabon
  - C) mutarjim
  - D) tarujama
  - E) mutarjimun
- 4. Tarjimashunoslik qaysi fanlar tutashgan nuqtada paydo bo'lgan?**
  - A) falsafa va estetika
  - B) tarix va adabiyotshunoslik
  - C) mantiq va jamiyatshunoslik
  - D) tilshunoslik va tarix
  - E) tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- 5. Realilar nima?**
  - A) qadimiy so'zlar
  - B) ilmiy terminlar
  - C) obrazli iboralar
  - D) badiiy tasvir vositalari
  - E) milliy xos so'zlar

- 6. Asosiy jahon tillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
  - A) ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy, arab
  - B) ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy, ispan
  - C) ingliz, nemis, fransuz, arab, fors, yapon
  - D) ingliz, fransuz, rus, xitoy, hind, yapon
  - E) ingliz, rus, fransuz, ispan, xitoy, arab
- 7. "Jahon adabiyoti" jurnali qachon tashkil qilingan?**
  - A) 1970-yilda
  - B) 1985-yilda
  - C) 1991-yilda
  - D) 1997-yilda
  - E) 2001-yilda
- 8. Tarjima qilish iborasining ma'nodoshlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
  - A) ijod qilish, yaratish, o'girish, qaytarish, ag'darish
  - B) tahrir qilish, tuzatish, qayta yaratish, o'tkazish
  - C) qayta yaratish, o'girish, o'tkazish, ag'darish, qaytarish
  - D) sharhlash, yozish, yaratish, tahrir qilish, aks ettirish
  - E) bayon etish, ijod qilish, tasvirlash, yaratish, sharhlash
- 9. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari qaysilar?**
  - A) Badiiy tarjima, ilmiy tarjima, og'zaki tarjima
  - B) Badiiy tarjima, ilmiy tarjima, sinxron tarjima
  - C) Tarjima tarixi, tarjima tanqidi, tarjima targ'ibi
  - D) Tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi
  - E) Tarjima nazariyasi, tarjima metodikasi, tarjima tanqidi
- 10. Adaptatsiya nima?**
  - A) qisqartirish
  - B) soddalashtirish
  - C) sharhlash
  - D) o'zgartirish
  - E) milliyashtirish
- 11. Tarjimada interpretatsiya nima?**
  - A) ijodiy tarjima qilish
  - B) erkin tarjima qilish



- C) moslashtirish
- D) o'zgartirish
- E) sharhlash

**12. Tarjimashunoslikda nechta yo'nalish mavjud?**

- A) tarix va estetika
- B) tilshunoslik va qiyosiy adbiyotshunoslik
- C) tilshunoslik va adbiyotshunoslik
- D) qiyosiy uslubshunoslik va qiyosiy adbiyotshunoslik
- E) badiiy va ilmiy tarjima

**13. Tarjima sifatini aniqlashning asosiy mezoni nima?**

- A) badiiylik
- B) aniqlik
- C) tarjimon mahorati
- D) qiyos
- E) muqobillik

**14. Tarjimaning asl nusxaga muqobilligi nima?**

- A) mazmunan muvofiqligi
- B) shaklan muvofiqligi
- C) mamunan va shakl jihatidan uyg'unligi
- D) badiiy va estetik jihatdan mosligi
- E) shaklan va usluban mosligi

**15. Adekvat tarjima nima?**

- A) Asl nusxaga muqobil tarjima
- B) Asl nusxaga teskari tarjima
- C) Qisqartirilgan tarjima
- D) Soddalashtirilgan tarjima
- E) Milliydashirilgan tarjima

**16. Zullisonayn so'zining ma'nosi nima?**

- A) ikki xalqqa mansub kishi
- B) ikki shoxli
- C) bilingvist
- D) ikki tilni bilguvchi
- E) V va G javoblar to'g'ri

**17. Asliyat nima?**

- A) Badiiy barkamol asar
- B) Yozuvchining eng yangi asari
- C) Tarjima uchun asos bo'lgan asar
- D) Tarjima qilingan asar
- E) Badiiy barkamol tarjima

**18. Umar Xayyomning o'zbek tarjimoni sifatida mashhur bo'lgan o'zbek tarjimoni kim?**

- A) Abdurauf Fitrat
- B) G'afur G'ulom
- C) Shoislom Shomuhamedov
- D) Jamol Kamol
- E) Nusrat Karim

**19. She'riy tarjimada ekvimetrik nima?**

- A) vazniy muvofiqlik
- B) shakliy muvofiqlik
- C) mazmuniy moslik
- D) uslubiy moslik
- E) ritmik muvofiqlik

**20. "Uchinchi adabiyot" nima?**

- A) xorijiy adabiyot
- B) vatan adabiyoti
- C) qardosh xalqlar adabiyoti
- D) tarjima adabiyoti
- E) original adabiyot

**21. Taglama nima?**

- A) so'zma-so'z tarjima
- B) satrma-satr tarjima
- C) jumlama-jumla tarjima
- D) aynan tarjima
- E) barcha javoblar to'g'ri

22. "Men bilgan ijod turlari ichida eng ko'p mehnat talab qiladigan va eng kam e'tibor qilinadigani tarjimadir", – degan fikr kimga tegishli?

- A) Alisher Navoiy
- B) Aleksandr Pushkin
- C) Vladimir Mayakovskiy
- D) Abdulla Oripov
- E) G'aybulla Salomov

23. Tarjima ekviritmiklik nima?

- A) ritmik muvofiqlik
- B) shakliy muvofiqlik
- C) vazniy muvofiqlik
- D) mazmuniy muvofiqlik
- E) uslubiy muvofiqlik

24. Badiiy tarjima san'atning qaysi turiga kiradi?

- A) musiqa
- B) rassomchilik
- C) raqs
- D) haykaltaroshlik
- E) so'z

25. Neologizmlar nima?

- A) tarixiy so'zlar
- B) qadimiy so'zlar
- C) milliy so'zlar
- D) yangi so'zlar
- E) ma'nodosh so'zlar

26. Tarjimada ekvileniarlik nima?

- A) so'zlar aniqligi
- B) satrlar aniqligi
- C) uslub aniqligi
- D) mazmun aniqligi
- E) g'oya aniqligi

27. Tarjimada maslakdoshlik nima?

- A) uslublarning to'g'ri kelib qolishi
- B) ruhan yaqinlik
- C) yoshning to'g'ri kelib qolishi
- D) ijodiy maktablarning mushtarakligi
- E) fikrlarning to'g'ri kelib qolishi

28. Medium tushunchasi nimani anglatadi?

- A) asl nusxa tilidan tarjima qilish
- B) boshqa til orqali tarjima qilish
- C) vositachi til orqali tarjima qilish
- D) B va V javoblar to'g'ri
- E) barcha javoblar to'g'ri

29. Bevosita tarjima qilish?

- A) vositachi til orqali tarjima qilish
- B) boshqa til orqali tarjima qilish
- C) asl nusxa tilidan tarjima qilish
- D) A va V javoblar to'g'ri
- E) to'g'ri javob yo'q

30. Bilvosita tarjima qilish?

- A) vositachi til orqali tarjima qilish
- B) asl nusxa tilidan tarjima qilish
- C) boshqa til orqali tarjima qilish
- D) A va V javoblar to'g'ri
- E) barcha javoblar to'g'ri

31. Tarjima muallifning ...

- A) raqibi
- B) do'sti
- C) hamkori
- D) davomi
- E) ikkinchi hayoti

32. Uslubiy moslashtirish nima?

- A) asar yaratilgan davr uslubini saqlash
- B) asarda tasvirlangan davr uslubini saqlash
- C) muallif uslubini saqlash

- D) muallif va tarjimon uslubini moslashtirish
- E) tarjimon uslubini saqlash

**33. Tarjimada milliylashtirish nima?**

- A) asl nusxani soddalashtirib tarjima qilish
- B) asl nusxani qisqartirib tarjima qilish
- C) asl nusxani milliylashtirib tarjima qilish
- D) asl nusxani tarjima tiliga moslashtirish
- E) asl nusxani tarjima tilida qaytadan yozib chiqish

**34. Adekvat tarjima nima?**

- A) aynan tarjima
- B) har jihatdan mos tarjima
- C) mazmunan muqobil tarjima
- D) shaklan muqobil tarjima
- E) A va B javoblar to'g'ri

**35. Tabdil nima?**

- A) uzoq tillardan tarjima qilish
- B) yaqin tillardan tarjima qilish
- C) qadimiy tildan hozirgi tilga tarjima qilish
- D) o'lik tillardan tarjima qilish
- E) belgilar tilidan tarjima qilish

**36. Erkin tarjima nima?**

- A) ijodiy tarjima
- B) aniq tarjima
- C) soddalashtirilgan tarjima
- D) milliylashtirilgan tarjima
- E) tarjimon tomonidan o'zgartirilgan tarjima

**37. Frazologizmlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?**

- A) maqol, hikmat, she'r
- B) matal, hikoya, ruboiy
- C) maqol, matal, idioma
- D) ibora, topishmoq, fard.
- E) aforizm, g'azal, matal.

**38. Realiyalar tarjimasida qanday usullar qo'llaniladi?**

- A) transliteratsiya, analogiya, yangi so'z va so'z birikmasi yasash
- B) transkripsiya, analogiya, neologizm
- C) transliteratsiya, antinomiya, interpretatsiya
- D) analogiya, erkin, so'zma-so'z.
- E) transformatsiya, transliteratsiya, yangi so'z va so'z birikmasi yasash

**39. Qanday funksional uslublarni bilasiz?**

- A) so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publisistik, rasmiy
- B) badiiy, ommabop, modern
- C) rasmiy, noilmiy, mantiqiy
- D) lisoniy, adabiy, so'zlashuv
- E) ilmiy, rasmiy, norasmiy

**40. Adabiy turlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) epik, lirik, dramatik
- B) logik, pragmatik, dramatik
- C) liro-epik, grammatik, epik
- D) logik, dramatik, lirik
- E) tragik, dramatik, komediya

## TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANIDAN SAVOLLAR

1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasi nimadan iborat?
2. Qaysi tarjima maktablarini bilasiz?
3. Abu Rayhon Beruniyning tarjimon va tarjimashunos sifatidagi faoliyatiga baho bering.
4. «Meditsina», «algoritm», «algebra» terminlariga asos bo'lgan olimlar va ularning asarlari nomini keltiring.
5. O'zbekistonda tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi qaysi olimning nomi bilan bog'liq? Uning xizmatlari nimalardan iborat?
6. IX asr birinchi yarmida Bag'dodda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi – «Bayt ul-hikma» («Bilimlar uyi») ning tarjima sohasidagi faoliyatiga baho bering.
7. O'zbekistonda tarjimashunoslik qachondan mustaqil fan sifatida qaror topgan?
8. O'zbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
9. Tarjimada davr uslubini saqlash deganda nimani tushunasiz?
10. Tarjima qilish iborasining ma'nodoshlarini ko'rsating.
11. Tarjimon, tarjima, mutarjim so'zlari qanday paydo bo'lgan?
12. Tarjima tarixi nima bilan shug'ullanadi?
13. Asl nusxa bilan tarjima tili o'rtasida yuz beradigan grammatik tafovutlar qaysilar?
14. Badiiy tarjimaning yangi janrlar va uslublar rivojidadagi o'rnini ta'riflab bering.
15. Tarjima qusurlarining kelib chiqish sabablari nimada?
16. Funktsional uslublar va ularning tarjima amaliyotidagi o'rnini qanday?
17. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari haqida ma'lumot bering.
18. Til o'rganish va tarjimaning bir-biriga bog'liq jihatlari qaysi?
19. Tarjima antinomiyalari deganda nimani tushunasiz? Ulardan asosiylari qaysi?
20. Tarjimaning milliy tillarning rivojlanishidagi ahamiyati nimadan iborat?
21. Grammatik tarjima nima?
22. Kinofilmlar tarjimasi (dublyaj) haqida tushuncha bering.

23. Tarjimadagi interpretatsiya nima?
24. Qanday tarjima usullarini bilasiz?
25. Yaqin tillardan tarjimada tarjimonni chalg'itib qo'yadigan holatlar qaysi?
26. Frazeologizmlar tarjimasida qanday usullar qo'llaniladi?
27. Tarjima sohalar bo'yicha qanday bo'linadi?
28. Tarjima nazariyasining vazifasi nimadan iborat?
29. G'oyaviy mazmun nimayu, estetik ma'no nima?
30. Terminologiya tarjimasida qanday usullar qo'llaniladi?
31. Tarjimada kompensatsiya nima?
32. Soxta ekvivalent deganda nimani tushunasiz?
33. Uzoq va yaqin tillardan tarjimaning qiyinchiliklari nimada-yu, qulayliklari nimada?
34. Qanday adabiy turlarni bilasiz?
35. Qaysi uslub «aralash uslub» deb yuritiladi va nima uchun?
36. Tarjimada jins kategoriyasining mavqei qanday?
37. Tarjimon mahorati deganda nimani tushunasiz?
38. Qayta tarjimadan maqsad nima?
39. Personajlar nutqi tarjimada qanday aks ettiriladi?
40. Badiiy matn tarjimasi qanday xususiyatlarga ega?
41. Medium tushunchasi nimani anglatadi?
42. Grammatik tarjima nima?
43. Uslubiy tarjima nima?
44. Tarjimashunoslikda qanday yo'nalishlar mavjud?
45. Tarjimon oldiga qanday talablar qo'yiladi?
46. She'riy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
47. Nasriy tarjimada nimalarga e'tibor qaratish kerak?
48. Tarjima nazariyasining ilmiy va amaliy ahamiyati nimadan iborat?
49. Tarjimada adaptatsiya nima?
50. Uslubiy moslashtirish deganda nimani tushunasiz?

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Badiiy tarjima – do'stlik quroli (maqolalar to'plami). – T.: "O'qituvchi", 1974.
2. Badiiy tarjimonning aktual masalalari. – T.: "Fan", 1977.
3. G'afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. T., 2008.
4. Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati, 4-kitob. – T., 1978.
5. Javbo'riev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish. Dissertatsiya. – Toshkent, 1991.
6. Komilov N. Bu qadimiy san'at. – T., 1988.
7. Mo'minov O., Turg'unov R., Rashidova A., Alimova D., – Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. T., 2008.
8. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: "Fan", 2005.
9. Nurmuhamedov. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. – T.: "Fan", 1979.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.
11. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. – T.: "Fan", 1980.
12. Salomov G'. Ey umri aziz. 1-kitob. – T.: Sharq nashriyoti, 1997.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1983.
14. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: "O'qituvchi", 1978.
15. Salomov G'. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
16. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1983.
17. Salomov G'. Tarjimon mahorati. – Toshkent: "Fan", 1979.
18. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: "Fan", 1966.
19. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. – Toshkent: "Fan", 1972.
20. Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan. – Toshkent: "Fan", 1965.
21. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari, Toshkent, "Mumtoz so'z", 2011.
22. Sultonova D. She'r va tarjima. Samarqand, 2009.

23. Tarjima madaniyati (maqolalar to'plami). – T.: "O'qituvchi", 1982.
24. Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar to'plami. – T.: TDU., 1979.
25. Tarjima san'ati (maqolalar to'plami) – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 3-kitob - 1976, 4-kitob - 1978, 5-kitob - 1980, 6-kitob - 1985.
26. Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlar. – T.: "O'qituvchi", 1975.
27. O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Nomzodlik dissertatsiyasi aftoreferati. – Toshkent, 2008.
28. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – T., 2006.
29. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 7-jild. – T., 2004.

## RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод, ИМО, 1975.
2. Билыева Т.Н. Цели и задачи устного перевода // Вестник МГУ. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2005 №1.
3. Брейс Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский. – М., 2000.
4. Виссон Л. Синхронный перевод. – М., 1998.
5. Комиссаров В.Н. «Общая теория перевода». – М., 1999.
6. Лулова А. Введение в общую теорию перевода. – М.: Высшая школа, 1985.
7. Мирам Г.Э. Профессия: переводчик. – Киев: Ника-Центр, 1999.
8. Морозов М.М. Пособие по переводу. – М.: Иностранная литература, 1985.
9. Россельс В.М. Сколько весит слово: Статьи разных лет. – М., 1984.
10. Рыльский М. Искусство перевода. – М., 1986.
11. Тюленев С.В. Теория перевода. – М., 2004.
12. Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. – Т.: Фан, 1979.
13. Федоров А. В. Введение в теорию перевода. – М., 1986.



14. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1983 Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: Издательство литературы на иностранный язык, 1953
15. Чернов Г.В. Основы синхронного перевода. – М., 1987

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-mavzu:</b> Tarjima haqida umumiy tushuncha. Xalqlar va tillar .....	4
<b>2-mavzu:</b> Tarjima nazariyasi predmeti va tarjimashunoslik fanlarining tasnifi .....	14
<b>3-mavzu:</b> Tarjimaning til muammolari.....	23
<b>4-mavzu:</b> Qiyosiy grammatika va qiyosiy uslubshunoslik .....	30
<b>5-mavzu:</b> Tarjimaning tur va xillari, sohalar va janrlar bo'yicha bo'linishi.....	37
<b>6-mavzu:</b> Frazologizmlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari.....	47
<b>7-mavzu:</b> Yaqin tillardan tarjima muammolari .....	51
<b>8-mavzu:</b> Tarjima va milliy kolorit .....	68
<b>9-mavzu:</b> Tarjimada funksional uslublar .....	82
<b>10-mavzu:</b> Ilmiy tarjima murakkabliklari.....	91
<b>11-mavzu:</b> Badiiy tarjima turlari, janrlari va uslublari .....	96
<b>Amaliy mashg'ulotlar</b> .....	103
<b>Tarjimashunoslik terminlari</b> .....	106
<b>Test savollari</b> .....	110
<b>Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan savollar</b> .....	118
<b>Tavsiya etilgan adabiyotlar</b> .....	120

**TARJIMA NAZARIYASI VA  
AMALIYOTI**

Texnik muharrir:  
*Mirolim Zarifov*

*Musahhit:*  
*Shohida Shakirova*

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012